

SPARK

**Avtomobildan
foydalanish qo'llanmasi**

ALBATTA FAQAT OKTAN SONI 91 BO'LGAN ETILLASHTIRILMAGAN YONILG'I FOYDALANING!



Ushbu avtomobilning dvigateli avtomobilarni ishlab chiqish sohasida oxirgi yutuqlarga muvofiq loyihalashtirilgan va yasalgan.

Bu tejamkor, texnik takomillashtirilgan va atrof muhitni muhofaza qilish talablariga javob beradigan modeldir.

Dvigatelning tegishlicha ishlashi uchun faqat oktan soni 91 dan kam bo'limgan etillashtirilmagan yuqori sifatli yonilg'idan foydalanish lozim.

«AVTOMOBILNI YURGIZISH VA BOSHQARISH - Yoqilg'i» 8-12 betiga qarang.

Yonilg'ining boshqa turlarini ishlatilish avtomobilning foydalanish xususiyatlarining yomonlashuviga olib kelishi va kafolatning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin!

KIRISH

Mazkur Qo'llanma avtomobil egasini «UzAuto MOTORS» AJ da ishlab chiqarilgan avtomobilning tuzilishi, ishlashi va unga texnik xizmat ko'rsatilishi bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma avtombildan xavfsiz va uzoq muddatli foydalanish qoidalari haqidagi muhim axborotni o'z ichiga oladi. Biz Sizga mazkur Qo'llanmani diqqat bilan o'rganib chiqib, unda keltirilgan barcha tavsiyalarga amal qilishni qat'iy ravishda maslahat qilamiz. Chunki bu umuman avtomobilning, uning agregatlari va tizimlarining butun xizmat qilish muddati davomida xavfsiz, ishonchli xizmat qilishini ta'minlaydi.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalariga murojaat qilishni tavsiya etamiz, ularning malakali xodimlari va texnologik jihoz-uskunalarini barcha texnik xizmat ko'rsatish amallarining tegishli darajada bajarilishini ta'minlay oladi. «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalarida Siz o'zingizga va avtomobilingizga o'ta e'tiborli va qiziquvchan munosabatning guvohi bo'lasiz.

Shuningdek, paytdan foydalanib, tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. «UzAuto MOTORS» AJ keyinchalik ham tanlovingizni oqlash uchun nimaiki mumkin bo'lsa, barcha ishlarni bajarishga intiladi.

Mazkur Qo'llanmani avtomobilning ichida, agar unga zarurat tug'iladigan bo'lsa, u doimo qo'lingiz yonida bo'ladijan qilib saqlashni tavsiya etamiz. Avtomobilni sotgan holda, Qo'llanmani uning yangi egasiga berishni unutmang!



AVTOMOBIL EGASINING DIQQATIGA

Avtomobildan foydalanishni boshlashdan avval mazkur Qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va uning barcha tavsiyalariga qat'iy ravishda amal qiling.

Avtomobilning egasi uchun eng muhim axborotni ajratib ko'rsatish uchun Qo'llanmada og'ma harflar bilan yozilgan **DIQQAT, OGHLANTIRISH** va **XAVFLI** maxsus so'zlari ishlataladi.

⚠ XAVF-XATAR!

Ushbu xabarda o'limga olib kelishi mumkin bo'lган jarohatlarni olish xavfi bilan bog'liq bo'lган ma'lumot bor.
Ushbu ogohlantirishga e'tibor bermaslik insonning hayoti uchun xavfli bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Yo'l-yo'rqlar va ogohlantirishlar Sizga har xil turdag'i jarohatlarni olish xavf-xatarini kamaytirish yoki ehtimolining oldini olish imkonini beradi. Jarohatlanishga (shu jumladan yo'llovchilar jarohatlanishiga) yo'l qo'ymaslik uchun albatta avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishda xavfsizlik qoidalariaga amal qiling!

⚠ OGHLANTIRISH!

Ushbu xabarlar ba'zi texnik xizmat ko'rsatish amallarini bajarishning o'ziga xos xususiyatlarga, nosozliklarni bartaraft etish usullariga, to'g'ri yo'llariga va hokazolarga tegishli bo'ladi.

Bu tavsiyalarga amal qilish. Sizga avtomobil shikastlanishi va ishdan chiqishining oldini olishga yordam beradi.

Ushbu axborotga alohida e'tibor bering va Sizning xavfsizligingiz choralariga oid eng muhim ma'lumotlarni eslab qolishga harakat qiling.

Avtomobildan foydalanish va uning tuzilishiga oid Qo'llanma nashr etilgan paytiga kelib avtomobilning konstruksiyasiga kiritilgan barcha oxirgi o'zgarishlar va takomillashtirishlarni hisobga olgan holda tayyorlangan.

«UzAuto MOTORS» AJ ishlab chiqariladigan avtomobilarning konstruksiyasiga yoki texnik xususiyatlarga avvaldan ogohlantirmagan holda o'zgartirishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bir qator hollarda avtomobil ba'zi davlatlarda amal qiladigan standartlarga va qoidalarga mos kelmasligi mumkin.

Avtomobilni ro'yxatdan o'tkazishdan avval, uning mahalliy me'yorlar va qoidalarning talablariga to'liq mos kelishiga ishonch hosil qiling. Zarur bo'lгanda avtomobilni ushbu talablariga mos holga keltiring. Ushbu ishlar yuzasidan «UzAuto MOTORS» AJ ning dileri bilan maslahatlashing.

Mazkur kitobda xaridorning maxsus buyurtmasiga ko'ra o'rnatiladigan qo'shimcha jihoz-uskunalar va «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan Qo'llanma nashr etilgan sanasiga kelib, taklif etiladigan avtomobil salonining jihozlanishi ta'riflanadi. Shuning uchun Sizning avtomobilingizda bu yerda tilga olingan qo'shimcha jihoz-uskunalar yoki salon jihozlanishining ba'zi jihatlari bo'lmasligi mumkin. Avtomobilda radio, CD pleyer va orqa ko'rish kamerasi bo'lmasligi mumkin. Zarur bo'lгanda «UzAuto MOTORS» AJ ning dileriga taklif etiladigan qo'shimcha jihoz-uskunalar hamda salonning jihozlanishi va pardozlanishi darajasi yuzasidan to'liq axborot olish uchun murojaat qiling.

Shuni ko'zda tutish lozimki, boshqa firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan va belgilab berilgan sinovlardan o'tmagani ehtiyoj qismi va anjomlar avtomobilimizda qo'llanishi mumkin emas.

«UzAuto MOTORS» AJ tavsiya etilgan moslamalardan farq qiluvchi ehtiyoj qismi va moslamalarning qo'llanishi tufayli yuzaga kelgan avtomobilning har qanday shikastlanishlari uchun javobgar bo'lmaydi.

Ma'lum betlarga havolalar deb belgilanadi.

deb «betiga qarang» degan ma'noni bildiradi.
«AVTOMOBILNI BOSHQARISH VA MUOMALA QILISH - Yoqilg'i» bo'limidagi ishlatalidigan yonilg'ining turiga alohida e'tibor bering (8-12 beti).

MUNDARIJA

1. Kalit, eshik va oynalar	1-1
2. O'rindiqlar, himoya tizimi	2-1
3. Saqlash joylari	3-1
4. Boshqaruv vositalari va asboblar	4-1
5. Chiroqlar	5-1
6. Axborot-ko'ngil ochar tizim	6-1
7. Iqlim nazoratini boshqarish organlari	7-1
8. Avtomobilni yurgizish va boshqarish	8-1
9. Avtomobilga ko'rsatiladigan xizmatlar	9-1
10. Servis va texnik xizmat ko`rsatish.....	10-1
11. Texnik ma'lumotlar	11-1
12. Mijoz haqida ma'lumot	12-1

1

KALIT, ESHIK VA OYNALAR

-
- KALIT VA QULFLAR1-2
 - ESHIKLAR1-6
 - AVTOMOBILNI HIMoya QILISH1-7
 - TASHQI KO'ZGULAR1-9
 - ICHKI KO'ZGULAR1-11
 - OYNALAR1-12

KALIT VA QULFLAR

Kalitlar

Qo'shimcha kalitlar

Kalit raqami yechiladigan yorliqda ko'rsatiladi. Modomiki kalit o'g'irlanishga qarshi tizimning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanar ekan, qo'shimcha to'plam tayyorlashga buyurtma berilganda uning raqamini aytish zarur bo'ladi. Qulflar ⇨ 9-38-betlarda.



Bukiladigan kalit

Ochish uchun tugmachani bosing. Kalitni ochish uchun tugmachani bosing va kalit tilini qo'l yordamida kiriting.

Masofadan boshqariladigan radiobrelok (jevak)



Quyidagilarni boshqarish uchun qo'llaniladi:

- Markaziyl qulfa
- O'g'irlanishga qarshi signalizatsiya
- Avtomobil signalizatsiyasi

Masofadan turib boshqariladigan pultning ta'sir doirasasi chamasiga 20 metrda teng. Ta'sir doirasasi tashqi omillar sababli kamayishi mumkin.

Masofadan boshqariladigan pult ishi avariya chirog'i signalizatsiyasining o'chib-yonishi orqali o'z tasdig'ini topadi.

Pultdan ehtiyyot bo'lib foydalanish, uni namlikidan va yuqori haroratdan himoya qilish lozim, zarur bo'limganda foydalanmaslik talab etiladi.

Nosozliklar

Agar pult yordamida markaziyl qulfa boshqarilmasa, nosozlikka quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- Pult ta'sir doirasining uzoqlashib ketishi,
- Pult batareyasi quvvatining me'yordan pasibay ketishi,
- Pultni uning ta'sir doirasidan uzoqda tez-tez yoqish, bu esa o'z navbatida, uning takroriy moslashuvini talab etadi,
- Tez-tez yoqib-o'chirilganda markaziyl qulfa ortiqcha yuk tushadi, shu sababli uning elektr ta'minoti qisqa vaqtga uzilib qolishi mumkin,
- Tashqi manbalardan keladigan kuchli elektr magnit to'lqinlar.


Masofadan boshqariladigan pult batareyasini almashtirish

Pultning ta'sir etish masofasi sezilarli qisqara boshlashi bilan uning batareyasini almashtiring



Batareyalarni oddiy maishiy chiqindilarga qo'shmaslik kerak. Ularni maxsus chiqindilarni qabul qilish punktlariga topshirish talab etiladi.

Bukiladigan kalit



Izoh: Almashtirish uchun CR 2032 (yoki shunga monand) batareyadan foydalaning.

1. Pult qopqog'ini oching.
2. Foydalaniib bo'lingan batareyani chiqaring. Bosma platanning boshqa tarkibiy qismlarga tegib ketishdan saqlang.
3. Yangi batareya o'rnatning. Batareyaning manfiy (-) kontakti plataga nisbatan pastga qaratilishi lozim.
4. Pult qopqog'ini yoping.
5. Masofadan boshqariladigan pultning ishini avtomobilda sinab ko'ring.

Bukilmas kalit

D/QQAT!

Batareyaning silliq yuzasiga qo'l tek kazmang. Bu batareyaning xizmat ko'satish muddatini kamaytirishi mumkin.

Izoh: Foydalaniib bo'lingan litiyli batareyalar atrof-muhitga ziyon yetkazadi. Chiqindilarni yo'qotish bo'yicha mahalliy qoidalarga riosa qiling. Foydalaniib bo'lingan batareyalarni maishiy chiqindilarga tashlamang.

Izoh: Masofadan boshqariladigan pultning ishlash muddatini saqlash uchun quyidagi qoidalarga riosa eting:
Masofadan boshqariladigan pultni tushirib yubormang.
Pultning ustiga og'ir narsalar qo'y mang.
Pultni suv tegishidan va quyosh nurlarini to'g'ridan to'g'ri tushishidan saqlang. Agar masofadan boshqariladigan pult namlik ta'siriga uchrasa, uni yumshoq mato bilan arting.

Markaziy qufl

Eshiklarni markazdan blokirovkalash tizimi haydovchingning eshik panelidan faollashtiriladi. Mazkur tizim kalit, masofadan boshqarish pulti (tashqaridan) yoki eshik quflini blokirovkalash

tugmasi yordamida barcha eshiklarni haydovchi eshigi paneli orqali quflash va ochish imkonini beradi.

Haydovchi eshigi ochiq holatda bo'lganda markaziy qufl ishlamaydi.

Markaziy qufl tugmasi



Barcha eshiklarni va yukxona eshigini quflash va ochish

Quflash uchun tugmasini bosing.

Ochish uchun tugmasini bosing.

Haydovchi eshigi ochiq bo'lganda haydovchi eshigini va yonilg'i baki qopqog'ini quflab bo'lmaydi.

Qulfdan bo'shatish



➊ tugmasini bosing.

Barcha eshiklar qulfdan chiqadi. Avariya signalizatsiyasi chirog'i ikki marta yonib-o'chadi.

Qulfflash



➋ tugmasini bosing.

Barcha eshiklar qulflanadi. Avariya signalizatsiyasi chirog'i bir marta yonib-o'chadi.

Avtomobil signalizatsiyasi




- Avtomobilni mashinalar turarjoyidan izlash tizimi:

Avtomobil turgan joyni aniqlash uchun ➤ tugmasini bosib, qo'yib yuboring.

Brelokdag'i boshqa istalgan tugma bosilmagunga qadar burilish ko'satkichlari o'chib-yonib turadi.

- Xavf-xatar signalizatsiyasi (ushbu funksiya mexanik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobilda mavjud emas):

Xatar signalizatsiyasini faollashtirish uchun ➤ tugmasini bir marta bosib, qo'yib yuboring. Brelokdag'i istalgan tugma bosilgunga qadar, tovush signali ishga tushadi va burilish ko'satkichlari yonib-o'chib turadi.

Masofadan boshqarish tizimining nosozligi**Blokirovkadan chiqarish**

Haydovchi eshidigidagi qufga kalitni kiritib qo'lda burab oching.

Qulflash


Haydovchi eshigini yoping va uni tashqaridan kalit yordamida quflang.

**Markaziy qulfning nosozligi
Blokirovkadan chiqarish**

Haydovchi eshidigidagi qufga kalitni kiritib qo'lda burab oching. Boshqa eshiklarni ichki tutqichlar yordamida ochish mumkin.

Qulflash

Haydovchi eshididan tashqari barcha eshiklardagi qulf flash tugmalarini bosib chiqing. So'ngra haydovchi eshigini yopib, uni tashqaridan kalit yordamida quflang.

**Bolalarni himoya qilish maqsadida
quflarni blokirovkalash****⚠ D/QQAT!**

Bolalarni himoyalashda eshik quflari blokirovkasi LOCK holatiga o'tkazilganda ichki eshik tutqichini tortmang. Bu ichki eshik tutqichining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

⚠ OGohlantirish!

Orqa o'rindiqlarda bolalar bo'lganda, quflarni blokirovkalashdan foydalaning.

Quflarni blokirovkalash uchun blokirovka dastakchasi tepaga torting.

Qufl blokirovkasi yoqilgan orqa eshiklarni ochish uchun qufnini ichkaridan, eshikni tashqaridan oching.

Blokirovkadan chiqarish uchun dastakchani ochilish holatigacha pastga tushiring.

ESHIKLAR

Yukxona bo'limi

Yukxona eshigi, ochish

1-tur



Yukxona eshigini ochish uchun kalitni qulf teshigiga suqing, soat strelkasiga qarshi burang va uzun tutqichidan torting.

Yukxona eshigi kalit yordamida yoki kalitsiz barcha eshiklar quflanganda quflanadi yoki ochilganda ochiladi. Yukxona eshigi qufldan chiqarilgandan so'ng, eshikni ochish uchun uzun tutqichni torting.

OGOHLANTIRISH!

Orqa eshiklar to'liq yoki qisman ochiq holatlarda, masalan, yirik yuklar tashilganda harakatlanish man etiladi, chunki bunda salonga foydalanib bo'lingan zaharli gazlar kirib qolishi mumkin.

DIQQAT!

Yukxona qopqog'ini ochishdan avval, hech qanday to'siqlar, masalan garaj eshigi yo'qligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, yukxona qopqog'iga shikast yetkazilishi mumkin. Har doim yukxona qopqog'ini ustida va uning ortida bo'sh joy borligini tekshiring.

Izoh: Orqa eshikka ba'zi bir og'ir moslamalar o'rnatilgan bo'lsa, ochiq holatda uni mahkamlab bo'lmaydi.

Yukxona eshigi, yopish

1-tur



Orqa eshikni yopish uchun uni pastga tushirib, qattiq yoping. So'ngra qulf teshigiga kalitni suqib, uni soat strelkasi bo'yicha burang.

Orqa eshikni yopish uchun uni tushirib, qattiq yoping. Barcha eshiklar quflanganda u ham avtomatik tarzda quflanadi.

Yopilayotgan eshik orasida qo'lingiz yoki tanangizning boshqa qismlari qolib ketishidan ehtiyyot bo'ling.

AVTOMOBILNI HIMOYA QILISH

O'g'irlanishga qarshi signalizatsiya

O'g'irlab ketishga qarshi signalizatsiya quyidagi larni nazorat qiladi:


- Yon eshiklar, yukxona eshigi, kapot.
- O'toldirish

Yoqish



Bevosita tugmasini bosish orqali

Holatlar indikatori



Xavfsizlik tizimi indikatori avtomobilni o'g'irlab ketishga qarshi tizim ishlayotganini ko'rsatgan holda, yonib-o'chib turadi.

Kalitsiz qulflash pulsi yordamida eshik ochilganda indikator o'chadi. Siz kalitsiz qulflash pulsi yordamida eshikni qulflashingiz bilan indikator yonadi.

O'chirish



Avtomobil qulfi tugmasini bosib ochilganda, o'g'irlanishga qarshi signalizatsiya o'chadi.

Tovush signali

Istalgan eshik, yukxona eshigi yoki kapot bo'ladi mi pulning blokirovkadan chiqarish tugmasini bosmasdan ochilgan taqdirda, tizim xavf signalini tovushini chiqaradi.

Tovush signalini o'chirish uchun puldag'i qulflash tugmasini yoki ochish tugmasini bosing.

Shuningdek, tovush signali 28 soniyadan so'ng avtomatik tarzda o'chadi; biroq bunda olib ochishiga qarshi tizim ishga tushadi.

Agar tizim yuqorida qayd etilgan taqdirda ishlamasaga, tekshirish uchun maxsus servis-markazlarga murojaat qiling.

Harakatsizlantirish tizimi**Harakatsizlantirish tizimi indikatori****2- tur**

Agar kalit yaroqsiz bo'lsa, indikator lipillaydi, biroq avtomobilni harakatlantirib bo'lmaydi.

Eshik quflarining avtomatik blokirovkasi

Agar eshik quflari masofadan boshqarish puli yordamida ochilgandan so'ng 30 soniya davomida eshiklar ochilmasa yoki o't oldirish kaliti ACC yoki ON holatiga tushirilmasa, barcha eshiklar avtomatik tarzda qayta blokirovkalaniqoladi.

Harakatsizlantirish tizimi

Harakatsizlantirish tizimi avtomobilni o'g'irlab ketishga qarshi unga o'rnatilgan qo'shimcha himoya vositasi hisoblanadi va u dvigatelni

TASHQI KO'ZGULAR

ruxsatsiz ishga tushirishning oldini olishga xizmat qiladi. Harakatsizlantirish tizimi o'rnatalgan avtomobil larga faqat elektron tarzda kodlangan transponderga ega o't oldirish kaliti to'g'ri keladi. Transponder kalit ichiga o'rnatalidi va u tashqaridan ko'rinnaydi.

Dvigatelni ishga tushirish uchun faqat tegishli kalitlardan foydalanish mumkin.

O't oldirish kaliti "LOCK" holatiga buralgandan va qulfdan tortib olingandan so'ng avtomobil dvigateli avtomatik tarzda blokka tushib qoladi. Harakatsizlantirish tizimi indikatori quyidagi sharoitlarda yonadi:

- Agar kalit ON yoki START holatlariada bo'lganda Harakatsizlantirish tizimida xato qayd etilsa (shu jumladan, dasturlangan kalit ma'lumotlarini to'plash tartibida ham), Harakatsizlantirish tizimi indikatori yonib-o'chadi yoki doim yonib turadi.
- Ba'zi bir Yevropa mamlakatlarda avtomobilni himoya qilish darajasini ko'tarish maqsadida qo'shimcha tarzda yordamchi Harakatsizlantirish tizimidan ham foydalaniлади. Modul yangi modul bilan almashtirilsa, avtomobilni o't oldirib bo'lmaydi. Agar avtomobilni o't oldirib bo'lmasa yoki i harakatsizlantirish tizimi indikatori o'chib-yonsa yoki doim yonib tursa, maxsus servis markazlarda tizimni tekshirtiring.

Keng qamrovli ko'zgu

Keng qamrovli ichki ko'zgu ko'rinnaymaydigan zonalarni kamaytiradi. Bunda obyektlarning tasviri ko'zguda kichiklashadi, bu esa ulargacha bo'lgan masofani aniqlash imkonini kamaytiradi.

Qo'l bilan boshqariladigan ko'zgular



Tashqi orqa kuzatuv ko'zgularini avtomobilning har ikki yon tomoni va avtomobil ortidagi yo'lning ikki tarafni ko'rinnadigan qilib joylashtirish kerak.

Ko'zgularni talab darajasidagi burchak ostida o'rnatish uchun boshqaruvchi dastaklarni muvofiq yo'nalishda joylashtiring.

Elektr uzatmali ko'zgular



Talab darajasida bo'lgan chapga (L) yoki (R) o'nga buruvchi moslamalarga ega tashqi ko'zgularni tanlang. So'ngra dastakning holatini o'zgartirgan holda, ko'zgularning joylashuvini o'zingizga moslashtirib o'zgartiring.

Qayriladigan ko'zgular



Piyodalarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashqi ko'zgular muayyan kuch kelib urilishidan qayriladi. Ko'zgularni ishchi holatiga keltirish uchun uning korpusiga yengilgina tegib qo'yilsa bas.



OGOHLANTIRISH!

Ko'zgularning muvofiq joylashuvini albatta kuzatib boring va avtomobilni haydayotganda atrofdagi obyektlar hamda mashinalarni ko'rishda ulardan foydalaning.


ICHKI KO'ZGULAR**Isitiladigan ko'zgular**

1-tur




2-tur

 tugmasini bosganda yonadi
Dvigatel yonganda qizyidi va bir necha
daqiqadan so'ng avtomatik tarzda yoki tugma
takror bosilganda o'chadi.

**Orqa manzara uchun qo'lida sozlanadigan
ko'zgular**

OYNALAR




Aks etuvchi shu'lalarni kamaytirish uchun dastakni ko'zgu korpusining quyi qismi tomon torting.

⚠ OGOLANTIRISH!

Ko'zgular tungi holatga moslab o'rnatilganda atrof manzaraning aniqligi yomonlashishi mumkin. Orqa manzaraning ichki ko'zgularidan foydalanganda, ayniqsa, ehtiyojkorlik talab etiladi.

Yurib ketayotganda orqa manzaraning unchalar ravshan ko'rinnasligi to'qnashuvga olib kelishi, bu esa o'z navbatida, avtomobilga yoki boshqa mulkka hamda sog'liqqa ziyon yetkazishi mumkin.



Deraza oynalarini oynako'targichlar tutqichi yordamida ochish va yopish mumkin.

Qo'lda sozlanadigan oyna ko'targichlar

Elektr oynako'targichlar

⚠ OGOLANTIRISH!

Elektr oynako'targichlardan ehtiyojkorlik bilan foydalaning. Ular ishlaganda jarohat yetkazish ehtimoli yuqori, ayniqsa bolalarga. Agar orqa o'rindiqlarda bolalar o'tirgan bo'lsa, elektr oynako'targichlarning qisib qolishidan himoya qiluvchi moslamani yoqing. Himoya kamari va mahkamlagichlardan birgalikda foydalanganda Top Tether buzilishi mumkin. Yopayotganda oynalarni diqqat bilan kuzatib turing.

Qisilib qolishi mumkin bo'lgan buyumlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.



1-tur



2-tur

Elektr oynako'targichlar mashina o't oldirilganda ishlaydi. Oynani ko'tarish yoki tushirish uchun muvofiq ravishda oynako'targich moslamasini bosing yoki torting.

Boshqarish

Elektr oynako'targichni o't oldirish kaliti ON holatda bo'lganda, har bir eshik panelidagi oynako'targichlarni boshqarish moslamasi yordamida boshqarish mumkin.

Oynani ochish uchun o'chirib-yoqish tugmasini pastga tushiring.


Oynalarni yopish uchun uni ko'taring.

Oynani o'zingiz istagan holatga keltirish uchun o'chirib-yoqish tugmasini pasaytiring.

Orqa oynako'targichlar shikast yetkazishidan bolalarni himoya qilish tizimi.



1-tur



2-tur

OGOLHLANTIRISH!

Oynadan bosh, qol' va tananing boshqa qismlarini chiqarish natijasida jarohat olish mumkin. Oynadan hech qayeringizni chiqarmang.

Bola bilmasdan elektr oynako'targichni yoqib yuborishi va uni oyna qisib qo'yishi mumkin.

Avtomobilda kalitni goldirish yoki bolalarni yolg'iz tashlash mumkin emas.

Elektr oynako'targichdan noto'g'ri foydalanganda o'ta jiddiy, hattoki o'limga sabab bo'lувчи jarohatlar yetkazilishi mumkin.

Orqa oynako'targichlarni blokirovka qilish uchun o'chirib-yoqish tugmasidan foydalanish mumkin.

Tugma takror bosilsa blokirovkadan chiqadi.

Isitiladigan orqa oyna



1-tur



2-tur

tugmasini bosish orqali ishlaydi. Dvigatel yongan holatda qiziydi va bir necha daqiqalardan so'ng avtomatik tarzda yoki tugma takror bosilganda o'chadi.

DIQQAT!

Orqa oynani tozalash uchun oynalar uchun mo'ljallangan abraziv tozalash vositalaridan va o'tkir asboblardan foydalanmang. Oynalarni tozalashda yoki orqa oyna yonida ishlaganda ehtiyojkorlikka rioya eting va ularni qirib yubormaslikka harakat qiling.

Quyoshdan himoya qiluvchi soyabonlar

Quyoshdan himoya qiluvchi soyabonlarni ko'tarib qo'yish yoki yorqin nuring tik tushishidan himoya qilish maqsadida ularni yon tomonga surish mumkin.

Agar quyoshdan himoya qiluvchi soyabonlarga ko'zgular o'rnatilgan bo'lsa, mashina haydayotganda ular qopqoqlar bilan yopib qo'yilishi kerak.

OGohlantirish!

Quyoshdan himoya qiluvchi soyabonlarni shunday joylashtiringki, bunda ular yo'l, transport vositalari va boshqa obyektlarni to'sib qo'ymasin.

2

O'RINDIQLAR, HIMOYA TIZIMI

-
- BOSHQO'YGICHALAR 2-2
 - OLD O'RINDIQLAR 2-3
 - XAVFSIZLIK KAMARI 2-6
 - XAVFSIZLIK YOSTIG'I TIZIMI 2-10
 - BOLALARNI USHLAB TURUVCHI QURILMALAR 2-15
 - ESLATMALAR 2-22


2-2 O'RINDIQLAR, HIMOYA TIZIMI

BOSHQO'YGICHALAR

Holati


⚠ OGOLANTIRISH!

Boshqo'ygichlar to'g'ri rostlangan holatlardagina yuring.
Agar boshqo'ygichlar olib tashlangan yoki noto'g'ri o'matilgan bo'lsa, to'qnashuvlar yuz berganda bosh va bo'yin qattiq shikastlanadi. Avtomobilni harakatga keltirishdan avval boshqo'ygichlar to'g'ri rostlanganiga ishonch hosil qiling.



Boshqo'ygichning yuqori chekkasi boshning tepe qismiga to'g'ri kelishi kerak.
Agar buning iloji bo'lmasa, juda bo'ychan odamlarga eng yuqori holatni o'rnatish lozim bo'ladi, bo'yin past insonlar uchun esa - boshqo'ygichni eng past holatga tushirib qo'yish kerak.

Old o'rindiqlarning boshqo'ygichlari




Balandlikni rostlash

Boshqo'ygichni tepaga torting.
Boshqo'ygichni pastga tushirish uchun fiksatorni bosib, boshqo'ygichni pastga itaring.

OLD O'RINDIQLAR

Orqa o'rindiq boshqo'ygichlari



Balandlikni rostlash

Boshqo'ygichjni tepaga torting.

Boshqo'ygichjni pastga tushirish uchun fiksatorni bosib, boshqo'ygichjni pastga itaring. Fiksatorni bosib, boshqo'ygichjni yuqoriga torting.

O'rindiqlar holati

⚠ OGOLHLANTIRISH!

O'rindiqlar faqat to'g'ri rostlangan holatlardagina yuring.



Yechish

- O'rindiqlar qadar ichkariroq o'tiring. O'rindiq bilan pedallar orasidagi masofani pedalni bosganda oyoqlaringiz biroz bukiladigan darajada o'rnatishingiz lozim. Yo'lovchi o'rindigini tiralgunga qadar orqaga suring.
- Yelkalarining iloji boricha o'rindiq suyanchigiga yaqin bo'lishi kerak. O'rindiq suyanchigini shunday joylashtirinki, bunda qo'llilarining bilan rul chambaragini bema'loli ushlay olishingiz va ular xiyolgingina bukilgan.

bo'lishi lozim. Rul chambaragini aylantirganda yelkalarining o'rindiq suyanchigiga tiralishi kerak. O'rindiq suyanchigini haddan ziyyod orqaga tushirib yubormaslik zarur. Suyanchiqning og'ish burchagi taxminan 25°ga teng bo'lishini tavsiya qilamiz.

- Rul chambaragini rostlang. Rul chambaragi holatini rostlash \Rightarrow 4-2-betlarda keltiriladi.
- O'rindiqni shunday balandlikda o'rnatingki, bunda atrof manzaraning va asboblar panelining to'liq va yaxshi ko'rinishi ta'minlansin. Bosh bilan shift qoplamasi o'tasida bir kaftdan kam bo'lмаган oraliq masofa qolsin. Yonbosh o'rindiqlarga xiyol tegib turishi kerak.
- Boshqo'ygichni rostlang. Boshqo'ygichlar haqida \Rightarrow 2-2-betlardan o'qing.
- Xavfsizlik kamari balandligini to'g'rilang. Uchnuqtalgi xavfsizlik kamari haqidagi ma'lumotlar \Rightarrow 2-7-betlarda keltiriladi.

O'rindiqlarni rostlash



⚠ XAVF-XATAR!

Xavfsizlik yostig'i ishga tushganda jarohat yetkazilishining oldini olish uchun rul chambaragidan 25 sm dan uzoq masofada joylashing.

⚠ OGOLHLANTIRISH!

Avtomobil yurib ketayotganda o'rindiqlari surmang, chunki u o'z-o'zidan siljib ketishi mumkin.

O'rindiqlarni talab darajasidagi holatga keltirish



Tutqichni torting, o'rindiqni suring, tutqichni qo'yib yuboring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

O'rindiqni o'rnatayotganda fiksator dastagi markazidagi qamrov zonasidan foydalaning.



O'rindiqlar suyanchig'i



Dastakni torting, qiyalikni sozlang va dastakni qo'yib yuboring. O'rindiq yangi holatga o'ziga xos qarsillab joylashadi.

O'rindiqni sozlayotganda suyanchiqqa suyanmang.

O'rindiqlar balandligi




O'rindiq asosining tashqi tarafidagi maxovik (g'ildirakcha)ni u talab etilgan holatni egallagunga qadar burang.

Old o'rindiq tirsakqo'ygichi *



Haydovchi o'rindig'ining ichki tomonida tirsakqo'ygich mavjud. Tirsakqo'ygichni tushirish yoki joyiga ko'tarib qo'yish uchun, tirsakqo'ygichni o'zini pastga yoki tepaga torting.

Isitiladigan old o'rindiqlar



1-tur



2-tur

XAVFSIZLIK KAMARI

O'rindiqlarni isitish tugmalari old konsolda joylashadi.

O'rindiqlarni isitish uchun:

1. O't oldirish tizimini ishga tushiring.
2. Kerakli o'rindiqli isitish tugmasini bosing.
- Tugmada yorug'liq indikatori yonadi.
3. O'rindiq isitgichini o'chirish uchun tugmani qayta bosing.

Terisi sezgir bo'lgan insonlar maksimal darajadagi isitishdan uzoq vaqt davomida foydalanishlari tavsiya qilinmaydi.

O'rindiqlar dvigatel ishlab turgan vaqtdagina isitiladi.

Xavfsizlik kamarlari.



Kamarlar mashina keskin to'xtaganda yoki tezlashganda haydovchi va yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlaydi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Yo'lga chiqishdan avval xavfsizlik kamarini taqib olish kerak.

Avariya yuz berganda xavfsizlik kamarini bog'lab olmag'anlar boshqa barcha yo'lovchilar uchun ham va o'zi uchun ham xavftug'diradi.

Xavfsizlik kamari bir vaqtda faqat bir kishi tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanadi. Xavfsizlik kamaridan bo'y 150 sm dan past bo'lganlar foydalanmasliklari kerak.

Bolalar uchun mo'ljallangan ushlab qoluvchi moslamalar \diamond 2-15-betlarda keltiriladi.

Kuchli shikast yetkazilgan moslamalarni almashtirish talab etiladi.


Ariyadan keyin xavfsizlik kamari va kamarlarni tortib turuvchi moslamalarni servis markazlarda almashtiring.

Izoh: Kamarlarga poyabzal yoki boshqa o'tkir narsalar tomonidan shikast yetkazilmaganiga yoki siqib qolimaganiga ishonch hosil qiling. Kamarni tortib oluvchi mexanizm ichiga yot jismilar tushishining oldini oling.

Taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori . Xavfsizlik kamari haqida ogohlantirish \diamond 4-12-betlarda.

Kamar tarangligini cheklovchilar

Old o'rindiqlarda xavfsizlik kamarining muntazam ravishda zaiflashib borishi hisobiga to'qnashuv yuz berganda tanaga bo'ladi gan og'irlilik pasayadi.

Kamarni tortib turuvchilar

Ro'paradan va yon tomondan muayyan kuch bilan bo'ladijan to'qnashuvda oldingi xavfsizlik kamarlari cho'ziladi.

 OGOHLANTIRISH!

Noto'g'ri foydalanish (masalan, kamarlarni o'rnatishda yoki qismrlarga ajratishdagi xatoliklar) kamar tortuvchilarining ishlab ketishiga va bu oqibatda jarohatlanish xavfining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Indikator ma'lumotlari kamar tortuvchilarining yemirilib ketganini ko'rsatadi.

Xavfsizlik kamari haqidagi eslatma ⇨ 4-12-betlarda.

Yemirilgan kamar tortuvchi moslamalar servis markazlarda almashtiriladi.

Kamar tortuvchilar – bu bir martalik foydalaniладиган, яани qayta ta'mirlanmaydigan moslama.

Izoh: Kamar tortuvchi moslamalarning ishlashiga xalal beradigan vositalar yoki begona buyumlarni o'rnatmang va foydalanmang.

Xavfsizlik kamarini tortib turadigan moslamalarni o'zgartirish man etiladi, chunki bu kabi harakatlar bu turdag'i avtomobilidan foydalanish uchun beriladigan ruxsatnomani bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

Uchnuqtali xavfsizlik kamari**Taqish**

Kamarni g'altakdan chiqaring, qayrimasdan tanangiz ustidan o'tkazing va tasma tilini maxsus qufga kiriting.

Diagonal kamarni tortib turgan holda bel kamarini bir tekisda torting.

Xavfsizlik kamari signalizatori.

Xavfsizlik kamari haqidagi eslatma ⇨ 4-12-betlarda.



Erkin va qalin kiyimlar kamarni tanaga zinch yopishib turishiga yo'l bermaydi. Kamar va tana o'tasida ayollar sumkasi yoki uyali telefonlarni joylashtirmang.



OGOHLANTIRISH!

Kamarni kiyim cho'ntaklaridagi qattiq yoki sinadigan narsalarning ustidan o'tkazmaslik kerak.


Balandlikni sozlash




1. Tugmani bosing.

2. Balandlikni muvofiqlashtirib, mahkamlang. Tegishli ravishda to'g'rilangan balandlikda kamar yelka orqali o'tadi. U tomoq qarshisidan yoki qo'lning yuqori qismidan o'tmasligi lozim.

Yechish





Kamarni yechib tashlash uchun kamar qulfidagi qizil tugmani bosing.

Orqa o'rindiqlardagi xavfsizlik kamarlari

O'rta o'rindiqdagi xavfsizlik kamari o'rindiq suyanchig'i orqa holatda bo'lgandagina tortiladi.

Homiladorlik vaqtida xavfsizlik kamaridan foydalanish



⚠ OGOHLANTIRISH!

Qorinning pastki qismiga bosim tushishining oldini olish uchun bel kamari imkon qadar tos sohasining pastidan o'tkazilishi kerak.

Xavfsizlik kamarlari barcha uchun, shu jumladan, homilador ayollar uchun ham mo'ljallangan.

Avtomobilda bo'lganlarning barchasi kabi xavfsizlik kamarni taqmagan homilador ayollar ham ancha jiddiy jarohat olishlari mumkin.

Shuningdek, to'g'ri taqilgan xavfsizlik kamari to'qnashuv yuz berganda, nafaqat homilador ayloning, balki uning homilasi xavfsizligini ham ta'minlaydi.

Homilador ayollar maksimal himoyani ta'minlash uchun uchnuqtali xavfsizlik kamarni taqishlari talab etiladi.

Homilador ayollarda xavfsizlik kamarinining belbog' qismi imkon qadar pastdan o'tkazilishi kerak bo'ladi.

XAVFSIZLIK YOSTIG'I TIZIMI

Xavfsizlik yostig'i tizimi bir qator alohida tizimlardan tashkil topadi.

Ishga tushgan xavfsizlik yostiqlari juda oz millisekundlar davomida havoga to'ladi.

Ular shu qadar tez dam oladiki, to'qnashuv vaqtida ko'pincha ular hattoki sezilmaydi ham.

OGOLANTIRISH!

Noto'g'ri yondashilganda xavfsizlik yostig'ining portlab ketish ehtimoli ham yuzaga kelishi mumkin.

Haydovchi imkon qadar orqaga tarisilgan va avtomobil ustidan nazoratni saqlab qolgan holatda o'tirishi kerak. Xavfsizlik yostig'iغا juda yaqin o'tirilganda uning havoga to'lishi davomida o'ta jiddiy yoki o'limga olib keluvchi jarohatlar ham yetkazilishi mumkin.

Har qanday avariya yuz berganda maksimal darajadagi xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomobildagi barcha odamlar, xususan haydovchi ham, doim xavfsizlik kamarini taqib olgan bo'lishi kerak.

Bu bilan jiddiy va o'limga sabab bo'lувчи jarohatlar yetkazilish xavfi kamayadi. Avtomobil harakatlanayotganda xavfsizlik yostig'iغا juda yaqin o'tirmang vaunga tiralmang.

Xavfsizlik kamari ishlab ketganda yuz va tanaga ozroq lat yetkazilishi yoki singan ko'zoynaklardan, portlash natijasida kuyishlardan ham jarohatlanish ehtimoli mavjud.

Izoh: Xavfsizlik yostig'i va kamar tortuvchilarini boshqarishning elektron bloklari markaziy konsol yonida joylashadi. Ularga magnitlangan buyumlarni yaqinlashtirish man etiladi. Xavfsizlik yostig'ini yopib turgan panellarga yot jismilar yopishtrimang va ularning ustini boshqa materiallar bilan qoplamang.

Har bir xavfsizlik yostig'i bir marotaba ishlaydi.

Ishlatilgan xavfsizlik yostig'ini texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida almashtiring.

Xavfsizlik yostig'i tizimida o'zgarishlar qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, bunday holatlarda avtomobildan foydalanan ruxsatnomasi o'z kuchini yo'qotadi.

Xavfsizlik kamari ishlatalgandan keyin rul chambaragi, asboblar paneli, barcha qoplama qismi, eshiklar, tutqichlar va o'rindiqlarini mahkamlovchi moslamalarni texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida demontaj qilish ishlari bajariladi.

Xavfsizlik yostig'i ishga tushganda kuchli qarsillash eshitiladi va tutun chiqadi. Bunday holatlar me'yoriy va xavfsizdir, biroq ba'zan ular yo'lovchi terisining qichishmalariga olib kelishi mumkin.

Agar terining qichishishi o'tib ketmasa, shifokorga murojaat qilish kerak.

XAVF-XATAR!

O'spirinlar, yosh bolalar, homilador ayollar, qariyalar yoki sog'lig'i zaif insonlarni xavfsizlik yostig'i bilan jihozlangan old o'rindiqlarga o'tkazish man etiladi.

Shuningdek, bunday o'rindiqlarga maxsus bolalar o'rindiqlarini joylashtirish ham mumkin emas. Avariya yuz berganda havoga to'ladijan xavfsizlik kamari jiddiy jarohat yetkazishi va hattoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

DIQQAT!


Avtomobil o'nqir-cho'o'nqirlarga tushganda yoki qattiq qoplamasiz yo'llar va yo'laklardagi biror jismlarga urilganda ham xavfsizlik yostig'i ishlab ketishi mumkin. Avtomashinalar harakatlanishi ko'zda tutilmagan joylarda harakatlanganda xavfsizlik yostig'ining ishlab ketmasligi uchun juda ehtiyoj bo'lib, sekin harakatlanish talab etiladi.

Xavfsizlik yostig'i ishlab ketganda undan chiqayotgan qaynoq gaz terining kuyishiga sabab bo'lishi mumkin.


Xavfsizlik yostig'i tizimi indiktori  . Xavfsizlik yostig'i va xavfsizlik kamarini tortuvchi moslama indikatori to'g'risidagi eslamalar ⇨ 4-12-betlarda.

Old tomon xavfsizlik yostiqlari tizimi

Old tomon xavfsizlik yostiqlari tizimi rul chambaragidagi bitta xavfsizlik yostig'i va yo'lovchi tomonidagi asboblar panelidagi yana bir xavfsizlik yostig'idan iborat. Xavfsizlik yostig'i o'rnatilgan joy AIRBAG (xavfsizlik yostig'i) so'zi bilan belgilab qo'yilgan.



Belgilangan zonaga muayyan kuch kelib urilganda, old tomon xavfsizlik yostiqlari ishga tushadi. Bunda mashina o't olgan bo'lishi kerak.





Old o'rindiqlarda o'tirgan yo'lovchilarining oldinga harakatlanishi sekinlashadi va bu bilan tananing yuqori qismi va boshning jarohatlanish xavfi ancha kamayadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

O'rindiqlar to'g'ri o'rnatilgan bo'sagina, eng optimal himoyani ta'minlash mumkin bo'ladi. O'rindiqlar holati ⇨ 2-3-betlarda keltiriladi. Xavfsizlik yostig'i ochiladigan joyda hech qanday to'siqlar bo'lmasligi kerak. Xavfsizlik kamarini to'g'ri va mahkam qilib o'rnatning. Faqat mana shunday holatdagina xavfsizlik yostig'i himoya qiladi.


Yon tomon xavfsizlik yostiqlari tizimi




2-12 O'RINDIQLAR, HIMOYA TIZIMI

Yon tomon xavfsizlik yostiqlari tizimi old o'rindiqlar suyanchig'idagi xavfsizlik yostiqlarini o'z ichiga oladi.

Xavfsizlik yostiqlari o'matilgan joy AIRBAG (xavfsizlik yostig'i) so'zi bilan belgilab qo'yilgan.



Yon tomon xavfsizlik yostiqlari tizimi yetarli darajada kuchli to'qnashuv yuz berganda ishga tushadi. Bunda mashina o't oldirilgan bo'lishi kerak.



To'qnashuv yuz bergan holatlarda gavdaning va tos sohasining jarohatlanish xavfi sezilarli tarzda kamayadi.

⚠️ OGohlantirish!

Xavfsizlik yostiqlari ochiladigan sohada hech qanday to'siqlar bo'lmasligi kerak.

Izoh: Avtomobil uchun faqat ruxsat etilgan o'rindiqlar jildidan foydalaning. Xavfsizlik yostiqlarini to'sib qo'ymang.

⚠️ OGohlantirish!


Yon tomon xavfsizlik yostiqlari yaqinida o'tirgan bolalar xavfsizlik yostig'i ishlab ketganda, ayniqsa, yonlama yostiq yonida ularning boshi, bo'yni yoki ko'krak qismi yaqin turgan bo'lsa, jiddiy va o'limga sabab bo'luvchi jarohatlarni olish xavfiga duch kelishlari mumkin.

Hech qachon bolalarga eshikka suyanib o'tirishga yoki yonlama xavfsizlik yostig'i modulli yonida turishga ruxsat bermang.


Boshni himoya qilish uchun mo'ljallangan darparda tizimi



Xavfsizlik darpardasi tizimi tom qurilmasining turli tarafidagi xavfsizlik yostiqlaridan iborat. Bu joylar tom tayanch qurilmasida AIRBAG (xavfsizlik yostig'i) so'zi bilan belgilab qo'yilgan.



Boshni himoya qilish uchun mo'ljallangan xavfsizlik darpardasi juda kuchli to'qnashuv yuz berganda ishga tushadi. Bunda mashina o't oldirilgan bo'lishi kerak.



Yon tomondan to'qnashuv yuz berganda boshning jarohatlanishi xavfi ancha kamayadi.

OGOHLANTIRISH!

Xavfsizlik yostig'i ochiladigan joyda hech qanday to'siq bo'lmasligi kerak. Eshik tepasida joylashgan ilgaklarga faqat yengil kiyim-kechaklarni osishga ruxsat etiladi. Bu kiyimlarda yotjismlar bo'lmasligi lozim.

Xavfsizlik yostig'ini ishga tushirish moslamasi

Xavfsizlik yostig'i ochiladigan joyda hech qanday to'siqlar bo'lmasligi lozim. Eshik tepasidagi ilgaklarga faqat yengil kiyimlarni osish mumkin (kiyimligichsiz). Bu kiyimlarda yotjismlar bo'lmasligi zarur.



Oldinda o'tirgan yo'lovchi qarshisidagi xavfsizlik yostig'i asboblar paneli yon tomonida joylashgan o'chirish moslamasi yordamida uzb qo'yiladi, buni oldindagi yo'lovchi eshigini ochganda amalga oshirish mumkin bo'ladi.

⚠ OGOLHLANTIRISH!

Agar oldindagi yo'lovchi joyida bola o'tirgan bo'lsa, old tomon yo'lovchisi xavfsizlik yostig'ini o'chirib qo'yishni unutmang.

Agar old yo'lovchi o'rindig'ida katta odam o'tirgan bo'lsa, xavfsizlik yostig'ini yoqib qo'ying.

O'toldirish kalitini zarur holatga qo'ying:
OFF O'chirish = old yo'lovchi o'rindig'ining xavfsizlik yostig'i tizimi o'chirilgan, to'qnashuv vaqtida u ishga tushmaydi.

OFF nazorat indikatori uzluksiz yonib turibdi. Sxemaga muvofiq bolalarni ushlab turuvchi qur ilmani o'rnatishga ruxsat beriladi.

ON Yoqish = old yo'lovchi o'rindig'ining xavfsizlik yostig'i yonib turibdi. Bolalarni ushlab turuvchi qurilmani o'rnatishga ruxsat berilmaydi.

Agar **OFF** nazorat indikatori yonmayotgan bo'lsa, old yo'lovchi o'rindig'i xavfsizlik yostig'i to'qnashuv yuz berganda ishlab ketadi.

O'chirish moslamasining holatini avtomobil to'xtab turgan va o'chirilgan holatda o'zgartirish mumkin.

Bu holat navbatdagi o'zgartirishgacha saqlanib turadi.

Xavfsizlik yostiqlarini o'chirish haqidagi ma'lumotlar 4-13-betlarda berilgan.



1-tur



2-tur

BOLALARNI USHLAB TURUVCHI QURILMALAR

Bolalarning xavfsizligini ta'minlashning maxsus mana shu avtomobil uchun mo'ljallangan GM tizimidan foydalananish tavsya etiladi.

Bolalar uchun xavfsizlik tizimidan foydalanganda uni o'rnatish va foydalinish bo'yicha quyida keltirilgan yo'riqnomha hamda tizimni ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan tavsiyalarga riyo qiling.

Mahalliy qonun va qoidalarga doim riyo qiling. Ba'zi mamlakatlarda muayyan joylarga bolalar o'rindiqlarini o'rnatish man etiladi.



⚠ OGohlantirish!

Ular oldidagi XAVFSIZLIK YOSTIG'I FAOLLASHTIRGAN holatda bo'lganda Bolalarni ushlab turuvchi qurilmadan foydalinish QAT'IYAN MAN ETILADI! Bolaga OG'IR JAROHAT yetkazish yoki uning O'LIMI xavfi yuzaga keladi!

⚠ OGohlantirish!

Old yo'lovchi o'rindig'ida bolalarni ushlab turuvchi qurilmani o'rnatishdan avval old yo'lovchi uchun xavfsizlik yostig'ini o'chirib qo'yish zarur. Aks holda, xavfsizlik yostiqlari ishlab ketsa, bolaning o'limiga sabab bo'lувчи jarohat yetkazilish xavfi yuqori bo'ladi. Bunda ayniqsa, bolalarni ushlab turuvchi qurilma old yo'lovchi o'rindig'iga avtomobilning yurishiga qarshi holatda o'rnatiladigan bo'lsa, xavf yanada oshadi.

Xavfsizlik yostig'ini o'chirib qo'yish. Xavfsizlik yostig'ini o'chirish moslamasi haqida ⇨ 2-13 betlarga qarang.

Tizimni to'g'ri tanlash

Bolalarni ko'proq vaqt avtomobilda harakat yo'nalişiga qarshi holatda o'tqazish lozim. Bunda avariya yuz berganda bolaning xali zaif bo'lgan umurtqa pog'onasiga kamroq yuk tushadi.

12 yoshdan kichik va 150 sm dan past bo'lgan bolalarni avtomobilda faqat muvofiq turdagি maxsus ushlab turuvchi qurilmalar bo'sagina o'tqazishga ruxsat etiladi.

ECE 44-03 yoki ECE 44-04 talablariga mos bo'lgan ushlab turuvchi qurilmalardan foydalaniш mumkin. Modomiki bo'y 150 sm dan past bo'lgan bolalarga mos maxsus xavfsizlik kamarlari bilan ta'minlanish imkonи kam ekan, biz muvofiq ushlab turuvchi qurilmalardan foydalinishni sizga qat'iyatlilik bilan tavsya etamiz, garchi yosh bo'yicha qonun buni talab qilmasa-da.

Bolalarni ushlab turuvchi qurilmalarga doir mamlakatingizda ishlab chiqilgan qonun va qoidalarni o'rganing. Avtomobil harakatlanayotgan vaqtida bolani qo'lda ushlab o'tirishga ruxsat berilmaydi. To'qnashuv yuz bersa, unga ta'sir ko'satadigan kuch bolaning og'irligini bir necha marotaba oshirib yuboradi, shuning uchun ham uni ushlab qolishning iloji bo'lmaydi.

Bolalarni mashinada olib yurganda ular gavdasining og'irligiga to'g'ri keladigan ushlab turuvchi qurilmalardan foydalinish maqsadga muvofiq.

O'rnatilayotgan bolalarni ushlab turuvchi moslama avtomobilda foydalaniladigan mustahkamlash tizimiga muvofiq kelishiga ishonch hosil qiling.

Ushlab turuvchi moslama o'rnatiladigan joyning to'g'ri tanlanganini tekshiring.

Bolalarni avtomobilga o'tkazish va ularni avtomobildan tushirish faqat bir tomondan, ya'nii yo'lda harakatlanish bo'lmayotgan tarafdan amalgalash oshiriladi.

Agar bolalarni ushlab turuvchi qurilmadan foydalanimayotgan bo'lsangiz, ularni xavfsizlik kamari yordamida mahkamlab qo'ying yoki umuman olib tashlang.

Izoh: Bolalar ushlab turuvchi moslamalarni boshqa materiallar bilan qoplash yoki yopishtirish man etiladi.

Avariyada bo'lgan ushlab turuvchi qurilmani, albatta, almashtirish talab etiladi.

Harakatlanishdan avval go'daklar va bolalar orqa o'rindiqlarda faqat ushlab turuvchi qurilmalarda ekanliklariga ishonch hosil qiling.

Modomiki bolalar xavfsizlik kamaridan foydalana olmas ekanlar, ularning yoshiga mos keladigan ushlab turuvchi qurilmalarni tanlang va albatta ulardan foydalaning.

Bolalarni ushlab turuvchi qurilmadan foydalanimish bo'yicha yo'riqnomaga bilan tanishib chiqing.

ISOFIX o'rindiqlari va o'lchamlari sinfi

A - ISO/F3: Avtomobil harakatlanayotgan tomonga yuzlatib o'rnatiladigan, 9 dan 18 kg gacha bo'lgan vazndagi bolalar uchun mo'ljallangan ushlab turuvchi qurilma.

B - ISO/F2: Avtomobil harakatlanayotgan tomonga yuzlatib o'rnatiladigan, quyi segmentda 9 dan 18 kg gacha bo'lgan vazndagi bolalar uchun mo'ljallangan ushlab turuvchi qurilma.

B1 - ISO/F2X: Avtomobil harakatlanayotgan tomonga yuzlatib o'rnatiladigan, quyi segmentda 9 dan 18 kg gacha bo'lgan vazndagi bolalar uchun mo'ljallangan ushlab turuvchi qurilma

C - ISO/R3: Avtomobil harakatlanayotgan tomonga qarama-qarshi o'rnatiladigan, yuqori segmentda 13 kg gacha bo'lgan vazndagi bolalar uchun mo'ljallangan ushlab turuvchi qurilma

D - ISO/R2: Avtomobil harakatlanayotgan tomonga qarama-qarshi o'rnatiladigan, quyi segmentda 13 kg gacha bo'lgan vazndagi bolalar uchun mo'ljallangan ushlab turuvchi qurilma.

E - ISO/R1: Avtomobil harakatlanayotgan tomonga qarama-qarshi o'rnatiladigan, 13 kg gacha bo'lgan vazndagi kichik bolalar uchun mo'ljallangan ushlab turuvchi qurilma.

Bolalar uchun mo'ljallangan ISOFIX mahkamlagichga ega ushlab turuvchi qurilma



Bolalarni ushlab turuvchi qurilmalarini o'rnatishga ruxsat etiladigan joylar

Bolalarni ushlab turuvchi qurilmani ruxsat etilgan o'rnatish yo'llari

Old yo'lovchi o'rindig'iga

Vazni va yosh toifasi	Xavfsizlik yostig'i faollashtirilgan	Xavfsizlik yostig'i faollashtirilmagan	Orqa o'rindiqlarning yon tomonlariga	Orqa o'rindiq o'rta qismiga
Guruhi 0: 10 kg gacha yoki 10 oylik atrofida	X	U ¹	U ²	U
Guruhi 0+: 13 kg gacha yoki 2 yoshlar chamasida	X	U ¹	U ²	U
Guruhi I: 9 dan 18 kg gacha yoki taxminan 8 oylikdan 4 yoshgacha	X	U ¹	U ²	U
Guruhi II: 15 dan 25 kg gacha yoki taxminan 3 yoshdan 7 yoshgacha	X	X	U	U
Guruhi III: 22 dan 36 kg gacha yoki taxminan 6 yoshdan 12 yoshgacha	X	X	U	U

1. Old yo'lovchi xavfsizlik kamari uzib qo'yilgan holatda. Bolalarni ushlab turuvchi qurilmani uchnuqtali xavfsizlik kamari yordamida mustahkamlashda xavfsizlik kamari yuqorida mahkamlovchi moslamadan oldinga chiqayotganini kuzatib turish lozim.

2. ISOFIX va Top-Tether mustahkamlovchi tizimli o'rindiqlar.

U: Uchnuqtali xavfsizlik kamaridan foydalanish barcha turdagilar uchun mos keladi.

X: bu vazn toifasida ruxsat etilmaydigan bolalarni ushlab turuvchi qurilmalar.

ISOFIX bolalarni ushlab turuvchi qurilmani ruxsat etilgan o'rnatish yo'llari

Vazn guruhi	O'lcham toifasi	Mustahkamlash	Old yo'lovchi o'rindig'iga	Orqa o'rindiqlarning yon tomonlariga	Orqa o'rindiqning o'tasiga
Guruh 0: 10 kg gacha	E	ISO/R1	X	IL ¹	X
Guruh 0+: 13 kg gacha	E	ISO/R1	X	IL ¹	X
	D	ISO/R2	X	IL ¹	X
	C	ISO/R3	X	IL ¹	X
Guruh I: 9 dan 18 kg gacha	D	ISO/R2	X	IL ¹	X
	C	ISO/R3	X	IL ¹	X
	B	ISO/F2	X	IL, IUF	X
	B1	ISO/F2X	X	IL, IUF	X
	A	ISO/F3	X	IL, IUF	X

(1) Old yo'lovchi o'rindig'ini old tomonga oxirigacha yoki bolalarni ushlab turuvchi qurilma old o'rindiqning suyanchig'iga tegib qolmagunga qadar oldinga suring.

IL: ISOFIX toifadagi muayyan xavfsizlik tizimlariga mos keladi: "maxsus shu toifadagi avtomobillar uchun", "cheklangan" va "yarim universal". ISOFIX xavfsizlik tizimi avtomobilning muayyan bir turi uchun tasdiqlanishi kerak.

IUF: suyanchig'i orqaga qilib o'rnatiladigan, ya'nii universal toifaga taalluqli bo'lgan va mazkur vazn guruhida foydalanish uchun mo'ljallangan ISOFIX bolalar xavfsizlik tizimi uchun mos keladi.

X: Ushbu vazn toifasi uchun ISO FIX bolalar xavfsizlik tizimi tasdiqlanmagan.

Avval bolalar uchun ushlab turuvchi qurilmalar o'rindiqlarga xavfsizlik kamarlari orqali mahkamlab qo'yilar edi.

Shunga bog'liq ravishda ushlab turuvchi moslamalar ko'p holatlarda noto'g'ri o'natilar va mahkamlanar edi, oqibatda esa ular bolaning xavfsizligini yetarli darajada ta'minlab bermagan.

Hozirgi zamon avtomobilari esa ikkita orqa yo'lovchi o'rindiqlarida ISOFIX pastki mahkamlagichlar va orqa o'rindiq suyanchiqlarida Top-tether mahkamlagichlari bilan jihozlanadi (sedan - boshqo'yigichlar ortida/xetchbek - orqa o'rindiq suyanchiqlari panellari ortida). Bu esa orqa o'rindiqlarda bolalarni ushlab turuvchi qurilmalarni o'natish imkonini beradi.

ISOFIX va Top-tether mahkamlagichlariiga ega ushlab turuvchi qurilmalarni o'natishda ushlab turuvchi qurilmalarga ilova tarzida berilgan yo'riqnomalarga rioya eting.

Yo'riqnomada hamda ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan ko'ssatmalarda keltirilgan qoida va yo'l-yo'iqlarni albatta o'qib chiqing va ularga qat'iy rioya eting.

Siz bolalarning xavfsizligiga javobgarsiz!

Bolalarni ushlab turuvchi qurilmalar va ularni o'natish bilan bog'liq barcha savollar yuzasidan qurilma ishlab chiqaruvchisiga murojaat qiling. Agar bolalarni ushlab turuvchi qurilmaga bog'liq muammolarni hal etishning

iloji bo'lmasa, sizga maxsus servis markazlarga murojaat qilishni tavsiya etamiz.

ISOFIX bolalarni ushlab turuvchi qurilmasini o'natish:

1. Orqa o'rindiqdagi ushlab turuvchi qurilmani o'natish uchun yon tomonidan joy tanlang.

2. Ikkita quyi mahkamlagich joylashgan yerni toping. Bolalar kreslosini o'natadigan mahkamlagichlarning quyi tugunlari joylashgan yer orqa o'rindiq suyanchig'idagi doira shaklida belgilab qo'yiladi.

3. Quyi mahkamlagichlarning atrofida, shuningdek xavfsizlik kamari qulifa va kamarning o'zida yot jismilar yo'qligini tekshiring. Yot jismilar bolalar o'rindiq'ini mahkamlagich tugunlari yordamida talab darajasida o'natishga to'sqinlik qiladi.



4. Bolalar o'rindiq'ini ikkita mahkamlagichning pastki tugunlari ustiga o'rnatishing va ushbu o'rindiq ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan yo'riqnomaga rioya qilgan holda uni mahkamlang.

5. Qurilma ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasiga muvofiq tarzda ushlab turuvchi qurilmani sozlang va mahkamlagichni tortib qo'ying.

⚠ DIQQAT!

Bolalar uchun foydalanilmayotgan xavfsizlik tizimi oldinga siljib qolishi mumkin.

Foydalanilmayotgan xavfsizlik tizimini mashinadan chiqarib qo'ying yoki uni xavfsizlik kamari yordamida mahkamlang.

Izoh: Modomiki xavfsizlik kamari va bolalarni ushlab turuvchi qurilma yopiq mashinada kuchli darajada qizib ketishi mumkin ekan, bolani o'tqazishdan avval uning yuzasini va kamarlarning haroratini tekshirib ko'ring.

⚠ OGOLANTIRISH!

Barcha pastki ISOFIX mahkamlagichlari va Top-Tether mahkamlagichlaridan faqat mo'ljallangan maqsadlardagina foydalaning. Pastki ISOFIX mahkamlagichlari va yuqori va pastki mahkamlagichlar bilan jihozlangan Top-Tether mahkamlagichlari faqat bolalar o'rindiqlarini mahkamlash uchun mo'ljallangan.

Pastki ISOFIX mahkamlagichlari va Top-Tether mahkamlagichlaridan kattalar uchun xavfsizlik kamarlari, avtomobilning biror jihozlari va ehtiyoj qismalarini bog'lash uchun bog'ichlar sifatida foydalananish man etiladi.

Pastki ISOFIX mahkamlagichlari va Top-Tether mahkamlagichlaridan kattalar uchun xavfsizlik kamarlari, avtomobilning biror jihozlari va ehtiyoj qismalarini bog'lash uchun bog'ichlar sifatida foydalanganda yetarli darajadagi himoya ta'minlanmaydi, oqibatda esa bu jarohatlarga va hattotki o'limga ham sabab bo'lishi mumkin.

⚠ OGOLANTIRISH!

Bolalarni ushlab turuvchi qurilmani old o'rindiqliga joylashtirish jiddiy jarohatlarga yoki bolaning o'limiga olib kelishi mumkin. Suyanchig'i oldinga qarab joylashtiriladigan bolalarni ushlab turuvchi qurilmani hech qachon yo'lovchilarining havo to'ldiriladigan himoya yostig'i bilan jihozlangan old o'rindiqlariga o'rnatmang.

Agar xavfsizlik yostig'i ishlab ketsa, old o'rindiqliga suyanchig'i oldinga qilib o'rnatilgan ushlab turuvchi qurilmada o'tirgan bola jiddiy jarohat olishi mumkin.

Suyanchig'i oldinga qilib o'rnatiladigan bolalarni ushlab turuvchi qurilmani orqa o'rindiqliga mahkamlang.


Suyanchig'i orqaga qilib o'rnatiladigan ushlab turuvchi qurilmani old o'rindiqliga juda zarur bo'lgan holatlardagina joylashtiring.

Bolalar o'rindig'ini old o'rindiqliga joylashtiradigan bo'sangiz, bu o'rindiqligi iloji boricha orqaga surib qo'ying.

⚠ DIQQAT!

Suyanchig'i oldinga qilib o'rnatiladigan to'liq ko'lamli bolalar o'rindiqlari o'rnatish uchun yaroqsiz bo'lishi mumkin. Bolalar o'rindiqlarining yaroqliligi to'g'risida ma'lumotlar olish uchun sotuvchilarga murojaat qiling.

Pastki ISOFIX mahkamlagichlari va Top-Tether mahkamlagichlari bo'lgan bolalar o'rindiqlarini o'rnatish.

Top-Thether

Top-Thether mahkamlagichlaridan foydalananish uchun quyidagi ishlarni bajaring:
1. Yukxona eshigini oching.


2. Bolalar o'rindig'inining yuqori bog'ichidagi moslamani Top-Tether mahkamlagichiga o'rnatning, bunda o'rindiqning yuqori bog'ichi qayrilib qolmasin.

Agar ikkitali bog'lovchi kamardan foydalanilsa, u holda bolalar o'rindig'ini boshqariladigan boshqo'ygich bilan jihozlangan o'rindiqqa o'rnatishda, kamarni boshqo'ygich atrofidan o'rab o'tkazish kerak bo'ladi.

Agar bittali bog'lov kamardan foydalanilsa, u holda bolalar o'rindig'ini joylashtirishda boshqariladigan boshqo'ygichni ko'tarib turish va kamarni uning tirkaklari orasidan tushirish kerak bo'ladi.

3. Bolalar o'rindig'inining bog'lovchi kamarlarini o'rindiqni joylashtirish bo'yicha ilova qilingan yo'rinqomaga muvofiq torting.

4. O'rnatib bo'lgach bolalar o'rindig'i mahkam o'rnatilganiga ishonch hosil qilish maqsadida uni tortib ko'ring.



OGOHLANTIRISH!

Bog'lanadigan kamarli bolalar o'rindig'i Top-Tether mahkamlagichiga ishonchli tarzda mahkamilab qo'yilganiga ishonch hosil qiling. Ushbu nuqtada mahkamlovchi tugun noto'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, u ishlamaydi.



ESLATMALAR

3 SAQLASH JOYLARI

- BUYUMLAR QUTISI 3-2
- BAGAJ/YUKLARNI JOYLASHTIRISH 3-4
- BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN
QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR 3-5
- MASHINA TOMIGA O'R NATILADIGAN
YUKXONA 3-6
- RUXSAT ETILGAN YUKLAR HAQIDA
MA'LUMOTLAR 3-6

3-2 SAQLASH JOYLARI

BUYUMLAR QUTISI


⚠ OGOLANTIRISH!

Saqlash uchun mo'ljallangan bo'lmalarga og'ir yoki o'tkir narsalarni joylashtirmang. Kuchli tormoz berganda, keskin burilganda yoki avariya yuz berganda saqlash bo'lmlarining qopqoqlari ochilib, undan chiqqan buyumlar avtomobildagi odamlarga jarohat yetkazishi mumkin.

Asboblar panelidagi qutি

Asboblar paneli ostidagi buyumlar bo'limi


1-tur




2-tur

Bu bo'lmaidan mayda narsalarni saqlash maqsadida foydalaniлади.

Tanga saqlanadigan bo'lma




Tangalaringizni shu yerda saqlang.

Qo'lqop uchun qutি

Qutini ochish uchun tutqichni torting.

**OGOHLANTIRISH!**

Avariya yoki harakatlanayotganda to'satdan to'xtash oqibatidagi jarohatlanish xavfini kamaytirish maqsadida qo'lqop qutisi eshigini doim yopiq holatda tuting.

Stakan tutqichlar**1-tur****2-tur**

Stakan tutqichlar old konsolda va markaziy konsolning orqa qismida joylashtirilgan.

**OGOHLANTIRISH!**

Avtomobil harakatlanayotganda stakan tutqichlar ichiga qaynoq suyuqlik solingen ustı ochiq idishlarni qo'y mang. Suyuqlik to'kilsa kuyib qolish mumkin. Haydovchining ustiga suyuqlik to'kilib, biror yeri kuyib qolsa, avtomobil boshqaruvini muayyan vaqt yo'qotib qo'yish xavfi yuzaga keladi.

Keskin tormoz berganda yoki to'qnashib ketganda jarohat olish xavfini kamaytirish maqsadida avtomobil harakatlanayotganda ustı ochiq yoki mahkamlab qo'yilmagan butilka, stakan va bankalarni stakan tutqichlarga qo'y mang.

BAGAJ/YUKLARNI JOYLASHTIRISH**Yukxona bo'limi****Orqa o'rindiqlarning suyanchig'ini
yig'ib qo'yish**** OGOHLANTIRISH!**

Bagaj yoki boshqa yuklarni old o'rindiqlardan baland qilib joylashtirmaslik lozim.


Avtomobil harakatlanayotganda yig'ib qo'yilgan o'rindiqlarning ustida yo'lovchilarni o'tirishiga ruxsat bermang.

Mahkamlanmagan bagaj yoki yig'ilgan o'rindiqlar ustida o'tirgan yo'lovchilar avtomobil keskin to'xtaganda yoki to'qnashib ketganda o'tirgan joyidan otilib ketishi mumkin. Bu esa salomatlikka jiddiy zyon yetkazishi yoki hatto o'limga ham olib kelishi mumkin.

Orqa o'rindiq suyanchig'ini yig'ishda alohida:

- Bo'shatish uchun orqa o'rindiq yostig'i chekkasini yuqoriga ko'taring. Agar mavjud bo'lsa orqa o'rindiqlarning boshqo'ygichlarini yechib oling.
- Orqa o'rindiqning bo'shatilgan suyanchig'ini vertikal holatga keltiring.

Izoh: Orqa o'rindiqlarning joyini o'zgartirish uchun joy ochish maqsadida old o'rindigni oldinga suring va uning suyanchig'ini vertikal holatga keltiring.



3. Orqa o'rindiq suyanchig'i yuqori qismidagi fiksatorning to'xtatish tutqichini yuqoriga torting va suyanchiqni oldinga tushiring.

4. Old o'rindiqlarni qulay holatga keltiring.

Suyanchiqlarni vektikal holatga qaytarish uchun uni fiksatorgacha yuqoriga ko'taring.

Xavfsizlik kamarlari ilinib qolmasligini kuzating.

Orqa o'rindiq suyanchig'ini boshlang'ich holatiga qaytarish uchun o'rindiq yostig'ining orqa qismini avvalgi o'rniغا joylashtiring, xavfsizlik kamarlari bog'ichlarining aylanib qolmaganiga va o'rindiq tagida qolib ketmaganiga ishonch hosil qiling, so'ngra o'rindiq suyanchig'ining oldi qismini mahkam o'rashguncha pastga bosing.

 DIQQAT!

Orqa o'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga qaytarishda orqa o'rindiqlar xavfsizlik kamari va quflarini orqa o'rindiq suyanchig'i bilan yostig'i oralig'iga joylashtiring. Orqa xavfsizlik kamari va uning quflarini orqa o'rindiq yostig'i bosib qolmaganini tekshiring. Xavfsizlik kamarlari qayrilib qolmagani, o'rindiq suyanchig'i ularni qisib qolmagani va ular to'g'ri holatda ekaniga ishonch hosil qiling.

BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR

Yuk to'rxaltasi-cho'ntagi

Qo'shimcha yuk xaltasi mayda yuklarni tashishga mo'ljallanadi.

Xaltani o'rnatish uchun orqa paneldagi har ikki mahkamaligich tugunga xaltaning yuqori burchaklaridagi ilgakni mahkamlang.

⚠ DIQQAT!

Yuk to'rxaltasi mayda buyumlar uchun mo'ljallanadi. Unga og'ir buyumlarni solmang.

⚠ OGOLANTIRISH!

Orqa o'rindiqdagi yo'lovchilar bilan yo'lga tushishdan avval, orqa o'rindiq suyanchig'i orqaga to'liq ko'tarilgan va mahkamlab qo'yilganiga ishonch hosil qiling.

Avtomobil harakatlanayotganda o'rindiq suyanchig'i yuqorisidagi tirkak tutqichini tortish man etiladi. Bu yo'lovchilarga jarohat yetkazishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Orqa o'rindiqlar mahkamlab qo'yilgan xavfsizlik kamarlari bilan yig'ilganda o'rindiqlarga yoki xavfsizlik kamarlariga shikast yetkazish ehtimoli bo'ladi.

Orqa o'rindiqnı yig'ishdan avval albatta xavfsizlik kamarini yeching va ularni odatiy boshlang'ich holatiga qaytaring.

⚠ OGOLANTIRISH!

Avtomobil harakatlanayotganda yo'lovchilarga o'rindiqlarning yig'ilgan suyanchiqlari ustida o'tirishlariga ruxsat bermang, chunki bu ularning salomatligiga xavf tug'diradi, chunki bunday holatda xavfsizlik kamaridan foydalanib bo'lmaydi. Avariya yuz berganda yoki to'satdan to'xtaganda bu narsa jiddiy jarohatlar olishga yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Yig'ilgan o'rindiq suyanchig'i ustiga qo'yib tashilayotgan buyumlarning balandligi old o'rindiqlar balandligidan past bo'lishi kerak. Aks holda, avtomobil keskin to'xtaganda yuk oldinga surilib ketishi va jarohat yetkazishi mumkin.

MASHINA TOMIGA O'RNLATILADIGAN YUKXONA

Tomdagи yukxona

Xavfsizlikni ta'minlash va tomshikastlanishining oldini olish maqsadida tomda faqat maxsus ruxsat etilgan yukxonadan foydalanish tavsya etiladi.

Tomdagи yukxonada o'zidan ko'ra kengroq va uzunroq yukni tashishda shamol kuchiga nisbatan qarshi kuch yuzaga keladi. Bu avtomobil boshqaruvining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Tashilayotgan yuk to'satdan tomdan uchib tushib ketishi va boshqa avtomobilarga borib urilishi hamda o'z avtomobilingizga ziyon yetkazishi mumkin. Hech qachon avtomobil tomidagi yukxonadan uzun va keng bo'lgan yukni tashimang.

Maksimal darajada tomdagи yukxonada tashishga ruxsat etilgan yukning og'irligi (tomdagи yukxona og'irligi bilan birga) 50 kg ni tashkil etishi lozim. Avtomobilga yuk ortayotganda uning vazni maksimal yuk ko'tarish hajmidan oshib ketmasligi kerak.

Avtomoykada tomdagи yukxona yoki yukni olib qo'ying.

RUXSAT ETILGAN YUKLAR HAQIDA MA'LUMOTLAR

- Yukxona bo'limida og'ir buyumlar o'rindiqlar suya chig'iga qarama-qarshi qilib joylashtiriladi. Ular mahkamlab qo'yilganiga ishonch hosil qiling. Agar buyumlar bog'lam qilib taxlanishi lozim bo'lsa, eng og'irlari uning tag qismiga joylashtiriladi.
 - Yukxona bo'limidagi buyumlar sirc'anib ketmasligi uchun barchasini yaxshilab bog'lab, mahkamlab qo'ying.
 - Yukxona bo'limida buyumlarni tashishda orqa o'rindiqlarning suyanchig'i oldinga egilib ketmasligi zarur.
 - Yuklar o'rindiq suyanchig'iga botmasligi kerak.
 - Buyumlarni yukxona bo'limining eshigi yoki asboblar paneli ustiga joylashtirmang, asboblar paneli yuzasidagi datchiklarni yopib qo'y mang.
 - Yuklar tormoz va boshqa pedallarni bosishga, haydovchining erkin harakat qilishiga xalal berishi mumkin. Salonda mahkamlab qo'yilmagan buyumlarni saqlamang.
 - Yukxona bo'linmasini ochiq qoldirgan holatda yurmang.
 - Og'irlik yo'l qo'yiladigan to'liq massa ⇨ 11-2 identifikasiya jadvaliga qarang bilan yuk ortilgan avtomobil massasi o'rtaсидаги farq sifatida aniqlanadi.
- Yuk ortilgan avtomobil massasi to'g'risidagi batafsil ma'lumotni texnik ma'lumotlar bo'limidan topasiz.

Yuklangan og'irlik haydovchining vazni (68 kg), yuk (7 kg) va barcha suyuqliklarni (yonilg'i baki 90%ga to'dirilgan) o'z ichiga oladi.

Qo'shimcha jihozlar va aksessuarlar bu vaznni yanada oshiradi.

- Tomdagи yuk bilan yurish avtomobilning yon tomonidan esadigan shamolga ta'sirchanligini oshiradi va bu avtomobilni boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki avtomobilning og'irlik markazi yuqorida joylashadi.

Yukni bir tekisda taqsimlang va uni mahkamlovchi kamarlar yordamida mahkam qilib bog'lab qo'ying. Shinalardagi bosimni va avtomobil tezligini yuk bo'lgan sharoitlarga muvofiq ravishda tartibga soling. Kamarlarni tez-tez tekshirib va tortib turing.


4

BOSHQARUV VOSITALARI VA ASBOBLAR

-
- BOSHQARUV QISMLARI 4-2
 - SIGNALIZATORLAR, O'LCHASH ASBOBLARI
 VA INDIKATORLAR 4-6
 - BORT KOMPYUTERI 4-15
 - AVTOMOBILNING AXBOROT XABARI 4-19
 - YAKKA TARTIBDAGI SOZLASH ISHLARINI
 SAQLASH 4-19

BOSHQARUV QISMLARI

Rul chambaragi holatini rostlash



Dastakni blokdan chiqaring, rul chambaragi holatini rostlang, so'ngra uni yana mahkamlab qo'ying va u to'liq blokirovka qilinganiga ishonch hosil qiling.


Rul chambaragini avtomobil harakatlanayotganda yoki fiksatorni blokirovkadan chiqarmasdan rostlash man etiladi.



DIQQAT!

Rul chambaragini sozlayotganda rul kolonkasi valiga kuch bilan urish natijasida yoki dastak blokirovkada bo'lganda uni sozlash rul chambaragi bilan bog'liq elementlarning shikastlanishiga sabab bo'ladi.

Rul chambaragidagi boshqaruv qismlari



Axborot-ko'ngilochar tizimni rul chambaragida joylashgan tugmalar yordamida boshqarish mumkin.

Ma'lumotlar ⌘ 6-5 betda


Tovush signali



Bosing ⌘

Oynatozalagich / oyna yuvish moslamasi

Old oyna tozalagichi



Old oyna tozlagich/yuvgich dastasi rul chamaragining o'ng tomonida joylashgan.
Dastani quyidagi holatlardan biriga o'rnatning
HI: Old oynani tez tozalash uchun foydalaning.
LO: Old oynani sekin tozalash uchun foydalaning.

INT: (intervalli tozalash): intervalli tozlash uchun dastani INT holatiga o'rnatning, oynatozalagichning ishlash tezligini oshirish uchun halqani yuqoriga burang, pasaytirish uchun halqani pastga burang.

OFF: Oyna tozalagichni o'chirish uchun foydalaning.

(Mist): Old oynani bir marta tozalash uchun oyna tozalagich dastasini pastga torting va qo'yib yuboring. Old oynani uzluksiz tozalash uchun oyna tozalagich dastasini pastga tortib ushlab turing.

Oyna tozalagichni yoqishdan oldin cho'tkalarni va old oynani qor va muzdan tozalang. Agar cho'tkalar old oynaga muzlab yopishib qolgan bo'lsa, asta sekinlik bilan ajrating yoki eritib oling. Shikastlangan cho'tkalar almashtirilishi lozim. Oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish

◊ 9-14 ga qarang. Qalin qor yoki muz oyna tozalagich elektrodvigateli ishini og'irlashtirishi mumkin. Old oyna tozalagichi elektrodvigateli qizib ketganda, u sovumagunicha oyna tozalagich o'z ishini to'xtatadi.

Old oyna yuvgichi

Oyna yuvgichidan old oynaga suv sepish uchun va oyna tozalagichni ishga tushirish uchun oyna tozalagichlar boshqaruvi dastasini o'zingiz tomonqa qaratorting.

Tozalagichlar dasta qo'yib yuborilmagunicha yoki yuvishning maksimal vaqt yetguniga qadar ishlab turadi.


Old oyna tozalagichi dastasi qo'yib yuborilganidan so'ng, old oyna yuvgichi qancha ishlaganiga qarab old oyna tozalagichi cho'tkalarini yana bir ikki marta borib kelishi mumkin. Old oyna yuvgichi suyuqligi bakini to'dirish haqidagi qo'shimcha ma'lumot uchun Oyna yuvgich suyuqligiga qarang ◊ 9-11.

⚠ OGOLANTIRISH!

Muzlaydigan havoda old oynani isitmaganingizgacha oyna yuvgichni ishlatmang. Aks holda oyna yuvgich suyuqligi old oynada muzli qatlam hosil qilishi va tashqarini ko'rishni qiyinlashtirishi mumkin.

Orqa oyna tozalagichi /yuvgichi

Orqa oyna tozalagichi/yuvgichi opsiysi bo'lgan avtomobilarda uning boshqaruvi old oyna tozalagichi dastasining so'nggi uchida joylashgan.



Orqa oyna tozalagichi/yuvgichini boshqarish old oyna tozalagichi dastasining so'nggi uchini burash orqali amalga oshiriladi.

ON: Orqa oyna tozalagichi oynani uzluksiz ravishda tozalashi uchun yoqiladi.

OFF: Orqa oyna tozalagichini o'chiradi.

(Orqa oyna yuvgichi): Oyna yuvgichidan orqa oynaga suyuqlik sejadi. Orqa oyna yuvgichi dastasi qo'yib yuborilganidan so'ng boshlang'ich holatiga qaytdi.

Agar o'tkazmalarni o'zgartirish qutisi dastasi N (neytral) holatida bo'lsa yoki yukxona eshigi ochiq bo'lsa orqa oyna tozalagichi ishlamaydi.


Agar o'tkazmalarni o'zgartirish qutisi dastasi N (neytral) holatidan boshqa o'tkazmaga o'tkazilsa ham orqa oyna tozalagichi 10 soniya ishlamay turadi.

Old oyna yuvgichi suyuqligi baki old oynani yuvish uchun hamda orqa oynani yuvish uchun ishlataladi. Agar yuvgichlardan qay biridir ishlamasu, suyuqlik sathini tekshiring. ⇨ 9-11 Oyna yuvgich suyuqligiga qarang.



Soat

1-tur



2-tur

Vaqt asboblar panelida aks ettiriladi.
Agar asboblar to'plamida soat bo'lmasa, u axborot-ko'ngilochar tizimda o'z ifodasini topadi.

Vaqtni o'rnatish

1-tur

CLOCK tugmasini 1 soniya atrofida bosib ushlab turing. Soatlar razryadi yonib-o'cha boshlagach, CLOCK tugmasi orqali joriy vaqtini o'rnatting.

Taxminan 1 s dan so'ng daqiqalar razryadi yonib-o'cha boshlaydi, CLOCK tugmasi yordamida joriy daqiqalarni o'rnatting. Sozlash ishlari tugagach bir necha soniyalardan so'ng sozlash rejimi avtomatik tarzda o'zi o'chadi.

2-tur

Displeyning pastki qismi yonib-o'cha boshlagungacha MENU tugmasini bosing.


2 soniyadan ko'proq vaqt davomida SET/CLR tugmasini yana bir marotaba bosing; soat vaqtini o'rnatish rejimiga o'tadi.


Soat raqamlari yonib-o'chib turganda, ▽ va △ tugmalari yordami bilan soat raqamlarini o'rnatting (agar soat raqamlari o'chib-yonib turganda 30 soniya davomida hech qanday harakat amalga oshirilmasa, tizim vaqtini o'rnatish rejimiga qaytadi).

Soat raqamlari o'natilgandan so'ng SET/CLR tugmasini bosing va daqqa raqamlari yonib-o'cha boshlaydi.

Shtepsel rozetkasi

1-tur



2-tur


Old konsolda 12 V li elektr rozetka joylashtirilgan.

Maksimal sarflanadigan quvvat 120 Vt dan oshmasligi lozim.

O't oldirilmaganda rozetka ta'minoti o'chgan bo'ladi. Shuningdek, rozetka ta'minoti akkumulyator batareyasi zaryadi past bo'lganda ham o'chib qoladi.

Unga hech qanday tok tutuvchi moslamalar, masalan, elektr zaryadlovchi qurilma yoki batareykalarni ulamang.

Mos kelmaydigan shtekerlardan foydalanib rozetkaga zarar yetkazmang.

Sigaret tutatgich**1-tur****2-tur**

Sigaret tutatgichdan foydalanish uchun o't oldirish qulfini ACC yoki ON holatiga keltiring va tutatgichni tiralguncha bosing.

Tutatgich foydalanishga tayyor bo'lganda avtomatik tarzda otlib chiqadi.

⚠ DIQQAT!

Tutatgichning qizib ketishi qizdirish qismining, qolaversa tutatgichning ham ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Tutatgich qiziyotganda uni bosmang. Bu tutatgichning haddan ziyod qizib ketishiga olib keladi.

Nosoz tutatgichdan foydalanish juda xavfli. Agar tutatgich bosilganda 25 soniya ichida itarilib chiqmasa, uni chiqarib oling va ta'mirlash uchun servis markazlariga murojaat qiling. Bu jarohat olishga va avtomobilning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ OGOLANTIRISH!

Tutatgich rozetkasidan faqat belgilangan maqsadlar bo'yicha foydalaning. Tutatgich rozetkasiga boshqa 12V tok iste'molchilar shtekeri ulagan holatlarda saqlagichning kuyishi yoki qizib ketishi natijasida boshqa ziyonlar yetkazilishi mumkin.

SIGNALIZATORLAR, O'LCHASH ASBOBLARI VA INDIKATORLAR

⚠ DIQQAT!

Agar yoz mavsumida avtomobil ichida portlovchi yong'in xavfi bor moddalarga ega narsalar, misol uchun, bir marta foydalaniladigan o'toldirich qoldirib ketilsa, salon ichidagi va kuzovning orqa bo'limidagi haroratning ko'tarilib ketishi natijasida, portlash va yong'in chiqishi mumkin. Mashinada hech qanday yengil yonadigan va portlash xavfi kuchli narsalar bo'limasligi va saqlanmasligini muntazam kuzatib turing.


⚠ DIQQAT!

Ishlab turgan tutatgich atrofi juda qizib ketishi mumkin. Tutatgich korpusiga tegmang va tutatgichni bolalar o'ynashiga yo'l qo'yangan. Qizigan metall kuydirishi, avtomobilningizga hamda boshqa moddiy ziyonlar yetkazishi mumkin.

Kuldon



Spidometr




⚠ DIQQAT!

Sigaretlar va boshqa tutaydigan materiallar yong'inga sabab bo'lishi mumkin. Kuldonga qog'oz va boshqa yengil o't oluvchi materiallarni solish man etiladi. Kuldondagi yong'in jarohat olishga sabab bo'lishi va avtomobiliga shikast yoki boshqa moddiy zararlar yetkazishi mumkin.

Ko'chirsa bo'ladigan kuldoni stakantutgichlarga o'rnatish mumkin.

Kuldanni ochish uchun uning qopqog'ini asta ko'taring. Foydalanib bo'lgach qopqoqni yana zinchlab yopib qo'ying.

Kuldanni tozalash uchun uning yuqori qismmini soat miliga qarama-qarshi tomonga yengilgina burab, tortib oling.



Avtomobilning harakat tezligini ko'rsatadi.

Odometr
1-tur



2-tur



Odometr avtomobil bosib o'tgan yo'lni kilometr yoki millarda ko'rsatadi.

- Bosib o'tilgan masofaning ikkita mustaqil hisoblagichi, ya'nii avvalgi bosib o'tilgan masoфа hisoblagichda nolga keltirilgan paytdan boshib bosib o'tilgan yo'lni ko'rSATUVchi hisoblagich ham mavjud.

1-tur: Bosib o'tilgan masoфа hisoblagichlari bo'lgan **A** dan **B** ga o'tish **TRIP** tugmasi orqali amalga oshiriladi.


2-tur: Displeyning yuqori qismi yonib-o'cha boshlagungacha **MENU** tugmasini bosing. **A** va **B** odometrlarni biridan ikkinchisiga o'tkazish asboblar to'plamining o'ng tomonidagi \triangle va ∇ yuqoriga/pastga tugmalari orqali bajariladi.

Izoh: har kunlik bosib o'tilgan yo'lni hisoblagichdan o'chirib tashlash uchun asboblar panelidagi **TRIP** tugmasini 2 soniyadan uzoqroq bosib turing.

Taxometr
1-tur



2-tur



Dvigatel kolenvalining bir daqqa davomidagi aylanish chastotasini ko'rsatadi.
Imkon qadar dvigatel aylanishining past diapazonida yurishga harakat qiling.

Yonilg'i sathini ko'rsatuvchi datchik

1-tur



XAVF-XATAR!

Yonilg'i to'ldirishdan avval avtomobilni to'xtatishing va dvigateli o'chiring.

2-tur



Bakdag'i yonilg'i sathini ko'rsatadi
Bakni butkul bo'shab qolishiga yo'l qo'y mang.
Bakda qolgan yonilg'i tufayli ko'rsatkichdagi raqamlarga nisbatan bakdag'i yonilg'ining hajmi kamroq bo'lshi mumkin.
Yonilg'i sathini ko'rsatuvchi strelka tormoz berganda, gaz olganda va burilishlarda o'zgarib turishi mumkin.
Yonilg'i sati ko'rsatkichi bakdag'i yonilg'i miqdorini taxminiy baholash uchun xizmat qiladi va undan aniq asbob sifatida foydalanib bo'lmaydi.

Indikatorlar

Nazorat indikatorlari

Quyida tavsiflanadigan indikatorlar ba'zi avtomobil versiyalarida mavjud bo'lmasligi mumkin.

Tavsif barcha versiyadagi asboblar uchun taalluqli. Avtomobil o't oldirilishi bilan qisqa vaqt davomida juda ko'p indikatorlar ularning ishlash qobiliyatini tekshirish maqsadida yonadi.

Indikator ranglari quyidagilarni anglatadi:

Qizil – xavf, muhim eslatma

Sariq – ogohlantirish, ma'lumot, nosozlik

Yashil – yonganini tasdiqlash

Ko'k – yonganini tasdiqlash

Markazi konsol indikatorlari






Uzatish indikatsiyasi

KPP indikatsiyasi (1-tur)

A/T qizil bo'lib yonmoqda.

O't oldirilganda signalizator chamasiga 3 soniya yonib turadi, so'ng o'chishi kerak, bunday holat avtomat uzatish korobkasining ishlash qobiliyatini tasdiqlaydi.



Asboblar paneli indikatorlari (1-tur)



Asboblar paneli indikatorlari (2-tur)

DIQQAT!

Agar signalizator yonmasa, 3 soniyadan so'ng o'chmasa yoki harakatlanish davomida ham yonib tursa, demak tizimda nosozlik mavjud.

Avtomobilni imkon qadar tezroq maxsus servis markazlariga ta'mirlash uchun olib borish kerak.

Burilish ko'rsatkichi

↔ yashil rangda yonib-o'chadi.

Yonib-o'chish

Agar burilish ko'rsatkichi yoki avariya signalizatsiya chirog'i yoqilgan bo'ssa, nazorat indikatori yonib-o'chib turadi.

Tez-tez yonib-o'chish: burilish ko'rsatkichi lampasining yoki muvofiq saqlagichning ishdan chiqishi.

Cho'g'lanma lampani almashtirish ⇨ Faralar haqida 9–15-betlarga qarang.

Saqlagichlar ⇨ Eruvchan saqlagichlar 9–20-betlarda keltiriladi.

Burilish ko'rsatkichlari ⇨ Burilish va harakat yolkasini o'zgartirish signalini 5–2-betlarda.

Xavfsizlik kamari to'g'risida eslatma

Old o'rindiqlarning taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori

Haydovchi o'rindig'i ⚡ indiaktori yonadi yoki qizil rangda yonib-o'chib turadi.

Old yo'lovchi o'rindig'i band bo'lganda ⚡ yonadi yoki qizil rangda yonib-o'chib turadi.

1. O't oldirilgandan so'ng xavfsizlik kamari taqilmagunga qadar yonib turadi.

2. Dvigatel ishga tushirilgandan so'ng 100 soniya davomida indikator yonib-o'chib turadi, so'ngra xavfsizlik kamari taqilguncha uzuksiz yonib turadi.

3. Agar xavfsizlik kamari taqilmagan holda avtomobil 250 m masofa bosib o'tsa yoki uning tezligi 22 km/soat dan oshsa, indikator yonib-o'chib turadi va 100 soniya davomida tovushli signal beradi.

100 soniyadan so'ng indikator muntazam yonadi, tovush signali esa xavfsizlik kamari taqilgunga qadar ovoz berib turadi.

Orqa o'rindiqlardagi xavfsizlik kamarlari holati

⚡ orqa o'rindiqlar uchun qizil bo'lib yonadi yoki yonib-o'chadi.

1. Dvigatel ishlab turibdi, barcha eshilklar yopilgan va avtomobil tezligi 10 km/soat dan oshmagan, orqa o'rindiqlarning taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari kamarlar

taqilgunga qadar yozib turadi. Bu o'rindiqlar band bo'lmaganda ham yuz beradi.

2. Agar eshiklari yopiq bo'lgan avtomobil tezligi 10 km/soat dan oshsa, orqa o'rindiqlarning taqilmagan xavfsizlik kamari indikatorlari 35 soniya davomida yonib turadi, so'ngra orqa o'rindiqlida yo'lovchilar o'tirishiga qaramay o'chadi.

3. Agar orqa o'rindiq xavfsizlik kamarlaridan biri avtomobil eshiklari yopiq holatida tezligi 10 km/soat dan oshganda yechilsa, indikator kamar taqilgunga qadar yonib-o'chib turadi, tovush signali 4 marotaba ovoz beradi.

Uch nuqtali xavfsizlik kamari ⇨ 2-7-betlarda keltiriladi.

Xavfsizlik yostig'i va xavfsizlik kamari tortqichlari signalizatori

Qizil rangda yonadi ⚡.

O't oldirilganda bir necha soniya davomida indikator yonib turadi. Agar indikator yonmasa, bir necha soniyadan so'ng o'chmasa yoki harakatlanish vaqtida yonsa xavfsizlik yostig'i tizimida nosozlik mavjud ekanidan darakdir. Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga yordam so'rab murojaat qiling. Avariya vaziyati yuzaga kelganda bu tizimlar ishlamasligi mumkin.

Avtomobil avariysi, xavfsizlik kamari tortqichlari yoki xavfsizlik yostig'i ishlab ketganda  signalizatorning uzlusiz yonib turishi bu haqda xabar berishi mumkin.

OGOHLANTIRISH!

Nosozliklarni bartaraf etish uchun tezlik bilan texnik xizmat ko'satish stansiyasiga murojaat qiling.

Kamartortqichlar, xavfsizlik yostig'i tizimi Old xavfsizlik yostiqlari tizimi \diamond 2-11-betlarda keltiriladi.

Havo to'ldiriladigan xavfsizlik yostig'inining o'chib-yonish indikatori

 sariq rangda yonadi.

Agar indikator yonib tursa, demak old o'rindiq yo'llovchisi xavfsizlik yostig'i yoqilgan bo'ladi.

 sariq rangda yonmoqda.

Bu nazorat indikatori yonib tursa, old yo'llovchining xavfsizlik yostig'i faolsizlantiriladi.

Xavfsizlik yostig'ini o'chirib-yoqish moslamasi \diamond 2-13-betlarda keltiriladi.

Zaryadlanish tizimi lampasi

Qizil rangda yonadi .

Mashina o't oldirilganda yonadi va dvigatel ishga tushgach birozdan keyin o'chadi.

Dvigatel ishlab turganda yonadi

To'xtang va dvigateli o'chiring. Akkumulyator batareyasi zaryadka olmayapti.

Balki dvigateli sovitish tizimi buzilgandir. Texnik xizmat ko'satish stansiyasiga yordam so'rab murojaat qiling.

Nosozliklar signalizatori

 sariq rangda yonadi yoki yonib-o'chadi. O't oldirilishi bilan yonadi va dvigatel ishga tushgach, birozdan so'ng o'chadi.

Tormoz tizimi signalizatori

  qizil rangda yonadi (1-tur).

  qizil rangda yonadi (2-tur).

To'xtash tormozi o'chiq holatida, tormoz suyuqligi yoki ilashish muftasi uchun suyuqlik miqdori kamayib ketganda hamda tormoz tizimi buzilganda yonib turadi.

Tormoz suyuqligi haqida \diamond 10-7-betlarga qarang

OGOHLANTIRISH!

Tormoz tizimining nosozligi haqida xabar beruvchi signal ishlab tursa harakatlanish man etiladi.

Ushbu signalizatorning yonib turishi tormoz tizimining nosoz ekanidan dalolat beradi.

Tormoz tizimining buzilishi to'qnashuvga olib kelishi va jarohatlarga, avtomobilingizga

OGOHLANTIRISH!

shikast yetishiga yoki boshqa moddiy ziyonlarga sabab bo'lishi mumkin.

Agar avtomobil to'xtab turish qo'l tormoziga keltirilgan bo'lsa, mashina o't oldirilishi bilan yonadi.

Qo'l tormozi \diamond To'xtab turish tormozi 8-10-betlarda.

Blokirovkaza qarshi tormozlar tizimi signalizatori (ABS)

 sariq rangda yonadi.

O't oldirilganda so'ng bir necha soniya yonadi. Nazorat indikatori o'chgandan so'ng tizim ishga tayyor hisoblanadi.

Agar nazorat indikatori bir necha soniya davomida o'chmasa yoki u avtomobil yurayotganida ham yonib tursa, demak ABS tizimi nosoz hisoblanadi. Avtomobilning tormoz tizimi ishlashda davom etadi, biroq ABS funksiyasiz.

Blokirovkaza qarshi tormoz tizimi.

Blokirovkaza qarshi tormozlar tizimi (ABS) \diamond 8-10-betlarda

Dvigatelni sovitish suyuqligi harorati signalizatori

Qizil rangda yonadi.

Bu signalizator dvigatelni sovitish suyuqligining qizib ketgani to'g'risida ogohlantiradi.

Agar avtomobil me'yoriy yo'l sharoitlarida harakat qilayotgan bo'lsa, transport yuradigan yo'lning chetiga o'tib to'xtash va dvigatelni bir necha daqqaq salt yurishda ishlatalib ko'rish lozim.

Agar signalizator o'chmasa, dvigatelni o'chiring va imkon qadar tezlik bilan servis-markazga murojaat qiling. Maxsus servis-markazlarga murojaat qilishni tavsiya etamiz.

Motor moyi bosimi signalizatori

Qizil rangda yonadi .

O't oldirilganda yonadi va dvigatel ishga tushgach birozdan so'ng o'chadi.

Dvigatel ishlab turganda yonadi

DIQQAT!

Dvigatelga moy kelishi buzilgan bo'lishi mumkin.

Bu dvigatelni ishdan chiqarishi va/yoki uzatma g'ildiraklarning blokirovkasiga sabab bo'lishi mumkin.

Agar motor moyi bosimining tushib ketish indikatori avtomobil harakatlanayotganda yonsa, harakatlanish yo'lidan chetga o'tish, dvigatelni o'chirish va moy sathini o'lchash talab etiladi.

OGOLANTIRISH!

Dvigatel o'chgan holatda tormoz berish va rul chambaragini burish uchun katta kuch talab etiladi.

Avtomobil to'xtamaguncha kalitni chiqarib olmang, chunki bunda rul chambaragi kutilmaganda blokka tushib qolishi mumkin.

Servis markazga murojaat qilishdan avval moy miqdorini tekshiring.

Motor moyi \diamond 9-7-betlarda.

Yonilg'i sathi pastligidan darak beruvchi signalizatori

sariq rangda yonadi.

Bakda yonilg'i darajasi juda past bo'lganda yonadi.

DIQQAT!

Yonilg'i butkul sarflanib ketishiga yo'l qo'y mang.

Bu katalitik neytralizatorning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Katalitik neytralizator \diamond 8-4-betlarda

Uzoqni yorituvchi chiroq signalizatori

ko'k rangda yonadi.

Uzoqni yoritish chiroq'i yoniq bo'lganda va faralar yonib-o'chirilganda yonadi.

Uzoqni yorituvchi chiroq/yaqinni yorituvchi chiroq \diamond Faralarning uzoqni/yaqin ni yorituvchi chiroqlariga o'tish tizimi 5-2-betlarda.

Tumanga qarshi old faralar signalizatori

yashil rangda yonadi.

Tumanga qarshi old faralar yoqilganda yonadi
Tumanga qarshi old faralar \diamond 5-3-betlarda.

Tumanga qarshi orqa fonar

sariq rangda yonadi.

Tumanga qarshi orqa fonarlar yoqilganda yonadi \diamond Tumanga qarshi orqa fonarlar 5-3 betlarda

Eshik ochiq

qizil rangda yonadi (1-tur)

qizil rangda yonadi (2-tur)

Eshiklar yoki orqa eshik ochiq bo'lganda indikator yonadi.

Rul boshqaruvi kuchaytirgichi

sariq rangda yonadi.

BORT KOMPYUTERI**Rul boshqaruvi kuchaytirgichi effektivligi kamayganda yonadi**

Rul boshqaruvi kuchaytirgichi faoliyati effektivligi qizib ketishi tufayli kamaygan. Sovugandan so'ng indikator o'chadi.

Rul boshqaruvi yo'qolganda yonadi

Rul boshqaruvi tizimida nosozlik. Xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Quvvat uzatish tizimi buzilganda yonadi

Rul tizimi ish faoliyatini tiklash uchun gildiraklarning burilish burchagi datchigini kalibrovka qilish kerak bo'ladi.

- Kalibrovkani avtomatik tarzda amalga oshirish uchun bir xil quiy tezlikda to'g'ri chiziq bo'ylab tekis harakat qilish kerak.
- Agar indikator yonishda davom etsa, kalibrovkani o'zingiz amalga oshirishimgiz uchun rul chambaragini o'ngga va chapga oxirigacha buring.
- Tizim ish faoliyati qayta tiklanganda, nazorat indikatori o'chadi.

Chiroqlar yoqilganligi xaqida eslatma

 yashil rangda yonadi.

Tashqi yorituvchi chiroqlar yoqilganda yonadi.

Tashqi yoritish chiroqlarini boshqarishga qarang  5-2-bet.

Immobilayzer signalizatori

 sariq rangda yonadi.

Agar indikator davomiy yonib tursa yoki o't oldirish yoqilganda o'chib yonib tursa, tizimda nosozlik mavjud. Dvigatelni ishga tushirishning imkonii mavjud emas.

Nosozlik sababini Chevrolet servis markazida bartaraf qiling.

Dvigatel quvvati kamayganligi indikatori

 sariq rangda yonadi

 DI/QQAT!

Agar avtomobilga zudlik bilan xizmat ko'rsatish talab etilsa, tizim nosozlik indikatorini yoqadi.

Avtomobilida harakatni past tezlikda davom ettirish mumkin.

Avtomobilni tekshirtirish uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

1-tur**2-tur**

Bort kompyuteri avtomobilning turli harakatlari – yonilg'i qoldig'iga ko'ra bosib o'tiladigan yo'l zaxirasi, tashqi harorat, o'ttacha tezlik, harakat vaqtiga haqida haydovchiga ma'lumot beradi.

1-tur. MODE tugmasini har safar bosganda asboblar to'plamidagi display ko'rsatkichlari quyidagi tartibda o'zgaradi:

Yonilg'i qoldig'iga ko'ra yo'l zaxirasi → O'ttacha tezlik → Harakat vaqtiga → Tashqi harorat → Yonilg'i qoldig'iga ko'ra yo'l zaxirasi

2-tur. Displayning quyi qismi yonib-o'chmagungacha **MENU** tugmasini bosing. Menyu bandlarini o'zgartirish bo'yicha △ va ▽

Qolgan yonilg'i bo'yicha yo'l zaxirasi



888 km

Bu rejimda yonilg'i baki to'liq bo'shagunga qadar avtomobil qancha masofani bosib o'tishi mumkin bo'lgan ko'rsatkich o'z ifodasini topadi.

Masofalar ko'lami 50 9 99 km ni tashkil etadi. Bort kompyuteri yonilg'i hajmi 4 litr qolganidan boshlab uni qayd eta boshlaydi.

Agar avtomobilga yonilg'i nishab joyda yoki akkumulyator batareyasi o'chirilgan holatda quyilayotgan bo'lса, bort kompyuteri yonilg'i miqdorini aniq ko'rsata olmaydi.

Yonilg'iga ko'ra bosib o'tiladigan yo'l zaxirasi 50 km dan kam qolsa, yonib-o'chuvchi belgi "---" namoyon bo'ladi.

Aniq masoфа hisobda chamlangan masofadan haydash uslubiga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

Izoh: Bort kompyuteri yordamchi qurilma hisoblanadi, shuning uchun yonilg'i ga ko'ra bosib o'tiladigan yo'l uning hisobidagi va faktik zaxirasi vaziyatlarga ko'ra bir-biridan farq qilishi mumkin.

Yonilg'iga ko'ra bosib o'tiladigan yo'l zaxirasi haydovchiga va avtomobilning harakat tezligiga bog'liq, sababi u yonilg'i dan foydalanish samaradorligining o'zgarishidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

O'ttacha tezlik

1-tur



**888 km/h
mi/h**

2-tur

Avg

88.8 km/h

Bu rejimda displayda o'ttacha tezlik namoyon bo'ladi.

O'ttacha tezlik miqdori dvigatel ishlab turganda, garchi avtomobil joyida turgan bo'lса-da, umumlashtiriladi.

O'ttacha tezlik ko'lami taxminan 0–180 km/s ga teng.

O'ttacha tezlikni nolga keltirish uchun:

1-tur: MODE tugmasini 1 soniyadan ko'proq bosib turing.

2-tur: SET/CLR tugmasini 1 soniyadan ko'proq bosib turing.

Harakat vaqtি

Bu rejimda displayda umumiy harakat vaqtি ifodalanadi.

Umumiy harakat vaqtini nolga keltirish uchun:
1-tur: MODE tugmasini 1 soniyadan ko'proq bosib turing.

2-tur: SET/CLR tugmasini 1 soniyadan ko'proq bosib turing.

Umumiy harakat vaqtி dvigatel ishlab turganda, garchi avtomobil joyida turgan bo'lsa-da, umumlashtiriladi.

Ko'rsatkich 99:59ga kelganda harakat vaqtி yana 0:00 ga o'tadi.

Atrof-muhit harorati

1-tur



2-tur



Tashqaridagi haroratni ko'rsatish.

Izoh: Harakat sharoitiga, haydash maqomiga yoki avtomobil tezligiga bog'liq ravishda qolgan yonilg'iga bog'liq bosib o'tiladigan yo'l zaxirasi, o'rtacha harakat tezligi va atrof-muhit harorati haqiqiy miqdorlaridan birmuncha farq qilishi mumkin.

Axborot displaylari**Haydovchining axborot markazi
(DIC) (2 Tur)**

Haydovchining axborot markazi displayi asboblar to'plamida joylashgan.
Menyuni tanlash uchun asboblar to'plamining o'ng omonida joylashgan MENU tugmasini bosing.

Har safar MENU tugmasini bosganingizda, rejim quydagicha o'zgaradi:

Odometr / Bort kompyuteri → MENU 1 → MENU 2

MENU 1:

- O'rtacha yoqilg'l sarfi
- Yonilg'i bo'yicha yurish imkoniyati
- Darhol yonilg'i sarfi
- O'rtacha tezlik
- Safarning vaqtி

MENU 2:

- Motor moyining ishlash muddati .
- Sozlash

Tepaga va pastga (Δ / ∇) tugmachalari menyuni ko'rish uchun ishlatalidi.

SET/CLR tugmasi tanlangan elementlarni bekor qilish uchun ishlatalidi.

Odometr bo'limi qarang ⇨ 4-7.

Bort kompyuteri bo'limiga qarang ⇨ 4-15.

Motor moyining ishlash muddati / Sozlash

Har bir opsiya tepaga va pastga (Δ / ∇) asboblar to'plamining o'ng tomonida joylashgan tugmalari orqali tanlanishi mumkun.

Motor moyining ishlash muddati.

Indikator motor moyining ishlash imkoniyatini ko'rsatadi.

Agar 98 kod ifoda etilsa, motor moyining ishslash imkoniyatini 98% ligini anglatadi.

Agar motor moyining ishslash imkoniyati past bo'lса, haydovchining axborot markazi displayida (DIC) 82 kod ifoda etiladi (darhol motor moyini almashtiring). Motor moyi darhol almashtirlishi kerak.

Motor moyi almashtirilgandan so'ng hiblagich tizimi qayta ishaga tushirilish kerak. Qayta ishga tushirish uchun SET/CLR tugmasini bir necha soniya davomida bosib turing.

Motor moyi bo'limga qarang ⇨ 9-7.

Sozlash.

SET/CLR tugmasini bir necha soniya davomida bosib turing.

Sozlagichlardan birini tanlash uchun tepaga/pastga (Δ / ∇) tugmasini bosing.

1. Buyuk Britaniya (MPH, °C)

2. Amerika Qoshma Shtatlari (MPH, °F)

3. Yevropa (km/h, °C)

Sozlashlar o'zgartiralayotganda tanlangan element yonadи.

SET/CLR tugmasini tasdiqlash uchun bosing.

Motor moyining ishlash muddatini nazorat qiluvchi tizim

Qachon motor moyini almashtirish kerak

Avtomobilning elektron tizimi qachon motor moyini va filtrni almashtirish kerakligini o'z vaqtida habar beradi. Tahsimotga dvigatelning aylanishlar soni, uning harorati va bosib otilgan masoфа hisobga olinadi. Haydovchining haydash sharoitiga qarab, motor moyi har safar bir-hil bosib o'tilgan masofadan so'ng almashtirilmastigi mumkin. Motor moyini nazorat qilish tizmi normal holda ishslash uchun har safar motor moyi almashtirilgandan so'ng tizimini qayta ishga tushirish kerak.

Tizimning hisobi boyicha motor moyini ishslash muddati kam qolganda, ushbu tizim haydovchiga motor moyini almashtirish kerakligi haqidagi habar beradi. Displayda 82 habar paydo boladi (darhol motor moyini almashtiring).

Darhol motor moyini almashtiring, motor moyini almashtirish uchun bosib o'tilgan masoфа 1000 km (600 mil) dan ortiq bo'lmasligi kerak. Agar haydash sharoitlari optimal bo'lса tizim 1 yilgacha motor moyini almashtirish kerakligi haqidagi habarni bermasligi mumkin. Motor moyini va filtrni kamida 1 yilda bir marta almashtirish kerak, va shu bilan birga tizimini qayta ishga tushurish talab qilinadi. Dileringizda tajribali mutaxassislar tehnik xizmat ko'rsatadilar va tizimni qayta ishga tushiradilar.

Bundan tashqari, muntazam ravishda motor moyini ishlatish muddati davomida uni almashtirish kuniga qadar uni tekshirib turish va yetarli satihda ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Agar tizim tasodifan qayta ishga tushurilsa, motor moyini ohirgi marta almashtirilgandan so'ng 5000 km (3000 mil) dan keyin almashtirish lozim.

Moy almashtirilgandan so'ng tizimning motor moyini ishslash muddati hisoblagichini qayta ishga tushurish kerak.

Motor moyini ishslash muddatini nazorat qiluvchi tizimning qayta ishga tushirish

Tizimi kelasi motor moyini almashtirish mudatini tog'ri hisoblashi uchun har safar motor moyi almashtirilgandan so'ng tizimining ko'satkichini qayta ishga tushirish kerak. Har doim tizimni 100% qayta ishga tushuring motor moyi almashtirilgandan so'ng. Motor moyini ishslash muddatining hisoblagichi avtamatik ravishda qayta ishga tushurilmaydi.

Tizimni qayta ishga tushurish uchun quydagilarni amalga oshirish kerak:

1. Haydovchining axborot markazi displayida (DIC) Engine oil life (motor moyini ishslash muddati) punktini tanlang

2. Asboblar to'plamining o'ng tomonida SET/CLR tugmasini bosing 5 soniya ushab turing.

AVTOMOBILNING AXBOROT XABARI

Motor moyini ishlash muddati 100% almashadi. Agar 82 habar (darhol motor moyini almashtiring) yana paydo bo'sa avtomobil ishga tushurilganda, bu tizimini qayta ishga tushurilmaganligini anglatadi. Qayta ishga tushurishni yana bir marta qilib ko'ring.

Nº	Axborot xabari
10	Tormozlar qizib ketgan
56	Oldingi shinalar bosimida farq mavjud
57	Orqa shinalar bosimida farq mavjud
58	Havo bosimi datchigi yo'q shinalar aniqlandi
75	Konditsioner tizimini tekshiring
81	Uzatmalar qutisini texnik ko'rikdan o'tkazing
82	Motor moyini almashtirish vaqtı yaqinlashmoqda
89	Navbatdagi texnik xizmat ko'rsatish vaqtı yaqinlashayotganligi indikatori
95	Puflanadigan xavfsizlik yostiqchalari tizimi nososzligi

YAKKA TARTIBDAGI SOZLASH ISHLARINI SAQLASH

Avtomobilning yakka tartibdagi sozlash ishlarini axborot displayi tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshirish mumkin. Avtomobil to'plamli darajasiga bog'liq ravishda yuqorida bayon etilgan funksiyalardan ba'zilari mavjud bo'lmasligi mumkin.



Tilni sozlash

Tilni o'zgartirish

Vaqt va sanani sozlash

Axborot-ko'ngilochar tizim

Radioni sozlash

Axborot-ko'ngilochar tizim

Zavod sozlanishlarini tiklash

Barcha sozlash ishlari dastlabki holatiga qaytariladi.

O't oldirishda **CONFIG** tugmasini **ON** holatiga va yoqilgan axborot-ko'ngilochar tizimiga bosing.

Sozlash menyusi namoyon bo'ladi. Turli sozlash menyulari orasida o'tish uchun **MENU** dastasini burang.

Sozlashning muayyan bir menyusini tanlash uchun **MENU** tugmasini bosing.

Faol menyuni yopish yoki avvalgi menyuga qaytish uchun **BACK** tugmasini bosing.

Quyidagi menyuni chiqarish mumkin:

- Tillar
- Vaqt va sana
- Radioni sozlash
- Zavod sozlanishlarini tiklash

5 CHIROQLAR

- TASHQI CHIROQLAR 5-2
- SALONNI YORITISH 5-5
- YORITISH TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 5-5
- ESLATMALAR 5-6

TASHQI CHIROQLAR

Yoritishni boshqarish dastasi



Tashqi yoritish chiroqlarini boshqarish rul chambaragining o'ng tomonida joylashgan burilishlarni ko'rsatish dastasi yordamida amalga oshiriladi.

Yoritish dastasida uchta holat mavjud:

☰: Faralarni quyidagilar bilan birga yoqadi:

- Orqa fonarlar
- Avtomobil raqamini yoritish chirog'i
- Asboblar panelini yoritish chirog'i

To'xtab turish chirog'i

☰: To'xtab turish chirog'ini orqa fonarlar, avtomobil raqamini yoritish chirog'i va asboblar panelini yoritish chirog'l bilan birgalikda yoqadi.

OFF: Kunduzgi yoritish yog'dularidan (DRL) boshqa barcha chiroqlarni o'chiradi.

O't oldirish kaliti o'chirilgan holatda bo'lganda DRL avtomatik ravishda o'chadi.

Tashqi yoritish qurilmalarini o'chirish haqida eslatma

Agar havdovchi eshibi ochiq, o't oldirish kaliti o'chirilgan holatda, tashqi yoritish qurilmalarining boshqaruv dastasi esa yoqilgan holatda bo'lsa ogohlantiruvchi signal chalinadi. Signalni o'chirish uchun tashqi yoritish qurilmalarini o'chiring.

Uzoqni / yaqinni yoritish chirog'i

Bu funksiyaning ishlashi uchun chiroqlar yoqilgan bo'lishi kerak. ☰

Uzoqni yoritish chirog'ini yoqish uchun, burishni ko'rsatish dastasini o'zingizdan tashqi tomonga bosing va qo'yib yuboring.

Agar o't oldirish kaliti ON / RUN holatida bo'lsa, uzoqni yoritish farasi yoqilganda asboblar panelida tegishli indikator yonadi.


Yaqinni yoritish chirog'ini qayta yoqish uchun dastani o'zingizga torting va qo'yib yuboring.

Uzoqni yoritish faralari bilan qisqa muddatli signallarni uzatish

Ushbu funksiya oldinda ketayotgan avtomobilga signal berish uchun ishlatalidi.

Uzoqni yoritish farasi yoqilmagunicha burilish signali dastasini o'zingizga torting, so'ngra o'chirish uchun uni qo'yib yuboring.

Burilish va harakat yo'lagini o'zgartirish signali




Manyovr haqida signal beruchi burilish signalini yoqish uchun dastani butunlay pastga yoki tepaga o'tkazing.

Asboblar panelida burilish yoki yo'lakni o'zgartirish ko'rsatkichi strelkasi o'chib yonadi.

Yo'lakni o'zgartirish ko'rsatkichi strelkasi yonmagunicha dastani ko'taring yoki tushiring. Manyovr oxiriga yetmagunicha uni shu holatda ushlab turing.

Dasta qo'yib yuborilganda o'zining boshlang'ich holatiga qaytadi.

Agar burilish yoki yo'lakni o'zgartirish signalidan so'ng strelka tez yonib o'chsa yoki yonmasa demak lampa kuyib qolgan bo'lishi mumkin. Barcha kuygan lampalarni almashting.

Orqa tumanga qarshi fonarlar


Orqa tumanga qarshi fonarlari bo'lgan avtomobillarda ular burlish ko'rsatkichi dastasi o'ttasida joylashgan ⚡ halqasi yordamida nazorat qilinadi.

Orqa tumanga qarshi fonarlarni ishlatalish uchun, o't oldirish kaliti yoqilgan holatda bo'lishi, yaqinini yoritish faralari yoki to'xtab turish chiroqlari yoqilgan bo'lishi kerak.

Orqa tumanga qarshi fonarlarni yoqish uchun halqani ⚡ holatiga o'tkazing. Agar halqani qo'yib yuborsangiz u avtomatik tarzda boshlang'ich holatiga qaytadi. Asboblar panelida orqa tumanga qarshi fonarlar yoqilganligini tasdiqlovchi indikator yonadi.

Orqa tumanga qarshi fonarlarni o'chirish uchun halqani yana ⚡ holatiga o'tkazing. Orqa tumanga qarshi fonarlar yoqilganligini tasdiqlovchi indikator o'chadi.

Ba'zi mamlakatlarda tumanga qarshi faralar bilan birga yaqinini yoritish faralarini yoqish lozimligi qonun bilan belgilangan.

Oldingi tumanga qarshi faralar


Old tumanga qarshi fonarlari bo'lgan avtomobillarda ular burlish ko'rsatkichi dastasi o'ttasida joylashgan ⚡ halqasi yordamida nazorat qilinadi.

Old tumanga qarshi fonarlarni ishlatalish uchun, o't oldirish kaliti yoqilgan holatda bo'lishi, yaqinini yoritish faralari yoki to'xtab turish chiroqlari yoqilgan bo'lishi kerak.

Old tumanga qarshi fonarlarni yoqish uchun halqani ⚡ holatiga o'tkazing. Agar halqani qo'yib yuborsangiz u avtomatik tarzda boshlang'ich holatiga qaytadi. Asboblar panelida tumanga qarshi fonarlar yoqilganligini tasdiqlovchi indikator yonadi.

Old tumanga qarshi fonarlarni o'chirish uchun halqani yana ⚡ holatiga o'tkazing. Old tumanga qarshi fonarlar yoqilganligini tasdiqlovchi indikator o'chadi.

Ba'zi mamlakatlarda tumanga qarshi faralar bilan birga yaqinini yoritish faralarini yoqish lozimligi qonun bilan belgilangan.

Faralar qiyalik burchagini rostlash

Faralar qiyalik burchagi ko'zlar qamashishining oldini olish uchun avtomobilga tushadigan yukka muvofiq rostlanadi: ⚡ tutqichni talab qilinadigan holatga burang.

0: orqa o'rindiqlar band

1: barcha o'rindiqlar band

2: barcha o'rindiqlar band va yukxona bo'limi ham to'la.

3: haydovchi o'rindig'i band va yukxona bo'limi to'la.

Boshqa mamlakatlarga borishda faralarni sozlash

Faralar nurining asimmetrik bog'i yo'lovchi tomonidagi yo'llarning chetidagi ko'rinish manzarasi ko'lamini oshiradi.

Biroq chap tomonli harakatga ega mamlakatlarga borganda esa qarama-qarshi transport haydovchilarining ko'zini qamashtirmaslik uchun faralarni sozlashni yodingizdan chiqarmang.

Faralarni texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida sozlang.

Kunduzgi yoritish yog'dulari (DRL) (agar bo'lsa)

Kunduzgi yoritish yog'dulari (DRL) sizning avtomobilingizni kunduz kunida ham oldindan ketayotgan avtomobilarga sezilarli darajada bildiradi.

Sizning avtomobilingizda to'liq funksiyali kunduzgi yoritish chiroqlari ko'zda tutilgan.

Kunduzgi yoritish yog'dulari kunning yorug' vaqtida quyidagi shartlar bajarilganda yonadi:

- O'toldirish kaliti yoqilgan holatda.
- Yaqinli yoritish chiroqlari va to'xtab turish chiroqlari boshqaruvi OFF holatda.
- To'xtab turish tormozi qo'yib yuborilgan.



DRL tizimi yoqilganda markaziy displayda ushbu indikator yonadi.


DRL tizimi yoqilganda, tashqi yoritishni boshqarish dastasi to'xtab turish tormozi chirog'i yoki tashqi yoritish chirog'i holatiga o'tkazilmagunicha orqa fonarlar, signal chiroqlari, to'xtab turish chirog'i va asboblar panelini yoritish chirog'i yonmaydi.

DRL tizimi quyidagi shartlardan biri amalga oshirilganda o'chadi:

- O'toldirish kaliti o'chirilgan holatda
- To'xtab turish tormozi yoqilgan.
- Uzoqni yoritish farasi yoqilgan.
- Yaqinli yoritish farasi yoqilgan.
- Uzoqni yoritish chirog'i bilan qisqa muddatli signal qilish funksiyasi ishlataladi.

Zarurat tug'ilganda oddiy tashqi yoritish tizimidan foydalish lozim.

Avariya chirog'i signalizatsiyasi



⚠️ tugmasi yordamida yoqiladi.

Avariya chirog'i signalizatsiyasini yoqish uchun mana shu tugmani bosing.

Avariya chirog'i signalizatsiyasini o'chirish uchun shu tugmani yana bir bor bosing.

SALONNI YORITISH**Salon yoritgichlari****O'tkazish va tushirishdagi yoritish moslamalari**

O'tkazuvchi tugmasini bosing:

- Q : doim yoniq, qo'lda o'chirilmagunga qadar
-  eshiklar ochilganda avtomatik tarzda yonadi va eshiklar yopilganda o'chadi.
- I : doim o'chiq, hattoki eshiklar ochilganda ham.

Izoh: Yoritgichlar uzoq vaqt davomida yonib turganda akkumulyator batareyasi o'chib qolishi mumkin.

▲ OGohlantirish!

Sutkaning qorong'i vaqtida harakatlanayotganda salondagi yoritgichlarni yoqmang.
Qorong'ida salonni yoritish ko'rinishni yomonlashtiradi, bu esa to'qnashuvga olib kelishi mumkin.

YORITISH TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishidan himoya****Elektr yoritgichlarni o'chirish**

Akkumulyator batareyasining zaryadi tugab qolishining oldini olish uchun ba'zi yorug'lilik vositalari haydovchi eshigi ochilishi bilan hamda o't oldirish kaliti **LOCK** yoki **ACC** holatiga keltirilganda avtomatik ravishda o'chib qoladi.

Bu funksiya mashinaga o'tirish va tushish vaqtidagi yoritishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.



ESLATMALAR

6

AXBOROT-KO'NGILOCHAR TIZIM

-
- KIRISH 6-2
 - RADIOPRIYOMNIK 6-8
 - AUDIOPLEYERLAR 6-18
 - PERSONALIZATSIIA 6-28
 - TELEFON 6-30

- KIRISH 6-40
- RADIOPRIYOMNIK 6-44
- AUDIOPLEYERLAR 6-46
- ESLATMALAR 6-50

KIRISH

Umumiy axborot

Avtomobilning axborot-ko'ngilochar tizimi eng zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va ko'ngilochar imkoniyatlarni taqdim etadi.

Radiopriyomnik belgilangan sozlamaning oltita sahifasida 36 tagacha AM/FM yoki DAB radiostansiyalarini saqlash imkonini beradi (faqat A turi uchun). Radiostansiyalar **RESET** belgilangan sozlamai tugmalari bilan topiladi [1] ~ [6].

O'rnatilgan CD-proigrivatel ovozli CD va MP3 (WMA) disklarni ijob etish, USB proigrivatel esa USB-tashuvchidagi yozuvlarni ijob etish imkonini beradi, Bluetooth orqali telefonni ularash funksiyasi esa baland ovoz rejimida telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, shuningdek telefon pleyeridan musiqa tinglash imkonini beradi.

Tashqi moslamalar uchun belgilangan kirish joyiga portativ pleerni ularash va axborot-ko'ngilochar tizimining yuqori sifatli dinamikasi orqali yozuvlarni tinglash imkonini beradi.

Raqamli protsessor foydalanuvchilarga ovoz sifatini maqbullahtirish uchun ekvalayzerning bir qator o'rnatilgan rejimlarini taklif etadi.

- Maksimal chiqish quvvati: 25 Vt x 4 kanal
- Dinamiklar impedansi: 4 Ohm Puxta ishlangan sozlamalar tizimi, intellektual display va ko'p

funksional dastak-regulyator osongina sozlash va to'g'rilash imkonini beradi.


- "Sharh" bo'limida axborot-ko'ngilochar tizimi funksiyalarining qisqacha sharhi va boshqaruv organlarining ta'rifini keltiriladi.
- "Boshqaruv" bo'limida axborot-ko'ngilochar tizimini boshqarishning asosiy organlari tushuntiriladi.

Display


[Start-up Screen]



[Radio Screen]




[Setup Menu Screen]



Displaydagi tasvir asbob-uskanalar sozlamalari va avtomobil komplektlariga qarab ushbu qol'lanmada keltirilgan tasvirdan farq qilishi mumkin.

Sharh

A turi: Radio/DAB + CD/MP3 + USB + AUX + BT
B turi: Radio + CD/MP3 + USB + AUX + BT



1. Aks ettirish

Ijro etish/qabul qilish/menyu va axborot rejimlarini aks ettirish.

2. VOLUME (Ovoz balandligi) **POWER** [⊕] (Ta'minlash) tugmasi. Ushbu tugma bosilsa, ta'minlash yoqiladi va o'chiriladi.

- Boshqaruv dastagini burab, umumiy ovoz balandligini to'g'rish mumkin.

3. PRESET [1]~[6] tugmalari.

- Ushbu tugmalardan biri uzoq vaqt bosib turilsa, joriy radiostansiya saqlangan sozlamalarning joriy sahifasiga qo'shiladi.
- Ushbu tugmalardan biri qisqa vaqt bosib turilsa, saqlangan radiostansiya tanlanadi.

4. EJECT [▲] (Diskni chiqarib olish) tugmasi. Ushbu tugma bosilsa, disk chiqariladi.**5. Disk solinadigan tirqish**

Kompakt-disklarni tizish va chiqarib olish uchun xizmat qiladi.

6. SARALANGAN [FAV1-2-3] tugmasi
Bu tugma saqlangan stansiyalar ro'yxatining sahfilarini tanlash uchun xizmat qiladi.**7. INFORMATION** [INFO] (Axborot) tugmasi
• CD / MP3 yoki USB tashuvchilardagi musiqa ijro etilayotganda ushbu tugma bosilsa, fayl haqidagi axborot ko'rinishi.

- Radio tinglayotganda esa qabul qilinayotgan radiostansiya va joriy musiqli kompozitsiya haqida axborot paydo bo'ladi.

8. SEEK [◀▶] (Izlash) tugmalari

- Ushbu tugmalar bosilgandan keyin radiopriyomnik aniq qabul qilinadigan oddiy yoki raqamli radiostansiyalarni avtomatik qidira boshlaydi (faqat A turiga taalluqli). Ushbu tugmalar uzoq vaqt bosib turilsa, sozlash tezligini qol'da o'rnatish imkonini beradi.
- CD/MP3 yoki USB rejimlarida ushbu tugmalar avvalgi yoki keyingi audio yozuvga tezda o'tish uchun xizmat qiladi.
- Tugma uzoq vaqt bosilsa, joriy musiqli kompozitsiya tezda orqaga yoki oldinga o'tkaziladi.


9. CD/AUX tugmasi. Quyidagi ijro etish manbasini tanlash uchun ushbu tugmani bosing:
CD/MP3, USB yoki AUX.**10. RADIO BAND** (Diapazon) tugmasi. Ushbu tugmani bosib, AM/FM yoki DAB diapazonini tanlash mumkin (raqamli radiostansiya, faqat A turidagi modellar uchun).**11. TR** tugmasi. FM RDS funksiyalaridan foydalanganda axborot kanalini yoqadi va o'chiradi.**12. CONFIG** (Sozlamalar) tugmasi. Tizim sozlamalari menyusini chiqarish uchun ushbu tugmani bosing.**13. TONE** (Tembr) tugmasi. Ushbu tugma ovoz sozlamalarini o'zgartirish yoki tanlash uchun xizmat qiladi.**14. TUNE** (Sozlama) dastakli **MENU** (Menyu) tugmasi.

- Ushbu tugma bosilsa, joriy rejimning menyusini yoxud joriy opsiyalar yoki parametrlarni tanlash/to'g'rish menyusini chiqadi.
- Dastakni burab, menyu punktlarini o'zgartirish va tanlash hamda parametrlar qiyamatlarini to'g'rish mumkin.

15. BACK (Orqaga) tugmasi. Kiritilgan ma'lumotlarni bekor qilish yoki avvalgi menyuga qaytish.**16. PHONE** [↗]/**MUTE** [✎] tugmasi (Telefon/Ovozni o'chirish)

- Ushbu tugma bosilsa, Bluetooth rejimini yoqish/ telefon qo'ng'iroq'ini amalga oshirish imkonini beradi.
- Uzoq vaqt bosib turilsa, ovoz yoqiladi / o'chiriladi.

Rulda joylashgan ovozni boshqarish organlari: opsiya



1. Ovoz balandligi [Speaker +/-] -/- tugmasi

- Ushbu tugmalar bosilsa, ovoz qadamma-qadam balandlashadi/pasayadi.
- Ovozni tezda ko'tarish yoki pasaytirish uchun tegishli tugmani bosib, ushlab turing.
- SEEK (Izlash) tugmasi
 - Joriy radiostansiyanı boshqa radiostansiyaiga o'zgartirish uchun (saqlab qolning radiostansiyalar orasidan) yoki boshqa musiqiy kompozitsiyaga o'tish uchun ushbu tugmani bosing.

- Belgilangan sozlamani o'zgartirish yoki joriy musiqiy kompozitsiyani orqaga yoki oldinga o'tkazish uchun ushbu tugmani bosib, ushlab turing.

3. **Chaqirish** [📞] tugmasi. Qo'ng'iroq qilish uchun ushbu tugmani bosing.

4. **Bekor qlish** [☒]/**Ovozni o'chirish** [♾] tugmasi

• Qo'ng'iroqni tugatish uchun ushbu tugmani bosing.

• Ijro etishning istalgan rejimida ushbu tugma uzoq vaqt bosilsa, musiqa yoqiladi / ovoz o'chiriladi.


Boshqaruv

Tugmalar va boshqaruv organlari

Axborot-ko'ngilochar tizimini boshqarish funksional tugmalar, ko'p funksiyali dastak va display ekraniidagi menu yordamida amalga oshiriladi. Tizim quyidagi tugma va boshqaruv organlariga ega:

- Axborot-ko'ngilochar tizimining tugmalari va dastagi.
- Rulda joylashgan avtomagnitola funksiyalarini boshqarish tugmaları


Tizimni yoqish/o'chirish



Tizimni yoqish uchun **TA'MINLASH** [⊕] tugmasini bosing.

• Avtomagnitolaning ta'minoti yoqilgandan keyin avval tanlangan radiostansiya yoki musiqiy yozuv yangrashni davom ettiradi. Tizimni o'chirish uchun **TA'MINLASH** [⊕] tugmasini bosing.

Ovoz balandligini to'g'rilash



Ovoz yaxshi eshitilishini to'g'rilash uchun **VOZ BALANDLIGI** [VOL] tugmasini burang.

• Ovoz balandligining joriy darajasi ekranda aks etib turadi.

• Axborot-ko'ngilochar tizimi yoqilganda avval o'nataligan ovoz balandligi tiklanadi (agar

yoqilganda ovoz balandligi maksimal darajada bo'lmasa).

Harorat yuqori bo'lganda ovoz balandligini cheklash

Agar radiopriyomnikning ichida harorat baland bo'lib ketsa, axborot-ko'ngilochar tizimi maksimal ovoz balandligini cheklaydi. Agar zarur bo'lsa, ovoz balandligi avtomatik tarzda pasaytiriladi.

Ovozni sozlash

Tone Settings (Tembrni sozlash) menyusiga AM/FM-yoki DAB-radiostansiyalar (faqat A turi uchun) va audipleer funksiyalarining har biri uchun ovozni yangratishning har xil rejimlarini tanlash imkonini beradi.



Ijro etishning tegishli rejimida **TONE** tugmasini bosing.

TUNE (Sozlash) boshqaruv dastagini burab tembrning kerakli sozlamasini tanlang va **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.



TUNE (Sozlash) boshqaruv dastagini burab tembrning kerakli sozlamasini tanlang va **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

Tembrni sozlash rejimida **MENU** tugmasini uzoq vaqt bosib turib, tembrning tanlangan sozlamasini bekor qilish yoki **TEMBR** tugmasini uzoq vaqt bosib turib, tembrning barcha sozlamalarini bekor qilish mumkin.

Tone Settings (Ovozni to'g'rilash) menyusi

- Bass (Past chastotalar): Past chastotalar darajasini -12 dan +12 gacha darajada boshqarish mumkin.
- Midrange (O'tacha chastotalar): O'tacha chastotalar darajasini -12 dan +12 gacha darajada boshqarish mumkin.
- Yuqori chastotalar: Yuqori chastotalar darajasini -12 dan +12 gacha darajada boshqarish mumkin.
- Fader (Oldingi va orqa dinamiklar balansi): Oltita dinamikli tizimda oldingi va orqa dinamiklar balandligi balansini 15 dan (oldingi) 15 gacha (orqa) boshqarish mumkin.
- Balance (o'ng/chap dinamiklar balansi): Bu sozlama avtombilning chap va o'ng dinamikalari o'tasidagi balandlik balansini 15 dan (chap) 15 gacha (o'ng) boshqaradi.
- EQ (Ekvalayzer): Ovozni qayta ishlash rejimini tanlash: OFF (O'chirish) ↔ Pop (Pop) ↔ Rock (Rok) ↔ Classical (Mumtoz) ↔ Talk (Nutq) ↔ Country (Kantri)

Funksiyalarni tanlash

AM/FM yoki DAB diapazonida ishllovchi radiopriyomnik (faqt A turi uchun)

RDS station TP on TP station	FAV2-3 RDS FM [TP]	Planet R	12:34	
RDS off TP off Non-TP	FAV2-3 101.1 MHz FM		12:34	
<hr/>				
DAB-FM Sevice Linking	FAV1 11B DAB [TP]	xDASDING SWR Test	12:34	
Conditional Access	FAV1 5A DAB+FM [TP]	ServiceName Conditional Access	12:34	

AM/FM yoki DAB diapazonlarda radioeshittirishlarni qabul qilish funksiyasini tanlash uchun **RADIO BAND** tugmasini bosing (faqt A turi uchun). **MENU** tugmasi bosilsa, (Menyu-Sozlama) AM/FM yoki DAB menyusini ochiladi. Unda radiostansiyani tanlash mumkin.

CD/MP3/USB moslamalaridan yoki tashqi manba kirish joyidan (AUX) ovozni ijro etish

Audio CD	CD	Track 1	00:02	12:34	27°C	
MP3 CD	MP3	Music artists	00:02	12:34	27°C	
AUX	AUX1	Track 1	00:02	12:34	27°C	
USB	MP3	Bare ladies Breakout	00:02	12:34	27°C	

CD/AUX tugmasi ketma-ket bosilsa, tizim ulangan AUX/USB-moslamaning har xil CD/MP3 manbalaridan ovozni ijro etish rejimlari o'ttasida o'tkaziladi (CD/MP3 → AUX → USB → CD/MP3 →....)

Audio/ MP3 CD	CD menu	Shuffle songs	Off
		Repeat	Off

USB	USB menu	Shuffle songs	Off
		Repeat	Off

Radio	FM menu	Favourites list	>
		FM stations list	>

MENU (Menyu) tugmasi bosilsa, tanlangan funksiya uchun opsiyali menyu yoki tegishli moslamaning menyusini ochiladi.

Telefon uchun baland aloqaning Bluetooth-moslamasi



Bluetooth orqali baland aloqani funksiyasini tanlash uchun **PHONE** [] tugmasini bosing.

Phone menu	Enter number	>
	Phone Book	>

Tegishli funksiya uchun Bluetooth menyusini ochish uchun **MENU** klavishasini bosing.

RADIOPRIYOMNIK

AM/FM (va DAB) diapazonida ishllovchi radiopriyomnik (faqat A turi uchun)
AM/FM yoki DAB diapazonida ishllovchi radiopriyomnikdan foydalanishdan avval

(10) **RADIO BAND** (Diapazon) tugmasi. Ushbu tugmani bosib AM/FM yoki DAB diapazonini tanlash mumkin (raqamli radioeshittirish, faqat A Type modellari uchun)

(14) **TUNE** (Sozlash) dastakli **MENU** (Menyu) tugmasi

- Ushbu dastakni burab, ushbu stansiyani qo'lda sozlash mumkin.
- Ushbu tugma bosilsa, joriy rejim uchun menu ko'rindi.

(15) **BACK** ⇡ (Orqaga) tugmasi. Kiritilgan ma'lumotlarni bekor qilish yoki avvalgi menyuga qaytish.

(8) ⏪ **SEEK** ⏩ (Izlash) tugmalari

- Ushbu tugmalardan biri bosilsa, avtomatik tarzda radiostansiyalar yoki DAB stansiyalari izlanadi (raqamli radioeshittirish, faqat A turi uchun).

Izlash vaqtida tugmani bosib turing, kerakli radiostansiya yoki DAB stansiyasi topilsa, uni qo'yib yuboring (faqat A turi uchun).

(6) **FAVORITE [FAV1-2-3]** (SARA) tugmasi. Ushbu tugmani bosib, saqlangan radiostansiyalar yoki DAB stansiyalari ro'yxatining sahfalarini ko'rish mumkin.

(3) **RESET [1]~[6]** tugmalari

- BELGILANGAN SOZLAMALAR** tugmalarining istalgan biri bilan faol radiostansiya yoki DAB stansiyasini taqqoslab ko'rish uchun ushbu tugmalardan birini bosib ushlab turing (faqat A turi uchun).
- RESET** tugmasi qisqa vaqt bosib turilsa, ushbu tugma bilan tayinlangan stansiyani to'g'rilash amali bajariladi.


(11) **TR** tugmasi. FM RDS funksiyasidan foydalansila, axborot kanali yoqiladi va o'chiriladi.

(7) **INFORMATION [INFO]** (Axborot) tugmasi. Radiostansiyalar yoki DAB stansiyalari haqidagi axborotni ko'rish (faqat A turi uchun).

(16) **MUTE** [🔇] (Ovozni o'chirish) tugmasi Uzoq vaqt bosilsa, ovoz yoqiladi/o'chiriladi.

Oddiy yoki raqamli radiostansiya eshittirishlarini tinglash (faqat A turi uchun)


Radiopriyomnik rejimini yoki DAB diapazonini tanlash



RADIO BAND (DIAPAZON) tugmasini bosib, AM/FM yoki DAB diapazonini tanlang.

- Avval tanlangan radiostansiya yangray boshlaydi.

Radiostansiyani avtomatik izlash




Yaxshi qabul qilinadigan radiostansiyalarni avtomatik izlash uchun SEEK (izlash) tugmalaridan birini bosing.

DAB xizmati komponentlarini avtomatik izlash (faqat A turi uchun)






Joriy ansamblida DAB xizmatining komponentlarini avtomatki izlash SEEK (O'tkazish) tugmalaridan birini bosing. Avvalgi/keyingi ansamblga o'tish uchun IZLASH tugmasini bosing.

Radiostansiyalarni izlash




Sozlash chastotasini tezda o'zgartirish uchun SEEK (O'tkazish) tugmalaridan birini bosib ushlab turing; kerakli chastotaga borib, tugmani qo'yib yuboring.

DAB ansamblini izlash (faqat A turi uchun)




DAB diapazonining yaxshi qabul qilinadigan qulay komponentlarini avtomatik izlash uchun (O'tkazish) tugmasini bosing.



DAB xizmatini bog'lash (faqat A turiga taalluqli)



[DAB-DAB yoqish/DAB-FM o'chirish]




[DAB-DAB o'chirish/DAB-FM yoqish]




[DAB-DAB yoqish/DAB-FM yoqish]


Agar DAB-FM avtobog'lanish rejimi aktivlashtirilgan bo'lса, DAB signali kuchsiz bo'lgan taqdida axborot-ko'ngilochar tizimi avtomatik tarzda bog'langan komponentni qabul qilishga o'tadi [qarang: Sozlamalar (CONFIG tugmasini bosing) → Radio settings (Radioni to'g'rilash) → DAB settings (DAB sozlamalari) → Auto linking DAB-FM (DAB-FM avtobog'lanish)].

Radiostansiyani qo'lida to'g'rilib olish

TUNE (Sozlash) dastagini burab, stansiyani qo'lida to'g'rilib olish mumkin.

Qo'lida DAB radiostansiyasini to'g'rilaish (faqat A turi uchun)


DAB rejimida DAB menyusiga o'tish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing. **TUNE** boshqaruv dastagini burab, DAB stansiyasida qo'lida to'g'rilaish rejimini tanlang va **MENU** (Menyu) tugmasini bosing. **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, kerakli chastotani toping. Shundan so'ng **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

DAB stansiyalari ro'yxatini qo'llash (faqat A turiga taalluqli)

TUNE (Sozlash) dastagini burab, DAB stansiyalari ro'yxatini oching.

- Stansiya haqidagi axborot ko'rsatiladi.
- Agar ro'yxat bo'sh bolsa, DAB stansiyalari ro'yxatini yangilash tartib-taomili avtomatik tarzda ishga tushadi. **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, kerakli ro'yxatni tanlang. Shundan so'ng tegishli radiokanalni yoqish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

Raqamli radioeshittirish haqida axborot chiqishi (faqat A turiga taalluqli)




INFORMATION [INFO] (Axborot) tugmasini bosib, DAB stansiyasi haqidagi axborotni aks ettirishning kerakli rejimini tanlang.

Belgilangan sozlamalaridan foydalanish

PRESET tugmasiga stansiyani tayinlash (belgilangan sozlama)

Favourite saved






FAVOURITE [FAV1-2-3] belgilangan sozlamalari tugmasini bosing va saqlangan stansiyalar ro'yxatining kerakli sahifasini tanlang.

Saralangan ro'yxatning tanlangan sahifasidagi tegishli tugmaga joriy radiostansiysi yoki DAB stansiyasini tayinlash uchun **BELGILANGAN SOZLAMA [1] ~ [6]** tugmalaridan istalgan birini bosing (faqat A turi uchun).

- Saralangan stansiyalarning uchtagacha sahifasini va har bir sahfada oltigacha radiostansiya yoki DAB stansiyasini saqlash mumkin.
- Settings (Sozlamalar) → Radio Settings (Radiopriyomnik sozlamalari) → Radio favourites (Max. number of favourite page) (Stansiyalarni saqlash (saqlangan stansiyalar sahifalarining maksimal soni) menyusida saqlangan stansiyalar sahifalarining sonini berish mumkin).
- **BELGILANGAN SOZLAMA [1] ~ [6]** tugmasiga yangi stansiya tayinlanganda eski sozlama, agar u mavjud bo'lgan bo'lsa, o'chirib tashlanadi va yangi stansiyaga almashtiriladi.


Belgilangan sozlamalar tugmalariga tayinlangan stansiyalar uchun bevosita sozlash



FAVOURITE [FAV1-2-3] tugmasini bosib, saqlangan sozlamalarning kerakli sahifasini tanlang (FAV).


- Saqlangan sozlmalarning tanlangan sahifasining 1-stansiyasi haqidagi axborot ko'rsatiladi. Ushbu tugmaga tayinlangan radiostansiya yoki DAB stansiyasini tinglash uchun (faqat A turi uchun) **BELGILANGAN SOZLAMA [1] ~ [6]** tugmalaridan birini tanlang.

Radio yoki DAB menyusini qo'llash (faqt A turiga taalluqli)



Radio yoki DAB menyusini **MENU** tugmasini bosish orqali ochiladi. **TUNE** (Sozlash) boshqaruvida dastaklari burab, menyuning kerakli bandiga o'ting. Shundan so'ng tegishli bandni tanlash yoki batafsil menyuni ochish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.


AM/FM yoki DAB menyusi (faqt A turiga taalluqli) → Saqlangan stansiyalar ro'yxati



AM/FM yoki DAB menyusida **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, AM/FM-stansiyalar ro'yxatini tanlang, so'ngra **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

- Saqlangan stansiyalar ro'yxati haqidagi axborot ko'rsatiladi. **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, saralangan kerakli ro'yxatni tanlang, so'ngra tegishli radiokanalni to'g'rilash uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.


AM/FM menyusi → AM/FM-stansiyalar ro'yxati



AM/FM menyusida **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, AM/FM-stansiyalar ro'yxatini tanlang, so'ngra **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

- Ro'yxatda stansiyalar haqida axborot keltirilgan. **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, kerakli ro'yxatni tanlang. Shundan so'ng tegishli radiokanalni yoqish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.


FM yoki DAB menyusi (faqat A turi uchun) → FM yoki DAB toifalari ro'yxati



FM yoki DAB menyusini olib, **SOZLASH** boshqaruv dastagini burab FM yoki DAB toifalari ro'yxatini tanlang. Shundan so'ng **MENU** tugmasini bosing.

- Display ekranida FM yoki DAB radiostansiyalarini toifalarining ro'yxati paydo bo'ladi. **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, kerakli ro'yxatini tanlang. Shundan so'ng tegishli chastotaga to'g'rilanish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

DAB menyusi → DAB e'l'onlari (faqat A turiga taalluqli)



DAB menyusida **SOZLASH** dastagini burab DAB e'l'onlari bandiga o'ting. Shundan so'ng MENU tugmasini bosing.

- Display ekranida DAB e'l'onlarining ro'yxati paydo bo'ladi. **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, kerakli ro'yxatini tanlang. Shundan so'ng eshitirishning tegishli chastotasiga to'g'rilanish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

AM/FM yoki DAB menyusi (faqat A turi uchun) → AM/FM yoki DAB radiostansiyalar ro'yxatini yangilash



AM/FM yoki DAB menyusida (faqat A turi uchun) **SOZLASH** dastagini aylantiring va "AM/FM yoki DAB ro'yxatini yangilash" bandiga o'ting, so'ngra esa **MENU** tugmasini bosing.

- FM/AM/DAB radiostansiyalarining ro'yxati yangilanadi. AM/FM DAB diapazonlarida eshitirish ro'yxatini yangilashda kiritilgan o'zgarishlarni saqlamaslik uchun **MENU** tugmasini yoki ⌂ **ORQAGA** tugmasini bosing.

Radioma'lumotlar tizimi (RDS). Radiokanal bo'yicha ma'lumotlar uzatish (RDS) - bu FM-radiostansiyalari tomonidan ko'ssatiladigan xizmat bo'lib, radiostansiyalarni izlashni ancha osonlashtiradi. Radiostansiyalarning signali hech bir shovqinsiz qabul qilinadi.



- RDSga moslashgan stansiyalar uchun eshittirish chastotasi bilan birga dastur nomi aks etadi.

RDS-radiostansiyalar tomonidan beriladigan axborotni ko'rish

RDS-radiostansiyalarni tinglash vaqtida ushbu stansiya tomonidan beriladigan RDS axborotini ko'rish uchun **INFORMATION [INFO]** (axborot) klavishasini bosing.

RDS konfiguratsiyasi

Sozlash menyusi ko'rinishi uchun **CONFIG** (Konfiguratsiya) klavishasini bosing.

Radiopriyomnik sozlamasiga o'tish uchun **TUNE** (Sozlash) boshqaruv dastagini aylantiring, so'ngra **MENU** (Menyu) tugmasini bosing. **TUNE** (Sozlash) boshqaruv dastagini burab, RDS sozlamalarini tanlang, so'ngra **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

RDSni o'qish va o'chirish. RDS uchun ON (yoqish) yoki OFF (o'chirish) qiymatini o'rnatiting. RDSni aktivlashtirish orqali quyidagi ustunliklarga ega bo'lish mumkin:

- Displayda tanlangan stansiya eshittirishining chastotasi o'rniga dastur nomi aks etadi.

- Axborot-ko'ngilochar tizimi har doim AF (Alternativ chastota) orqali o'rnatilgan stansiyaning eng kuchli radioeshittirish chastotasiga to'g'rilanadi.



RDSni yoqish uchun RDS sozlamalari menyusida **TUNE** (Sozlash) dastagi bilan RDS Off bandini tanlang va **MENU** (Menyu) tugmasini bosing. Mintaqalarga ajratish funksiyasini yoqish va o'chirish. Mintaqaviy radioeshittirish funksiyasi ishlashi uchun RDSni aktivlashtirish zarur. Ba'zan turli chastotalardagi ayrim RDS-radiostansiyalar mintaqaviy dasturlar beradi.

Regional (REG) (Mintaqaviy eshittirish) funksiyasi uchun On (yoqilgan) yoki Off (o'chirilgan) opsiyasini tanlang. Bir xil mintaqaviy dasturlarga ega faqt muqobil chastotalar (AF) tanlanadi. Agar mintaqaviy eshittirish funksiyasi yoqilgan bo'lsa,

stansiyalarning muqobil chastotalari mintaqaviy dasturlardan qat'inazar tanlanadi.



RDS parametrlari menyusini oching. **TUNE** dastagini burab, "Regional Off" qatorini tanlang. Shundan so'ng mintaqaviy dasturlarini tanlash funksiyasini yoqish uchun **MENU** tugmasini bosing.

Matn aylanishini to'xtatish funksiyasini yoqish/o'chirish


Matn aylanishini to'xtatish funksiyasi yoqiladi/o'chiriladi (ko'rsatuvlar dasturi to'g'risidagi axborotni ko'rish uchun).



Matn aylanishini to'xtatish funksiyasini yoqish uchun RDS sozlamalari menyusida **TUNE** (Sozlash) dastagi bilan Text scroll freeze Off bandini tanlang va **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

Yo'ldagi holat haqidagi xabarlar ovozining balandligi (TA)


Siz yo'ldagi harakat haqidagi xabarlarni beradigan eng past ovozni dasturlashtirishingiz mumkin. Yo'ldagi holat haqidagi xabarlarning eng past ovozini ovoz balandligi tizim darajasi o'zgarishiga mutanosib ravishda oshib va kamayib boradigan qilib o'natish mumkin.



RDS parametrlari menyusini oching. **TUNE** dastagini burab, TA volume qatorini tanlang. Shundan so'ng **MENU** tugmasini bosing. **TUNE** dastagini burab, yo'ldagi holat haqidagi xabarlarning balandligini to'g'rilang. Shundan so'ng **MENU** tugmasini bosing.



Yo'ldagi radioaxborot xizmati (TP = Yo'l axboroti)

Yo'l harakatlari haqidagi radioxizmatlar stansiyalari - bu RDS stansiyalari bo'lib, yo'l harakatlari haqidagi yangiliklarni berib boradi. Axborot-ko'ngilochar tizimining yo'ldagi holat haqidagi radio e'onlarni qabul qilishga tayyorlik funksiyasini yoqish va o'chirish:



Yo'ldagi holat haqidagi xabarlarni yoqish/o'chirish uchun **TP** tugmasini bosing.


- Agar yo'ldagi holat haqidagi radio e'onlarni qabul qilish funksiyasi yoqilgan bo'lsa, radiopriyomnikning bosh menyusida kvadrat qavslar aks etadi [].



- Agar qabul qilinayotgan radiostansiya yo'l dagi holat haqida xabarlar bermayotgan bo'sa, avtomatik tarzda yo'l dagi holatdan xabar beruvchi keyingi stansiya izlana boshlanadi.
- Yo'l dagi holat haqida radio e'l onlar beruvchi stansiya ga to'g'rilangandan keyin radiopriyomnikning bosh menusida [TP] paydo bo'ladi.
- Agar yo'l dagi holat haqidagi radio e'l onlarni qabul qilish funksiyasi yoqilgan bolsa, CD/MP3/USB dan yoki AUX kirish joyidan yangrayotgan ovoz yo'l dagi holat haqida e'l on radiodan uzatilayotgan vaqtida to'xtatib qo'yiladi.

Yo'l xabarlarini to'sish

Masalan, CD/MP3 yoki radio tingleyotganda yo'l da yuz bergen holat haqidagi radio e'l onlarni to'sish tartibi:



- TP tugmasini bosing. Yo'l dagi xabarlar xizmatini yoqing va axborot-ko'ngilochar tizimi ovozini butunlay to'xtating.
- Yo'l xabarining uzatilishi to'xtatiladi, biroq yo'l xabarlarini xizmati ishlashni davom ettiradi.


Joriy yo'l xabarlarini to'sish

Masalan, radio bo'yicha xabarlarini qabul qilish vaqtida yo'l dagi holat haqidagi joriy xabarni to'sish uchun:



TP tugmasini bosing.

Qimirlamaydigan shtirli antenna



Tomdagi antennani yechish uchun uni soat miliga qarshi tomonga aylantiring. Antennani o'rnatish uchun esa uni soat mili tomonga aylantiring.

⚠ D/QQAT!

Gumbazi past binoga kirishdan oldin antenna sinib ketmasligi uchun uni yechib qo'ying. Antenna o'rnatilgan avtomatik yuvish xonasiga kirdganda antennaga yoki tom paneliga shikast yetishi mumkin. Avtomatik yuvish xonasiga kirishdan oldin albatta antennani yechib qo'ying.

Antennani tik holatda o'rnatishing, radiostansiyalar tegishli darajada qabul qilinishi uchun antennani yaxshilab tortib to'g'rilang.

AUDIOPLEYERLAR

CD-pleer

Tizimning CD/MP3-pleyeri ovozli kompakt-disklarni va MP3 (WMA)-disklarni ijro etish imkonini beradi.

⚠ D/QQAT!

CD/MP3 (WMA) pleeriga hech ham istalgan DVD disklarni, diametri 8 santimetrik mini-disklarni yoki sirti shikastlangan disklarni solmang. Disklarning sirtiga nakleyka yopishtrimang. Bunday disklar pleerga tiqilib qolishi va uning simlariga shikast yetkazishi mumkin. Bu holda moslamani qimmatga almashtirishga to'g'ri kelib qolishi mumkin.

- Audio-CD standartiga mos kelmaydigan nusxa ko'chirishdan himoyalangan ovozli CD-disklar tegishli ravishda ijro etilmasligi yoki umuman ijro etilmasligi mumkin.
- Zavodda ishlab chiqarilgan CD-disklarga nisbatan yozilgan CD-R va CD-RW disklar oson shikastlanadi. Aynilsa yozilgan CD-R va CD-RW disklar alohida ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Quyidagi larga e'tibor bering.
- Yozilgan CD-R va CD-RW disklar tegishli ravishda ijro etilmasligi yoki umuman ijro etilmasligi mumkin. Bu tizimning nosozligidan darak bermaydi.

- Diskni almashtirishda yozuv tomonidan barmoq izlарини goldirmaslikka harakat qiling.
- CD/MP3-proigrivateldan diskni olib,unga shikast yetishining va chang tushishining oldini olish uchun uni darhol futlyarga qo'ying.
- Chang zarralari yoki suyuqlik tekkan disk CD/MP3-proigrivate boshining linzasini shikastlashi mumkin.
- Diskni qizib ketishdan va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushishidan saqlang.

Disklarning foydalanishga yaroqli turlari

- Ushbu tizim ovozli CD- i MP3 (WMA) disklarni ijro etish imkonini beradi.
- CD-DA: CD-R/CD-RW
- MP3 (WMA): CD-R / CD-RW / CD-ROM
- Quyidagi turdag'i MP3 (WMA) fayllarni ijro etib bo'lmaydi:
- MP3i (MP3 Interactive) va MP3 PRO kodli fayllar
- Nostandart kodli MP3 (WMA) fayllar
- MPEG1 Layer3 formatiga mos kelmaydigan MP3-fayllar

Disklardan foydalanishga doir fikr-mulohazalar

- Quyida sanab o'tilgan disk turlaridan foydalanmang. Bunday disklardan tez-tez

foydalanish proigrivatelning buzilishiga olib kelishi mumkin.

- Nakleykali, etiketkali, himoya tasmasiga ega disklar.
- Tizzilatib chiqaradigan printerdan chiqarilgan nakleykali disklar
- Nominal sig'imidan ortiq narsa yozilgan disklar
- Teshik va qirilgan, qaytarilgan disklar tegishlichha ijro etilmasligi mumkin.
- Diametri 8 santimetrik disklar va doira shaklda bo'limgan (kvadrat, beshburchakli cho`ziq) disklar.
- Pleyeri tirqishiga disklardan boshqa hech bir buyumni tiqmang – bu nuqsonlarga yoki buzilishga sabab bo'lishi mumkin.
- Sovuq havoda isitgich yoqilganda disk proigrivateli yaxshi ishlamasligi mumkin, chunki bunda apparatda namlik yig'ilib qolishi mumkin. Agar bunday vaziyat yuzaga kelsa, foydalanishdan oldin taxminan 1 soat davomida pleyerini yoqmang.
- Avtomobil notejis yo'lida silkinganda ijro uzilib qolishi mumkin.
- Diskni kuch bilan olishga yoki tiqishga yoki yuklangan vaqtida uni qo'lda ushlab turishga harakat qilmang.
- Rasmi tepega qaragan diskni tiqing. Boshqa tarafi tiqilgan disk ijro etilmaydi.

- Diskning yozilgan tomoniga (yozuv yoki rasm bo'lмаган томонига) qo'l tekkizmang.
- Foydalanimagan disklarni qutiga soling va ularga to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri va yuqori harorat tushishiga yo'l qo'y mang.
- Disklarga kimyoiy vositalarni surtmang. Disklarni kirdan tozalash uchun nam yumshoq matodan foydalanimib, uni markazdan chetiga qarab arting.

CD-R/RW disklardan foydalanishga doir fikr-mulohazalar


- To'lqiq yasalgan CD-R va CD-RW disklargina ijo etiladi.
- Komp'yuterda yozilgan disklar ijo etilmasligi mumkin. Bu yozuv dasturiga va operatsion tizimga bog'lilq.
- Ayniqsa o'ramlangan CD-R/CD-RW disklari to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushishi yoki yuqori harorat yoxud avtomobilida uzoq vaqt saqlanishi tufayli buzilib qolishi mumkin.
- Disk nomi va diskka yozilgan boshqa matnli axborot ushbu tizimda ko'rinnmasligi mumkin.

- CD-RW disklari CD-ROM yoki CD-R disklariga nisbatan uzoq vaqt yuklanishi mumkin. Shikastlangan musiqiy fayllar ijro etilmasligi yoki to'liq ijo etilmasligi mumkin.
- Nusxa ko'chirishdan himoyalangan ba'zi disklar ijo etilmasligi mumkin.
- MP3 (WMA) disklarda jiddlarning har 10 darajasida fayllar soni 512 tadan ortiq bo'imasligi kerak; ijo etiladigan fayllarning eng ko'p soni - 999 ta.
- Tizim ISO-9660 Level ½ yoki Joliet fayl tizimidagi MP3 (WMA) disklarnigina o'qiydi. (UDF fayl tizimi o'qilmaydi)
- MP3/WMA fayllari fayllarni yozish paket rejimiga mos kelmaydi.
- MP3/WMA fayllar yoki audioma'lumotlar (CDDA) yozilgan CD-Extra yoki Mixed-Mode CD formatidagi disklar ijo etilmaydi.
- Disklarning har xil turlari uchun fayl va jiddlar nomlarining quyidagi formatlari, shu jumladan to'rtta belgi o'qiladi (.mp3):
 - ISO 9660 Level 1 ko'pi bilan 12 ta belgi
 - ISO 9660 Level 2 ko'pi bilan 31 ta belgi
 - Joliet: ko'pi bilan 64 ta belgi (1-baytli)
 - Windows fayllarning uzun nomlari: Ko'pi bilan 128 ta belgi (1-baytli)

MP3/WMA musiqiy fayllarni tiklashga doir fikr-mulohazalar

- Tizim mp3, .wma (kichik harfli) va MP3 va WMA (katta harfli) ga moslashgan MP3-(WMA) fayllarni ijo etishi mumkin.
- Quyidagi xususiyatlarga ega MP3-fayllar ijo etilishi mumkin:
 - Bitreyt: 8 kbit/s - 320 kbit/s - Diskretizatsiya tezligi: 48 kGts, 44,1 kGts, 32 kGts (MPEG-1 uchun), 24 kGts, 22,05 kGts, 16 kGts (MPEG-2 uchun)
 - Tizim 8 kbit/s dan 320 kbit/s gacha bitreytli disklarni ijo etishi mumkin, biroq kamida 128 kbit/s bitreytda yuqori sifatlari ovoz ijo etiladi.
 - Tizim MP3-fayllar ID3 teglari (1.0, 1.1, 2.2, 2.3, 2.4 versiya) axborotni, masalan, albom va ijo etuvchi haqidagi ma'lumotlarni aks ettridi.
 - Albomni (disk nomini), kompozitsiyani (yozuv nomini) va ijrochini (kompozitsiya ijrochisini) aks ettrish uchun fayl ID3 Tag V1 yoki V2 xossalariiga mos kelishi kerak.
 - Tizim o'zgaruvchan bitreytli (VBR) MP3-fayllarni ijo etishi mumkin. VBR MP3-fayllar ijo etilganda ijroning qolgan vaqt amaldagi vaqtidan farq qilishi mumkin.

Musiqiy fayllarni ijro etish tartibi





CD/MP3 ijro etish

- (9) **CD/AUX** tugmasi. CD/MP3 proigrivatelinini tanlang.
- (14) **TUNE** (Sozlash) dastakli **MENU** (Menyu) tugmasi.
- Boshqaruv dastagini burab, yozuvlar ro'yxati, menyu va MP3 (WMA) yozuv haqidagi axborot bo'ylab harakatlanish mumkin.
- Tugma bosilganda tanlangan vaziyat yoki faol rejim uchun funksiyalar menyusi paydo bo'ladi.
- (8) ⏪ **SEEK** ⏩ (Izlash) tugmalari
- Ushbu tugmalar avvalgi yoki keyingi yozuvga o'tish uchun xizmat qiladi.
- Joriy kompozitsiya bo'ylab orqaga yoki oldinga tezda o'tish uchun ushbu tugmalardan birini bosib ushlab turing. Ijroning normal tezligiga qaytish uchun tugmani qo'yib yuboring.
- (4) **EJECT** [⏏] (Diskni chiqarib olish) tugmasi. Diskni yuklash.
- (7) **INFORMATION [INFO]** (Axborot) tugmasi. Ijro etilayotgan yozuv haqida axborot keltiradi.
- (16) **MUTE** [🔇] (Ovozni o'chirish) tugmasi. Uzoq vaqt bosilsa, ovoz yoqladi/o'chiriladi.
- (15) ⏪ **BACK** (Orqaga) tugmasi. Kiritilgan ma'lumotlarni bekor qilish yoki avvalgi menyuga qaytish.

CD/MP3 disklarini yuklash va ijro etish




Diskni rasmida ko'rsatilgan proigrivate tirqishiga tiling.



- Tizim diskdagagi axborotni o'qib bo'lgach, birinchi kompozitsiya avtomatik tarzda ijro etiladi.

- Agar tinqilgan disk o'qilmasa, u avtomatik chiqarib yuboriladi; bunda diskda nuqson borligi haqida xabar paydo bo'ladi, tizim esa avvalgi rejimiga yoki FM-diapazonida radio qabul qilish rejimiga o'tadi.



Agar ijro etmoqchi bo'lgan diskingiz tinqilgan bo'lsa, **CD/AUX** tugmasini bosib CD/MP3 ijro rejimini tanlang

- Agar disk yo'q bo'lsa, displayda "No CD Inserted" degan xabar paydo bo'ladi va rejim tanlanmaydi.
- Diskdagi oxirgi marta ijro etilgan yozuvdan avtomatik tarzda ijro etila boshlanadi.


Diskni chiqarib olish



Ijroni tugatish uchun chiqarib olish [△] tugmasini bosing.



- Disk chiqarib olingach, tizim avtomatik tarzda avvalgi foydalilanigan rejimiga yoki FM diapazonida radiostansiyani qabul qilish rejimiga qaytadi.
- Agar disk olinmasa, u biroz vaqtidan keyin o'z-o'zidan qaytadan yuklanadi.

Kompozitsiyalarni o'tkazish



Ijro etish rejimida ▶ SEEK (OTKAZISH) ▶ tugmalari bosilsa, avvalgi yoki keyingi yozuvga o'tish imkonini beradi.

- Yozuvlar rulda joylashgan audit tizimming masofaviy boshqaruv pultidagi **SEEK** tugmasi bilan oson o'tkaziladi.



Shuningdek **TUNE** (Sozlash) dastagini burab yozuvlar ro'yxatiga o'tish mumkin, so'ngra esa **MENU** (Menyu) tugmasini bosib, tanlangan yozuvga bir zumda o'tish mumkin.

Ijro joylarini o'zgartirish

Elapsed time 0:06

Ijro etish rejimida kompozitsiya bo'ylab orqaga yoki oldinga tezda o'tish uchun  tugmalaridan birini bosib ushlab turing.

Tugma qo'yib yuborilgach, ijro normal tezlikda davom etadi.


- Orqaga yoki oldinga o'tkazishda ovoz biroz pasayadi; ekranda ijro vaqtি ko'rinish turadi.

Ijro etilayotgan kompozitsiya haqidagi axborotni ko'rish

Title: Fly To the Sky
Artists: Ben Folds Five
Albums: Journey Lane

Ijro etish rejimida joriy kompozitsiya haqidagi axborotni ko'rish uchun **INFO (AXBOROT)** tugmasini bosing.

- Agar kompozitsiya haqidagi axborot CD da bo'limasa, tizim "No Information" degan xabarni ko'rsatadi.




Title: Toward higher
Artists: Champion
Albums: Journey Lane

Albums: Journey Lane
Folder: The Greatest Hits
Genres: Other

MP3 (WMA) dagi yozuv haqida to'lqiq axborotni ko'rish uchun yozuv haqidagi axborot chiqqan vaqtida **TUNE** (Sozlash) tugmasini aylantiring.



- Jumladan, fayl nomi, jild nomi va ID3 tegidagi axborot paydo bo'ladi. Axborot-ko'ngilochar tizimi ID3 teglaridagi axborotni diskka yozishdan avval MP3 (WMA) fayllariga qo'shilgan shaklda uning to'g'iligi yoki xatoligidan qat'iy nazar ko'rsatadi. ID3 teglaridagi noto'g'ri axborotni axborot-ko'ngilochar tizimida to'g'rilab bo'lmaydi (ID3 teglarini faqat SHK da tuzatish mumkin).
- Maxsus belgilari va o'qilmaydigan alifbo belgilari " — — " ko'rinishida aks etishi yoki umuman aks etmasligi mumkin.

CD menyusidan foydalanish ijro etish rejimini o'zgartirish

Ben Folds Five
Fly To the Sky
Track 3
1:27



CD/MP3 ijro etish rejimida CD menyusiga o'tish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.




SOZLASH dastagini burab, Tasodifyi tartibda yoki Takror rejimini tanlang, so'ngra esa **MENU** tugmasini bosib, tegishli opsiyani yoqing yoki o'chiring.

CD menyusi → Yozuvlar ro'yxati





Ovozli kompakt-diskni ijro etishda **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, CD menyusida Yozuvlar ro'yxatini tanlang va so'ngra **MENU** (Menyu) tugmasini bosing. **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, yozuvlarning kerakli ro'yxatini tanlang va tanlangan yozuvni ijro etish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

CD menyusi → Jildlar




MP3 (WMA) diskni ijro etishda **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, CD menyusida Jildlarni tanlang va so'ngra **MENU** (Menyu) tugmasini bosing. **TUNE** (Sozlash) boshqaruv dastagini burab, kerakli jildni tanlang va **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.



TUNE (Sozlash) boshqaruv dastagini burab, kerakli yozuvni toping va so'ngra tanlangan jilddagi tanlangan yozuvni ijro etish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.


CD menyusi → Izlash...



MP3 (WMA) diskini ijro etishda **TUNE** (Sozlash) dastagini burab, CD menyusida Izlashni... tanlang va so'ngra **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.


- Tizim diskdagisi axborotni o'qib bo'lgach, [iP] ijro etish ro'yxatidagi birinchi yozuvni ko'rsatadi.
- Agar [iP] ijro etish ro'yxatida musiqiy fayllar yo'q bo'lsa, har bir ijrochining [IA] birinchi musiqasi ko'rsatiladi.
- Diskni o'qish vaqtiga musiqiy fayllar soniga bog'liq va uzoq bo'lishi mumkin.

MENU (Menyu) tugmasini yana bir marta bosing. Paydo bo'lgan izlash menyusida **TUNE** (Sozlash) boshqaruv dastagini burab, izlashning kerakli variantini tanlang.



- Ijro ro'yxati [iP]/ijrochi [iA]/albom [iL]/nomi [iS]/janri [iG] bo'yicha tegishli kompozitsiyalar soni paydo bo'ladi.

TUNE (Sozlash) boshqaruv dastagini burab, batafsil tasnifga ega kerakli bandni tanlang, so'ngra esa **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.



TUNE (Sozlash) dastagini burab, ro'yxatdag'i kerakli yozuvni/kompozitsiyani tanlang va uni ijro etish uchun **MENU** (Menyu) tugmasini bosing.

Qo'shimcha moslamalar USB-tashuvchidan ijro etish USB-moslamadan foydalanishga doir fikr-mulohazalar

- Qattiq diskli USB-tashuvchilar, shuningdek USB-adapter orqali ulangan CF- yoki SD xotira kartalarining ishlashiga kafolat yo'q. USB-tashuvchidan yoki flesh-kartadan foydalaning.
- USB-tashuvchilarni ularshda va chiqarib olishda turg'un elektr razryadlaridan ehtiyoj bo'ling. Qisqa vaqt ichida moslama ko'p marta tiqilsa va olinsa, u bilan bog'liq muammo yuzaga kelishi mumkin.
- USB-moslamani chiqarib olish uchun **MENU** tugmasi va **SOZLASH** dastagi bilan USB → USB olib tashlash menyusini tanlang.
- Metaldan yasalmagan tiqish joyiga ega USB-moslamalarining ishlashiga kafolat yo'q.
- i-Stick turidagi USB-moslamalari avtomobil tebranishi tufayli yaxshi ulanmaydi; bunday moslamalarning ishlashiga kafolat yo'q.
- USB ning tiqish joyiga tegimrang va unga begona buyumlarni tekkizmang.
- FAT 16/32 fayl tizimiga ega USB-moslamagina o'qildi. Sektor hajmi 512 bayt yoki 2.048 bayti moslamalarga o'qildi. NTFS va boshqa fayl tizimlari o'qilmaydi.

- Moslamani o'qish vaqtı moslamaning turi va sig'imiغا hamda yozilgan fayllar turiga bog'liq. Bu tizimning nosozligi bilan bog'liq emas; o'qib bo'lgungacha kutib turing.
- Ayrim USB-moslamalardagi fayllar mos kelmasligi tufayli o'qilmasligi mumkin. Xotira kartasi o'qiydigan moslamalar va USB-konsentratorni ulashga moslashmagan. Moslamadan foydalanimishdan avval uning avtomobilda ishlashini tekshirib ko'ring.
- MP3-pleerlar, mobil telefonlar, raqamli fotoapparatlar va tashqi disk rejimida ulangan boshqa moslamalar lozim darajada ishlamasligi mumkin.
- Ijro etilayotgan vaqtida USB-moslamani olmang. Bu tizimning shikastlanishiga yoki USB-moslamaning buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni o'chirganingizda ulangan USB-moslamani olib qo'ying. Avtomobil yoqilganda USB-moslama ulangan bo'sa, u shikastlanishi mumkin yoki uning ishlashiga zarar yetishi mumkin.
- Agar USB-tashuvchi mantiqiy disklarga taqsimlangan bo'sa, birinchi mantiqiy diskdagи musiqiy fayllargina ijro etiladi. Shu sababli musiqiy fayllarni moslamaning birinchi mantiqiy diskida saqlash kerak.
- Agar USB-tashuvchida dasturiy ta'minot uchun alohida bo'lim ajratilgan bo'sa, undagi musiqiy fayllarni ijro etib bo'lmaydi.

⚠ DIQQAT!

USB-jamlovchilarni faqat musiqiy fayllarni ijro etish uchun tizimga ulash mumkin. Tizimning USB tiqiladigan joyidan USB-moslamalarni zaryadlash uchun foydalanmang, chunki USB tiqish joyi qizib ketsa, tizim faoliyatining yomonlashishiga yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Himoyalangan DRM dan musiqiy fayllarni ijro etib bo'lmaydi.
- Tizim sig'imi 16 gigabayt bo'lgan, 999 tagacha faylga, 512 tagacha jildga ega va jildlar tarkibi 10 darajadan iborat bo'lgan USB-tashuvchilarni o'qiydi. Bu hajmdan ortiq moslamalarning normal ishlashiga kafolat berilmaydi.

USB-tashuvchilardagi musiqiy fayllarni ijro etishga doir fikr-mulohazalar

- Shikastlangan musiqiy fayllar to'liq ijro etilmaydi yoki umuman ijro etilmaydi.
- Jildlar va ovozli fayllar quyidagicha tartibga solinadi: belgililar → raqamlar → harflar → ...

- Joliet fayl tizimidagi jiddlar va fayllar nomlari koreys va lotin alifbosining 64 ta belgisidan oshishi mumkin emas.

MP3 (WMA) musiqiy fayllari haqida

- Quyidagi xususiyatlarga ega MP3-fayllarni ijro etish mumkin:
Bitreyt: 8 kbit/s - 320 kbit/s
Diskretizatsiya tezligi: 48 kGts, 44,1 kGts, 32 kGts (MPEG-1 uchun) 24 kGts, 22,05 kGts, 16 kGts (MPEG-2 uchun)
- Tizim mp3, .wma (kichik harfli) yoki .MP3 va WMA (katta harfli) MP3- (WMA-) fayllarni o'qiydi.
- Tizim MP3-fayllar uchun albom, ijrochi haqidagi axborotni va ID3 teglardagi boshqa ma'lumotlarni aks ettiradi (1.0, 1.1, 2.2, 2.3, 2.4 versiyasi).
- Fayl va jildlar nomlarining quyidagi formatlari, shu jumladan to'tta belgi o'qiladi (.mp3):
-ISO 9660 Level 1: ko'pi bilan 12 ta belgi.
-ISO 9660 Level 2: ko'pi bilan 31 ta belgi.
Joliyet: ko'pi bilan 64 ta belgi (1-baytl)
Windows fayllarning uzun nomlari: Ko'pi bilan 128 ta belgi (1-baytl)
- Tizim o'zgaruvchan bitreytli (VBR) MP3-fayllarni ijro etishi mumkin.

VBR MP3-fayllar ijo etilganda ijroning qolgan vaqt amaldaqi vaqtdan farq qilishi mumkin.

Asosiy tugmalar va boshqaruv dastaklari

USB-tashuvchilardagi musiqiy fayllar ijo etilishini boshqarish uchun quyidagi asosiy tugmalar va boshqaruv organlari qo'llaniladi:

(9) **CD/AUX** tugmasi. Tugmani bosib, ulangan USB-moslamadan ovozni ijo etish rejimini tanlang.

(14) **TUNE** (Sozlash) dastaklı **MENU** (Menyu) tugmasi. Boshqaruv dastagini burab, yozuvlar ro'yxatini, menuyu va MP3 (WMA) yozuv haqidagi axborot bo'ylab harakatlansh mumkin.

- Tugma bosilganda tanlangan band yoki joriy rejim uchun funksiyalar menyusini paydo bo'ladi.

(8) **SEEK** (Izlash) tugmalar

- Ushbu tugmalar avvalgi yoki keyingi yozuvga o'tish uchun xizmat qiladi.
Kompakt-diskni eshittirish rejimini tanlash	Oldinga o'tish / orqaga o'tish	[INT] tugmasini bosing — pleyer joriy trekni 10 soniya davomida eshittiradi, keyin keyingi trekning boshiga o'tadi va hokazo.
Kompakt-diskni kompakt-disklar pleyeriga kirit; shundan keyin radiopriyomnik eshittirish rejimiga o'tadi. Yoki disk o'rnatilganda, boshqa rejimdan chiqib diskni eshittirish uchun [CD] tugmani bosing.	[TUNE UP / TUNE DOWN] tugmasini bosing va ushlab turing — pleyer oldinga/orqaga tez o'tishni bajaradi.	Ushbu funksiyani bekor qilish uchun [INT] tugmasini yana bir marta bosing.
Kompakt-diskni chiqarib olish	Keyingi / avvalgi papka - faqat MP3-disklar uchun	All / Directory rejimi — faqat Mp3 / WMA-disklar uchun
[▲ EJECT] tugmasini bosing. Disk pleyerdan chiqarib yuboriladi. Diskni pleyerdan chiqarib oling.	[SEEK UP / SEEK DOWN] tugmasini bosganda pleyer keyingi / avvalgi papkadagi trekni eshittira boshlaydi.	Ushbu papkada takrorlash, treklarning boshini tinglash va tasodify tartibda eshittirish funksiyalari DIR rejimi yoqilganda ishlaydi. [DIR] tugmasini bosganda pleyer katalog rejimiga o'tadi. Ushbu funksiyani bekor qilish uchun [DIR] tugmasini yana bir marta bosing. Pleyer joriy fayllarning ID3 teglari axborotini ko'rsatish uchun [FAV / INFO] tugmasini bosing.
Pauza	RPT (takrorlash)	
Eshittirishni to'xtatish uchun [CD] tugmasini bosing. Displayda «PAUSE» xabari yonib-o'chib turadi. Eshittirishni davom ettirish uchun [CD] tugmasini yana bosing.	[2 RPT] tugmasini bosing — pleyer joriy trekni takroriy eshittira boshlaydi. Ushbu funksiyani bekor qilish uchun [2 RPT] tugmasini yana bir marta bosing.	
	RDM (tasodifiy tartibi)	
	[RDM] tugmasini bosing — pleyer treklarni tasodifiy tartibda eshittiradi.	

**ID3 teglari axborotini aks ettirish displayi
— faqat Mp3 / WMA-disklar uchun**

[FAV / INFO] tugmasini bosing — pleyer joriy fayllarning ID3 teglari axborotini aks ettiradi.

Qo'shimcha moslamalar**USB moslamasini eshittirish rejimi****USB moslamasini eshittirish rejimini
tanlash**

Boshqa rejimdan USB-moslama fayllarini eshittirishga o'tish uchun [USB] tugmasini bosing.

USB moslamasini ularsh

USB moslamasini USB uyasiga kiriting, pleyer USB moslamasitdagi fayllarni avtomatik tarzda eshittiradi.

USB moslamasini chiqarib olish

USB moslamasini USB uyasidan qo'lingiz bilan chiqarib oling.

* **Boshqa funksiyalari CD rejimining
funktsiyalariga o'xshash**

Pauza

Eshittirishni to'xtatish uchun USB tugmasini bosing.
Displayda «PAUSE» xabari yonib-o'chib turadi.
Eshittirishni davom ettirish uchun USB tugmasini yana bosing.

Keyingi / avvalgi trek

[TUNE UP / TUNE DOWN] tugmasini bosganda pleyer keyingi / avvalgi trekni eshittira boshlaydi.

Oldinga o'tish / orqaga o'tish

[TUNE UP / TUNE DOWN] tugmasini bosing va ushlab turing — pleyer oldinga/orqaga tez o'tishni bajaradi.

**Keyingi / avvalgi papka -
faqat MP3 /WMA-disklar uchun**

[SEEK UP / SEEK DOWN] tugmasini bosganda pleyer keyingi / avvalgi papkadagi trekni eshittira boshlaydi.

RPT (takrorlash)

[RPT] tugmasini bosing — pleyer joriy trekni takroriy eshittira boshlaydi.

Ushbu funksiyani bekor qilish uchun [RPT] tugmasini yana bir marta bosing.

RDM (tasodifiy tartibi):

[RDM] tugmasini bosing — pleyer treklarni tasodifiy tartibda eshittiradi.
Ushbu funksiyani bekor qilish uchun [RDM] tugmasini yana bir marta bosing.

INT (treklarning boshini tinglash):

[INT] tugmasini bosing - pleyer joriy trekni 10 soniya davomida eshittiradi, keyin keyingi trekning boshiga o'tadi va hokazo.
Ushbu funksiyani bekor qilish uchun [INT] tugmasini yana bir marta bosing.

Keyingi / avvalgi kategoriyasi

Pleyer eshtirish uchun [TUNE UP]/[TUNE DOWN] tugmani bosilgandan keyin [SELECT] tugmani bosing.

Bekor qilish yoki orqaga qaytish

[BACK] tugmani bosilgandan keyin pleyer oldingi holatga qaytadi.

AUX rejimi

Priyomnikning asosiy panelida, pastda 3,5 mm diametrli bitta qo'shimcha kirish uyasi mavjud.

Bu audiochiqish emas; oldingi qo'shimcha kirish uyasiga audio qulqqliklarni ulamang.

Bu yerda eshittirish uchun tashqi audiomoslamani, masalan, portativ ShK, MP3 pleyeri, CD-cheydjer, XM™, resiver va hokazolarni ulash mumkin.

AUX rejimini tanlash

Priyomnik boshqa eshittirish rejimida bo'lganda, [AUX] tugmasini bosing.

Agar qo'shimcha uyada shteker bo'lmasa, qo'shimcha moslama rejimi ishlashi mumkin emas.



ESLATMALAR

7

IQLIM NAZORATINI BOSHQARISH ORGANLARI

-
- IQLIM NAZORATI TIZIMLARI 7-2
 - SHAMOLLATISH TUYNUKLARI 7-7
 - TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH 7-8
 - ESLATMALAR 7-10

IQLIM NAZORATI TIZIMLARI

Isitish va shamollatish tizimi



1-tur



2-tur

Boshqaruv vositalari:

- Harorat
- Havoni taqsimlash
- Isitish ventilyatorining aylanish tezligi
- Isitish
- Old oynadan namlikni olib tashlash
- Havoni qayta sirkulyatsiya qilish
- Orqa oynani isitish 1-14

Harorat

Haroratni to'g'rilash uchun dastakni buring.

qizil rang: Issiqroq

ko'k rang: Sovuqroq

Dvigatel yoqilmagunga qadar salon puxta isitilmaydi.

Havoni taqsimlash

Markaziy dastakni aylantirib, havo tuynugini tanlang.

Havo oqimi tananing orqa qismiga va polga qaratilgan.

Oyoq taxmoniga, old oynaga, oldingi eshiklar oynalariga va yon tarafdag'i shamollatish tuynuklariga kamroq miqdorda havo yo'naltirish.

to'g'rlanadigan shamollatish tuynuklari orgalqi bosh tomonga

old oynaga va oyoq taxmoniga, oldingi eshiklar oynalariga va yon tarafdag'i shamollatish tuynuklariga kamroq miqdorda havo yo'naltirish.

old oynaga va oldingi eshiklar oynalariga, yon tarafdag'i shamollatish tuynuklariga kamroq miqdorda havo yo'naltirish.

Ventilyatorning aylanish tezligi

Ventilyatorni tegishli tezlikka o'tkazib, havo oqimini to'g'riling.

Isitish

Isitishning normal rejimi

1. **1-tur:** Qayta sirkulyatsiya qilish rejimiga o'tish uchun qayta sirkulyatsiya qilish rejimining dastagini o'ngga o'tkazing.

2-tur: Qayta sirkulyatsiya qilish rejimiga kirish uchun ushbu rejimni yoqish tugmasini bosing. Indikatorning yonishi qayta sirkulyatsiya qilish rejimi yoqilganligini bildiradi.

3. Havo taqsimlovchi dastakni buring.

3. Havo berishni to'g'rilovchi dastakni talab etilgan tezlikka qo'ying.

Maksimal darajada isitish

Maksimal darajada isitish rejimi salondagi havo haroratini imkon qadar tez oshirish imkonini beradi.

Bu rejimni usoq vaqtga qo'yib qo'yamang. Aks holda bu halokatga sabab bo'lishi mumkin: salondagi havo usoq vaqt turib qolishi mumkin.

Buning natijasida oynalarga namlik o'rnashib qolishi mumkin, bu esa haydovchining ko'rishini murakkablashtiradi.

Oynalarni tozalash:

1-tur: Havoni taqsimlovchi dastakni  holatiga o'tkazib, avtomobil saloniga toza havoni kiritish uchun qayta sirkulyatsiya qilish dastagini chagpa suring.

2-tur: Havoni taqsimlovchi dastakni  holatiga o'tkazib, qayta sirkulyatsiya qilish rejimini avtomobil saloniga toza havo kiritadigan qilib o'rnatung.

Maksimal darajada isitish rejimini yoqish uchun:

1. 1-tur: Havoni qayta sirkulyatsiya qilish rejimining dastagini qayta sirkulyatsiya qilish rejimiga kirish uchun o'ngga o'tkazing.

2-tur: Qayta sirkulyatsiya qilish rejimiga kirish uchun ushu rejimiyo yoqish tugmasini bosing. Indikatorning yonishi qayta sirkulyatsiya qilish rejimi yoqilganligini bildiradi.

2. Havoni to'g'rilash dastaklarini qizil zona oxiriga o'tkazing.

3. Ventylyatorning aylanish tezligini to'g'rilash dastaksini maksimal tezlikka o'rnatung.

Old oynadan namlikni va qirovni ketkazish



1-tur



2-tur

1. **1-tur:** Qayta sirkulyatsiya qilish rejimini o'chirib, havoni taqsimlash dastagini DEFROST  holatiga o'tkazing.

2-tur: Havoni taqsimlash dastagini DEFROST  holatiga o'tkazilsa, qayta sirkulyatsiya qilish rejimi tashqaridan toza havoni berishga avtomatik tarzda o'tadi. Sun'iy iqlim hosil qilish rejimi ishlaydi, biroq bunda indikatorning ko'sratkichi o'zgarmaydi.

2. Havoni to'g'rilash dastaklarini qizil zonaga o'tkazing (iliq havo).

3. Qirovni tezda olib tashlash uchun havo yetkazib berilishini to'g'rilovchi dastakni maksimal tezlikka qo'ying.

4. Zarur bo'lganda yon tarafdag'i shamollatish tuyunklarini oching va ularni yon tarafdag'i oynalarga yo'naltiring.

DIQQAT!

Atrof muhit va old oyna haroratidagi farq oynalarning bug' bosishiga olib kelishi va yo'lni ko'rish imkoniyatini cheklashi mumkin. Agar havoni to'g'rilash dastagi ko'k zonaga o'natilgan bo'sa, namlik yuqori bo'lganda FLOOR / DEFROST  yoki DEFROST  rejimlardan foydalaniш tavsiya etilmaydi.

Bu yo'l-transport halokatiga olib kelishi, avtomobiliga va yo'lovchilarga shikast yetkazishi mumkin.

Havoni qayta sirkulyatsiya qilish tizimi 

1-tur



2-tur



Havoni qayta sirkulyatsiya qilish rejimi 

dastakchasi bilan boshqariladi

Indikatorning yonishi qayta sirkulyatsiya qilish rejimi yoqilganligini bildiradi.

* DEFROST rejimida ishlashda qayta sirkulyatsiya old oyna orqali yo'lni yaxshi ko'rishni ta'minlash uchun toza havoni tashqaridan yetkazib beradigan qilib o'rnatalishi kerak.



OGOHLANTIRISH!

Uzoq vaqt havoni qayta sirkulyatsiya qilish tizimini yoqib avtomobilni boshqarish uyqu kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Toza havo kirib kelishi uchun tashqi shamollatish tizimini vaqt-i-vaqt bilan yoqib turing.

Qayta sirkulyatsiya qilish rejimida tashqaridan salonga kirib kelayotgan havo miqdori kamayadi. Agar sovutishsiz qayta sirkulyatsiya yoqilgan bo'ssa, havo namligi ortadi va oynalarni bug' bosishi mumkin. Salondagi havo sifati vaqt o'tishi bilan yomonlashadi, bu esa yo'lovchilarda uyquni qo'zg'atishi mumkin.

Orqa oynani isitish

Orqa oynani isitish  tugmasi bilan yoqiladi. Indikatorning yonishi ushbu rejim yoqilganligini bildiradi.

Orqa oynani isitish ⇨ 1-14-betlarda.

Konditsioner



OGOHLANTIRISH!

Konditsioner yoki isitish tizimi ishlab turganda avtomobilda uqlash mumkin emas. Bu jiddiy zarar yetkazishi yoki kislorod miqdorining kamayishi va/yoki tana haroratining haddan ortiq o'zgarib ketishi tufayli o'limga olib kelishi mumkin.

1-tur



2-tur

**Boshqaruv vositalari:**

- Harorat
- Havoni taqsimlash
- Ventilyatorning aylanish tezligi
- Havo va qirovni olib tashlash
- Havoni qayta sirkulyatsiya qilish
- Sovutish
- Orqa oynani isitish

Harorat

Haroratni to'g'rilash uchun dastagini buring.
qizil rang: iliq
ko'k rang: sovuq

Havoni taqsimlash

Markaziy dastakni aylantirib, havo tuynugini tanlang.

: bosh tomonga va oyoq taxmoniga;
: oyoq taxmoniga, old oynaga, oldingi eshiklar oynalariga va yon tarafdagи shamollatish tuynuklariga kamroq miqdorda havo yo'naltirish;

: to'g'rilanadigan shamollatish tuynuklari orqali bosh tomonga;

: old oynaga va oyoq taxmoniga, oldingi eshiklar oynalariga va yon tarafdagи shamollatish tuynuklariga kamroq miqdorda havo yo'naltirish;

old oynaga va oldingi eshiklar oynalariga, yon tarafdagи shamollatish tuynuklariga kamroq miqdorda havo yo'naltirish.

Ventilyatorning aylanish tezligi

Ventilyatorni tegishli tezlikka o'tkazib, havo oqimini to'g'rilang.

1-tur





2-tur

1. 1-tur: Qayta sirkulyatsiya qilish rejimini o'chirib, havoni taqsimlash dastagini **DEFROST**  holatiga o'tkazing.

2-tur: Havoni taqsimlash dastagini **DEFROST**  holatiga o'tkazib, qayta sirkulyatsiya qilish rejimi tashqaridan toza havo etkazib berishga avtomatik tarzda o'tadi.

2. 1-tur:  sovutishni o'chiring.

2-tur: Sun'iy iqlim hosil qilish rejimi ishlaydi, biroq bunda indikatorning holati o'zgarmaydi.

3. Kerakli haroratni tanlang.

4. Havo yetkazib berilishini to'g'rilovchi dastagini talab etilgan tezlikka o'rnatung.

Sovutish

1-tur:

 tugmasi bilan boshqariladi hamda faqat dvigatel va ventilyator ishlayotganda sovutadi.

2-tur:

 tugmasi bilan boshqariladi hamda faqat dvigatel va ventilyator ishlayotganda sovutadi. Tegishli indikator sun'iy havo hosil qilish rejimini yoqishni ko'ssatadi.

* Defrost rejimida ishlayotganda sun'iy havo hosil qilish tizimini o'chirish A/C ON (konditsioner yoqilgan) holatiga o'tkaziladi, bunda indikatorning holati o'zgarmaydi.

Konditsioner havoni sovutadi va tashqi harorat muzlash haroratidan biroz osganda namlikni yo'qotadi (quritadi). Hosil bo'lgan kondensatni avtomobilning tagidan oqizib yuborish mumkin. Agar sovutish yoki quritish talab etilmasa, yoqilg'ini tejash uchun tizimni o'chirib qo'yish tavsija etiladi.

Agar havo yetkazib berilishini to'g'rilovchi dastak OFF holatida bo'lsa, sun'iy havo hosil qilinmaydi.

Agar havoni boshqarish dastagi qizil zonaga burilsa, sun'iy havo hosil qilish tizimi yoqilganda shamollatish tuynugidan iliq havo chiqadi.

Sun'iy havo hosil qilish tizimini o'chirish uchun ventilyatorni boshqarish dastagini **0** holatiga buring.

DIQQAT!

Tavsiya etilgan xladagentdangina foydalaning.

OGohlantirish!

Iqlimni nazorat qilish tizimiga malakali xodimlarga xizmat ko'ssatishlari kerak. Noto'g'ri xizmat ko'ssatilsa, u jarohat yetkazishi mumkin.


Normal sovutish

1. Sun'iy havoni hosil qilish rejimini yoqing.
2. Havoni to'g'rilash dastagini ko'k zonaga o'tkazing.
3. Havoni taqsimlash dastagini buring.
4. Havo yetkazib berilishini to'g'rilovchi dastagini talab etilgan tezlikka qo'ying.

SHAMOLLATISH TUYNUKLARI

Shamollatish tuynuklarining to'g'rilanadigan panjaralari

Muzlagich havo oqimi yetish masligi tufayli muzlab qolmasligi uchun sovutish yoqilganda hech bo'lmasa bitta shamollatish tuynugi ochiq bo'lishi kerak.



Markaziy teshik to'liq yopilmaydi.
Panjarani pastga va yonga qaratib, havo oqimi talab etilgan yo'naliishda chiqishini to'g'rilang.

Maksimal sovutish

1-tur




2-tur



Jazirama issiqda yoki avtomobil uzoq vaqt quyosha qolib ketganda salondagi havoni muzlatish uchun ishlataladi.

1. Sun'iy havoni hosil qilish tizimini yoqing.
2. **1-tur:** Qayta sirkulyatsiya qilish rejimiga kirish uchun havoni qayta sirkulyatsiya qilish rejimi dastagini o'ng tomonga o'tkazing.
- 2-tur:** Qayta sirkulyatsiya qilish rejimiga kirish uchun ushbu rejimni yoqish tugmasini bosing.
3. Haroratni to'g'rilash dastagini ko'k zona oxiriga olib boring.
4. Havo yetkazib berilishini to'g'rilovchi dastagini maksimal tezlikka qo'ying.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH



Yon tarafagi shamollatish tuynuklarini ochish uchun har bir teshikning qopqog'ini bosing va uni kerakli yo'nalishga buring.

Havo yuborilishi kerak bo'lmasa, dastagini soat miliga qarab buring.


⚠ OGOHLANTIRISH!

Havo chiquvchi panjaralarning to'siqchalariga hech qanday begona buyumlarni solmang.


Avariya sodir bo'lganda shikastlanish va jarohat yetkazish xavfi bor.

Harakatlanmaydigan shamollatish tuynuklari

Qo'shimcha shamollatish tuynuklari old oyna ostida va oldingi eshiklar oynalari ostida hamda oyoq taxmonlarida joylashtiriladi.



Havo olgich




Zarur miqdorda havo kirib kelishini ta'minlash uchun motor bo'limda old oyna oldida joylashgan havo oluvchi tuynulkarga hech narsa kirib qolmagan bo'lishi kerak. Undan barglar, chang va qorni olib tashlang.

Salon filtri

Avtomobil saloni uchun havo filtri


Filtr havo olgich orqali avtomobil saloniga kirib kelayotgan havoda mavjud bo'lgan chang, qorakuya, chang zarrasi, o'simliklarning urchish organlarini ushlab qoladi.



Filtrni almashtirish:

1. Qo'lqopli qutini olish.

Qo'lqopli qutini olish uchun uni oolib, tepaga og'diring.



2. Filtr qopqog'ini ko'taring va yeching.
3. Avtomobil saloni uchun havo filtrini almashtiring.
4. Filtr qopqog'ini va qo'lqopli qutini teskari tartibda o'rnatiting.

Izoh: Filtrni almashtirish uchun vakolatlangan servis-markazga murojaat qilish tavsiya etiladi.

⚠ DIQQAT!

Doimo chang va tosh yotqizilmagan yo'llarda yoki havo iflos sharoitlarda yurganda salondagi havo filtriga tez-tez xizmat ko'satish talab etiladi.
Filtrning samaradorligi pasayadi va bu nafas organlariga zarar yetkazadi.
Filtrning samaradorligi pasayadi va bu nafas organlariga zarar yetkazadi.

⚠ DIQQAT!

Tavsiya etilgan xladagentdangina foydalaning.

⚠ OGOLANTIRISH!

Iqlimni nazorat qilish tizimlariga malakali xodimlarga xizmat ko'satishlari kerak. Noto'g'ri xizmat ko'satilsa, u jarohat yetkazishi mumkin.

Konditionering normal ishlashi

Uning uzluksiz samarali ishlashini ta'minlash uchun uni bir oyda bir marta ob-havo va yil faslidan qat'i nazar bir necha daqiqaga yoqib qo'yish zarur. Tashqaridagi harorat past bo'lsa, sovutish tizimi ishlamaydi.

Xizmat ko'satish

Sovutishning maqbul parametrlarini saqlab turish uchun iqlimni nazorat qilish tizimini har yili tekshirish tavsiya etiladi.

- Funksiyalari bajarilayotganligini va germetik zichligini sinab ko'rish
- Qizita olayotganligini tekshirish
- Tuynuklar yo'qligini tekshirish
- Uzatma qayishlarni tekshirish
- Kondensator va bug'llatgich drenajini tozalash
- Ishlashga qodirligini tekshirish

7-10 IQLIM NAZORATINI BOSHQARISH ORGANLARI



ESLATMALAR

8

AVTOMOBILNI YURGIZISH VA BOSHQARISH

-
- HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR 8-2
 - ISHGA TUSHIRISH VA FOYDALANISH 8-2
 - ISHLATILIB BO'LGAN GAZLAR 8-4
 - AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI 8-4
 - QO'LDA SOZLANADIGAN UZATMALAR QUTISI ... 8-8
 - TORMOZ MEXANIZMLARI 8-9
 - OBYEKTLARNI ANIQLASH TIZIMI 8-11
 - YOQILG'I 8-12

HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR

Avtomobilni boshqarish

Dvigatel o'chirilganda nishablik bo'ylab harakatlanmang

Bunday holatda bir qator tizimlar ishlamaydi (masalan, rul boshqaruvi tizimi kuchaytirgichi). Mashinani bunday boshqarish o'zingiz va atrofdagilar uchun xavfli.

Pedallar


Pedallarning erkin yurishiga to'siq bo'ladijan narsalar, masalan, ular yaqinida gilamchalarining bol'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

ISHGA TUSHIRISH VA FOYDALANISH

Yangi avtomobilni chiniqtirish

- Foydalanimning yuqori darajali tavsiflarini saqlab qolish hamda avtomobilning xizmat ko'ssatish muddatini cho'zish uchun dastlabki bir necha yuz kilometr davomida quyidagi tavsiyalarga amal qiling:
 - Joyingizdan qo'zg'alayotganda akselerator pedalini oxirigacha bosmang.
 - Dvigateli haddan ziyod yuqori oborotlarda ishlashiga yo'l qo'y mang.
 - Favqulodda vaziyatlardan tashqari hech qachon keskin to'xtamang. Bu talablarga rioya etish tormozni to'g'ri ishga tushib ketishi uchun zarur.
 - Dvigateli buzilishdan saqlash va yoqilg'ini tejash uchun keskin start olmang, tezlikni oshirmang va yuqori tezlikda uzoq harakatlanmang.
 - Past uzatmali tezlanishlarda akselerator pedalini oxirigacha bosmang.
 - Boshqa transport vositalarini shatakka olmang.

O't oldirish qulfinida kalitning holati



0 (LOCK) (blokirovka): o't oldirilgan

1 (ACC) (aksessuarlar): o't oldirilgan, rul chambargi blokirovkada

2 (ON): o't oldirilgan

3 (START) (pusk): dvigatel ishga tushirilgan

XAVF-XATAR!

Harakat davomida o't odirish kalitini 0 yoki 1 holatiga burash man etiladi.


Avtomobilning barcha tizimlari va tormoz kuchaytirgichlar o'chadi, natijada esa avtomobilga, salomatlikka ziyon yetkazilishi, hattoki o'limga sabab bo'llishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Dvigatel o'chirilgan holatda kalitni 1 yoki 0 holatda uzoq vaqt qoldirmang.
Bu akkumulyator batareyasining o'chib qolishiga olib keladi.

Dvigateli ishga tushirish

Dvigateli o't oldirish kaliti yordamida ishga tushirish



- Kalitni 1 holatiga burang va blokirovkadan chiqarish uchun rul chambaragini ozroq buring.
- Qo'lda sozlanadigan uzatmalar qutisi: ilashma muftasini bosing
- Avtomatik uzatmalar qutisi:
Selektorni P yoki N holatiga keltiring.

- Akselerator pedalini bosmang.
- Ilashma va tormoz pedalini bosib turib, kalitni 3 holatiga burang.
Takror ishga tushirish oldidan yoki o'chirish uchun kalitni 0 holatiga keltiring.

⚠ DIQQAT!

Starterni 10 soniyadan ortiq vaqt uzuksiz ishlashiga yo'l qo'y mang.
Agar dvigatel yonmagan bo'lsa, takror urinish oldidan 10 soniya kuting.
Aks holda bu starterning ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

To'xtash

- Avtomobilni yengil yonadigan yuzalarda qoldirmang. Bunday holatlarda avtomobildan chiqqan yuqori harorlati gazlar yong'in keltirib chiqarishi mumkin.
- To'xtab turish tormozini tortganda fiksator tugmasini bosmang. Qiyalik bo'ylab tushish yoki chiqishlarda to'xtab turish tormozini imkon qadar kuchliroq torting. To'xtab turish tormoziga kuchni kamaytirish uchun bir vaqtning o'zida tormoz pedalini ham bosing.
- Dvigatel va o't oldirish tizimini o'chiring. Rul chambaragini blokirovka ishga tushguncha aylantiring.
- Agar avtomobil tekis yuzada yoki ko'tarilishda turgan bo'lsa, o't oldirish tizimini o'chirishdan avval birinchi uzatmani yoqing. Ko'tarilishlarda to'xtaganda old g'ildiraklarni yo'l chekkasidagi to'siqlar tomon burib qo'ying.
- Agar avtomobil tushish qiyaligida turgan bo'lsa, o't oldirish tizimini o'chirishdan avval orqa uzatmani yoqing. Old g'ildiraklarni yo'l chekkasidagi to'siqlar tomon burib qo'ying.
- Avtomobilni quflab, o'g'irlashga qarshi tizimni ishga tushiring.

ISHLATILIB BO'LGAN GAZLAR

⚠ XAVF-XATAR!

Dvigateldan ishlatilib chiqayotgan gazlar tarkibida rangsiz va xidsiz zaharli is gazi bo'lib, undan nafas olinsa, o'lim yuz berishi mumkin.

Ishlatib bo'lingan gazlar avtomobil saloniga kirib qolsa, oynalarni ochib yuboring.

Nosozlik sababini aniqlash uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilib, uni bartaraf eting.

Yukxona bo'lmini yopmasdan harakatlanish tavsiya etilmaydi, sababi bunda avtomobil saloniga ishlatilib bo'lingan zaharli gazlar kirib qolishi mumkin.

Katalitik neytralizator

Katalitik neytralizator ishlatib bo'lingan gazlar tarkibidagi zararli moddalar miqdorini kamaytiradi.

⚠ DIQQAT!

◊ 8–13-betlarda keltirilgan markaga to'g'ri kelmaydigan yonilg'ini quyish katalizatorning yoki avtomobilingizning boshqa qismlarini ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Yonmagan benzin qizib ketishi va katalitik neytralizatorga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun dvigatelni haddan ziyyod uzoq ishlatmang, yonilg'i bakiga namlik tushishiga yo'l qo'y mang va dvigatelni itarib yoki shatak yordamida ishga tushirmang.

O't olmaganda, dvigatel barqaror ishlagagan holatlarda, dvigatel quvvati pasayib ketganda yoki boshqa muammollar yuzaga kelganda, ularni bartaraf qilish maqsadida imkon qadar tezroq ustaxonalarga murojaat qiling. Juda zarur bo'lganda qisqa vaqt oralig'ida kichik tezlik bilan va dvigatelning past oborotlarida yurishga ruxsat etiladi.

AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI

Avtomatik uzatmalar qutisi – to'rt pog'onali, elektron boshqaruvga ega.
To'rtinchı uzatma – oshiruvchi hisoblanadi.

Joydan qo'zg'alish


1. Dvigatel qizib olgach tormoz pedalini bosing va ushlab turing hamda selektor dastagini R, D, 2 yoki 1 holatiga o'tkazing.

⚠ DIQQAT!

Avtomobil harakatda bo'lganda D (oldinga) va R (orqaga) yoki P (to'xtash) holatlarining biridan ikkinchisiga o'tmang.

Bu uzatmalar qutisining buzilishiga olib kelishi va jarohat yetishiga sabab bo'lishi mumkin.

2. To'xtash tormozi va tormoz pedalini qo'yib yuboring
3. Joydan qo'zg'alish uchun akselerator pedalini sekinlik bilan bosing.

Selektor dastagi

P (TO'XTASH): Old g'ildiraklar blokka tushadi. Faqat to'xtab turganda yoki to'xtash tormozi harakatga keltirilganda P holatiga o'ting.

R (ORQAGA YURISH): R holatiga faqat avtomobil to'xtab turganda o'ting.

N (NEYTRAL): Uzatmalar qutisining neytral holati.

D: (HAYDASH): Mazkur holat barcha normal harakat rejimlariga mo'ljallangan. Barcha to'rtta oldinga harakatlanish uzatmalariga o'tish imkoniyatini beradi. To'rtinchi uzatmaga o'tish orqali, dvigatel aylanmalari soni, shovqin darajasi va yoqilg'i sarfi kamayishiga erishiladi.

I (ORALIQLI): Mazkur holat normal harakatlanish uchun ham mo'ljallangan. U kichik nishabliklarda tushishda tezlanish vujudga kelsa avtomobilni tormoz tizimini jalb qilmasdan sekinlatish imkoniyatini beradi. Nishabliklarda harakatlanganda, quyi va yuqori uzatmalarga tez-tez o'tishga to'g'ri kelsa, mazkur holatni uzatmalarni qayta-qayta o'zgartirish noqulayligidan xalos qilish uchun ishlatalish mumkin. Nishabliklarda, o'nqircho'nqir yo'llarda, tirkama qo'shilgan holatlarda harakatlanganda hamda uzatmalarni kamroq o'zgartirish talab qilinganda D (Haydash) o'mniga I (Oraliqli) holatini tanlashningiz mumkin.

L (PASAYTIRILGAN): Mazkur holat 4 (To'tinchi), 3 (Uchinchi), 2 (Ikkinchi) va 1 (Birinchi) uzatmalarga o'tish imkonini beradi. Dvigatel bilan maksimal tormozlash imkoniyatini beradi, lekin yoqilg'i tejamkorligi D (Haydash) holatiga nisbatan kamroq. Undan tik nishabliklarda, qalin qorli yoki loyli yo'llarda foydalanishingiz mumkin. Agar uzatmani elektron o'zgartirgich L (Pasaytirilgan) holatni tanlasa, avtomobil yetaricha sekinlashmaguncha transmissiya quyi uzatmalarga o'tmaydi.

⚠️ DIQQAT!


Uzatmalar selektoriga o'tayotganingizda akselerator pedalini bosmang. Akselerator va tormoz pedalini hech qachon bir vaqtning o'zida bosmang.

Uzatma ishlab turganda, tormoz pedali qo'yib yuborilsa, avtomobil sekin harakatlana boshlaydi. P (to'xtash) holatidan to'xtash tormozi o'nida foydalanmang. Avtomobildan tushayotganda dvigateli o'chiring, to'xtash tormozi ishga tushiring va o't oldirish kalitini chiqarib oling. Hech qachon dvigetali ishlab turgan avtomobilni qarovsiz qoldirmang.

Uzatmalar diapazonini o'zgartirish

Diapazonlarni biridan ikkinchisiga almashtirish uchun o'tkazuvchi dastakning yonida joylashgan blokdan chiqarish tugmasini bosish talab etiladi.

Selektorni o'zgartirish uchun quyidagi yo'nalish ko'rsatkichlari (millar) belgisiga amal qiling.



O'zgartirish uchun blokdan chiqarish tugmasini bosing. Yo'nalish ko'satkichlari orqali blokdan chiqarish tugmasini bosish talab etilmaydigan diapazonlar ko'satilgan.



O'zgartirish uchun tormoz pedalini va blokdan chiqarish tugmasini bosing.
Blokdan chiqarish tugmasini bosish talab etiladigan diapazonlar yo'nalish ko'satkichlari bilan belgilangan.



Erkin o'zgartirish.

OGohlantirish!

Uzatmalar qutisini buzib qo'ymaslik uchun quyidagi qoidalarga rioya eting:

P yoki N holatidan R, D, I yoki L holatiga o'tishda akselerator pedalini bosmang.

Bu nafaqat uzatmalar qutisining buzilishiga, balki avtomobil boshqaruvini ham izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Imkon qadar D holatidan foydalanishga harakat qiling.

Avtomobil harakatlanayotganda P yoki R holatiga o'tish man etiladi.

Ko'tarilishlarda to'xtaganda avtomobilni akselerator pedalini bosish orqali ushlab turmang. Ishchi tormozdan foydalaning.

P yoki N holatidan R holatiga yoki oldinga yurish uzatmasiga o'tishda tormoz pedalini bosing.

Aks holda uzatmalar qutisining shikastlanishi yoki avtomobil bexosdan joyidan qo'zg'alib ketishi mumkin, bu esa haydovchining avtomobilni boshqarolmay qolishiga hamda salomatlikka, avtomobilga yoki boshqa mulkka ziyon yetkazilishiga sabab bo'ladi.

Dvigatel orqali to'xtash

Uzoq davom etadigan qiyaliklarda dvigatel orqali to'xtashda quyidagi amallarni bajaring:
Avtomatik uzatmalar qutisi uchun zarur holatlarda "I" yoki "L" uzatmalar diapazoniga o'ting.

Dvigatel orqali to'xtatish "L" diapazonida ancha samaraliroq. Ancha yuqori tezliklarda "L" uzatmalar diapazoniga o'tilsa avtomatik uzatmalar qutisida avtomobil tezligi pasaygunga qadar joriy uzatma saqlanib turadi. Dvigatel orqali odatiy to'xtash uchun "I" uzatmalar diapazoniga o'ting. Nisbatan samaraliroq sekinlashish uchun "L" diapazoniga o'ting.

Izoh: Davomli qiyaliklarda dvigatel orqali to'xtash tormoz mexanizmlarining xizmat muddatini uzaytirishga yordam beradi.

Agar avtomobil tigilib qolsa

Agar avtomobil tigilib qolsa, uni buksovka qilmang. Avtomobilni "tebratib" chiqarish mumkin lekin ehtiyyotkorlik bilan harakat qiling. G'ildiraklarning yuqori tezlikda buksovka qilinishi shinalarining shikastlanishiga, haydovchi va atrofdagilarning travma olishiga sabab bo'lishi mumkin. Uzatmalarni o'zgartirish qutisi yoki avtomobilning boshqa komponentlarining qizishiga olib kelishi mumkin. Agar avtomobilni 3 marta "tebratib"

chiqara olmasangiz, tashqi yordamga murojaat qiling.


Izoh:

Yanada kuchliroq tezlashish uchun akselerator pedalini oxirigacha bosing va uni shu holatda ushlab turing. Uzatmalar qutisi dvigatel oborotiga bog'liq ravishda nisbatan quyiroq uzatmaga o'tadi.

To'xtash

Tormoz pedalini bosib avtomobilni to'xtatgach, dastakni oxirigacha ko'tarib, to'xtab turish tormozini yoqing va o't oldirish kalitini chiqarib oling.

Uzatmalarni pasaytirish



Nosozlik

Nosozliklар yuzaga kelganda avtomatik uzatmalar qutisining signalizatori yoki nosozliklар signalizatori yonadi. Uzatmalar qutisi muayyan uzatmada bloklanadi va uni na avtomatik, na qo'l yordamida o'zgartirishning iloji bo'lmaydi.

Nosozliklар sababini texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida bartaraf eting.

Elektr ta'minotining uzilishi

Ta'minotda uzilish bo'lganda uzatmalar selektori dastagini P holatidan chiqarib bo'lmaydi.

Akkumulyator batareyasi o'chib qolganda dvigateli ishga tushirish simlari yordamida yurgizib yuboring.

Agar nosozlik sababi akkumulyator batareyasi bo'lsa, uzatmalar selektori dastagini blokdan chiqaring va o't oldirish qulfinidan kalitni oling.


Uzatmalar selektori dastagini blokdan chiqarish

Sizning avtomobilingiz uzatmalarni o'zgartiruvchi dastakni tormoz pedali (BTsI) orqali blokirovkalash tizimi bilan jihozlangan. Selektorni "P" (to'xtash) holatidan chiqarish


QO'LDA SOZLANADIGAN UZATMALAR QUTISI

oldidan mashinani o't oldiring va tormoz pedalini oxirigacha bosing. Mashina o't oldirilgan va tormoz pedali bosilgan holatda selektorni "P" (to'xtash) holatidan chiqarishning imkoniyati bo'limganda, quyidagi amallarni bajaring:


- 1.O't oldirish tizimini o'chiring.
- 2.Tormoz pedalini bosib ushlab turing va to'xtab turish tormizi dastagini ko'taring.



3. Qopqoqni oching.



4. Otvorytkani teshikka tiralguncha tiqing va selektorni "P" holatiga keltiring. Dvigatelni ishga tushiring va talab etilgan uzatmani yoqing. Selektorni "P" holatiga o'tkazishda u qayta bloklanadi.
5. Qopqoqni yoping.
6. Imkon tug'ilishi bilan avtomobilni ta'mirdan chiqaring.



Agar uzatmani yoqib bo'lmasa, dastakni neytral holatga keltiring, ilashma pedalini qo'yib yuboring va yana bosing; uzatmani yana bir bor yoqishga harakat qiling.

Ilashmani zaruriyat bo'lmasa bosmang. Harakat vaqtida ilashma pedalini to'liq qo'yib yuboring. Pedaldan oyoqni tirash uchun tayanch sifatida foydalanmang.

DIQQAT!

Qo'Ini doim uzatmalarni o'zgartirish dastagi ustida tutgan holda avtomobilni boshqarish tavsiya etilmaydi.

TORMOZ MEXANIZMLARI

Dvigatel orqali to'xtash

Qo'lda sozlanadigan uzatmalar qutisi uchun birin-ketin nisbatan quyi uzatmaga o'ting.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Qo'lda sozlanadigan uzatmalar qutisini bиро'ла 2 yoki undan ko'p pog'onaga pasaytirmang.

Bu uzatmalar qutisining buzilishidan saqlaydi yoki boshqaruvni izdan chiqishi hamda jarohatlanishning oldini oladi.

Izoh: Davomli qiyaliklardan tushishda dvigatel orqali to'xtashdan foydalanish tormoz mexanizmlarining xizmat muddatini uzaytiradi.

Tormoz tizimi ikkita mustaqil konturdan iborat. Agar tormoz tizimining bir konturi ishdan chiqsa, ikkinchi konturdan foydalangan holda, avtomobilni avvalgidek to'xtatish mumkin bo'ladi. Biroq bunda tormoz pedali keskin bosilgan holatdagina to'xtash mumkin. Buning uchun esa katta kuch talab etiladi. To'xtash yo'lli uzoqlashadi. Yo'lga tushishdan avval texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

⚠ DIQQAT!

Bitta tormoz konturi buzilgan holatda tormoz pedalini bosish uchun katta kuch talab etiladi va to'xtash masofasi uzayadi. Darhol tekshiruvdan o'tish va tormoz tizimini ta'mirlash uchun servis-markazga murojaat qiling. Maxsus ixtisoslashgan servis-markazlarga murojaat qilishni tavsiya etamiz. Agar tormoz pedalini bosganda pedalning yurishi me'yordan oshib ketsa, demak, tormoz tizimi ta'mirlashni talab etmoqda. Darhol servis-markazlarga murojaat qiling. Ixtisoslashgan servis-markazlarga murojaat qilishni tavsiya etardik.

⚠ DIQQAT!

Harakatlanish vaqtida oyog'ingizni tormoz pedali ustida tutmang. Bu tormoz mexanizmlari tarkibiy qismlarining tezroq eskirishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bu tormozni qizib ketishiga, natijada tormoz yo'llining uzayishiga va harakat xavfsizligining pasayishiga sabab bo'ladi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Chuqur ko'lmaklardan yurilganda, avtomobilni yuvgandan yoki tik qiyaliklarda keskin to'xtalgandan so'ng to'xtash samaradorligining vaqtincha pasayishi yuz beradi. Buni tormoz mexanizmlarida namlik mavjudligi yoki qizib ketish orqali izohlash mumkin. Qizish natijasida to'xtash samaradorligi vaqtincha pasayganda quyidagi amallarni bajaring:
Qiyalikdan tushishda quyi uzatmaga o'ting.
Davomli tormozlanishga yo'l qo'y mang.
Tormoz mexanizmlari tarkibiy qismlarida namlik mavjudligi sababli tormoz berish samaradorligi vaqtincha pasaygan holatlarda quyidagilarni bajaring:

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Orqadagi avtomobilarga nisbatan yo'l holatini baholang.
- Xavfsiz tezlikda hamda orqadagi va yonigizdagи avtomobillar orasidagi masofani ushlab turgan holda harakatlanishda davom eting.
- Me'yoriy tormozlanish tiklangunga qadar tormoz pedalini sekintlik bilan bosing.

Bloklanishga qarshi tormoz tizimi (ABS)

Bloklanishga qarshi tormoz tizimi (ABS) g'ildiraklar bloklanib qolishining oldini oladi. G'ildiraklarning bloklanishiga monandlik yuzaga kelishi bilan ABS tormoz bosimini tartibga keltilishni boshlaydi. Hattoki keskin tormoz berilganda ham avtomobilni boshqarish mumkin bo'ladi.

Tormoz pedalida seziladigan impuls bo'yicha hamda boshqarish jarayonida o'ziga xos tovush chiqarishiga ko'ra ABS tizimining boshqaruvga aralashivi sezildi.

Optimal to'xtash uchun pedalning tepib turishiga qaramay tormoz pedalini to'xtash jarayoni davomida to'liq bosilgan holatda ushlab turing. Tormoz pedalini bosayotgan kuchingizni kamaytirmang.

O't oldirilgandan so'ng avtomobil harakatga kelishi bilan qo'lda sozlanadigan kontakt qisqa tovush chiqarishi mumkin. Bu me'yoriy holat va ABSning ishga tayyorligini ko'rsatadi. Blokirovkaga qarshi tormoz tizimi indikatori (ABS) ➔ 4-13-betlarda berilgan.


Nosozlik

⚠ OGOHLANTIRISH!

ABS da nosozlik bo'lganda odatdagidan ko'ra keskin tormoz berilganda g'ildiraklar blokka tushib qoladi. Bunda ABS afzalliklaridan foydalaniib bo'lmaydi. Keskin tormoz berilganda avtomobil boshqaruvni yo'qotishi va yonga burilib ketishi mumkin.

Nosozlik sababini texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida bartaraf eting.

To'xtab turish tormozi



Fiksator tugmasini bosmasdan to'xtab turish tormozini kuch bilan torting. Tushishda yoki ko'tarilishda to'xtab turish tormozini maksimal kuch bilan tortish talab etiladi.

To'xtab turish tormozini o'chirib qo'yish uchun dastakni yengil ko'taring, fiksator tugmasini bosing va dastakni to'liq pastga tushiring.


To'xtab turish tormozini yoqishga talab etiladigan kuchni kamaytirish uchun uni tortayotgan vaqtida tormoz pedalini ham bosing.

OBYEKTLARNI ANIQLASH TIZIMI

Favqulodda to'xtashni yengillashtirish tizimi

Tormoz pedaliga tez va kuch bilan bosganda maksimal tormoz kuchi (to'liq to'xtash) avtomatik tarzda ishga tushadi.

To'liq tormozlanish zaruriyati bor ekan tormoz pedalini barqaror bosishda davom eting. Tormoz pedali qo'yib yuborilganda maksimal tormoz kuchi avtomatik tarzda pasayib boradi.



To'xtash joyida yordam ko'rsatish tizimi haydovchiga orqaga harakatlanishda yordam beradi: avtomobil ortida to'siq aniqlanganda tovush signali chiqaradi.

Tizim o't oldirish kaliti ON holatiga buralganda va uzatmalar qutisi selektori R holatiga keltirilganda avtomatik tarzda yonadi.

Avtomobil tezligi 5 km/s dan oshganda tizim o'chadi.

Selektor R holatga o'tkazilganda tovush signalining yonishi me'yoriy holatlarni anglatadi.

Bunda signal ogohlantirayotgan avtomobil bilan bo'siq o'rtaсидagi masofani aniqlash mumkin bo'ladi.

Bu signalni to'siggacha 40 sm qolganda eshitiladigan uzlksiz tovush signali bilan dashtirmang.

D/QQAT!

Navbatdagi signallarning mavjudligi to'xtash joyida avtomobilga yordam ko'rsatish tizimining nosozligini ko'rsatadi.

Orqa bamper yonida to'siqlar bo'lmasa, tovush signali ketma-ket 3 marta tovush chiqaradi. Dastlabki imkoniyat tug'ilishi bilan servis-markazga murojaat qiling. Ixtisoslashgan servis-markazlarga murojaat qilishingizni tavsya etamiz.

Tovush signali va harakat uzoqligi	Signalizatsiya
1- signal Orqa bamperdan taxminan 0,8-1,5 m (30-60 duym)	Ikkita gudok
2- signal Orqa bamperdan taxminan 80 sm (60 duym)	Tovush signali
Tovush signali va harakat uzoqligi	Signalizatsiya
Orqa bamperdan taxminan 20-40 sm (8-16 duym)	Uzlksiz

YOQILG'I**⚠ DIQQAT!**

To'xtash joyida yordam ko'rsatish tizimiga qo'shimcha funksiya sifatida qarash lozim. Haydovchi avtomobil orqasidagi sharoitni kuzatib turishi kerak.

Ogohlantiruvchi tovush signali obyektga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Ogohlantiruvchi tovush signali datchik muzlab qolganda yoki chang hamda g'uborlar bilan ifloslanganda ishlamasligi mumkin.

Datchik yuzasini bosmang va tirnamang. Bu qoplovchi qavatga zarar yetkazishi mumkin.

Notekis yo'lda harakatlanish davomida to'xtaganda yordam ko'rsatish tizimi ishlamasligi mumkin, masalan, o'rmonda, toshloqlarda yoki o'nqir-cho'nqir yo'llarda, qiyaliklarda.

To'xtash joyida yordam ko'rsatish tizimi o'tkir buyumlarni aniqlamasligi mumkin, qalin qishki kiyimlar va boshqa qalin va yumshoq materiallar radioti'lqinlarni yutib yuboradi.

⚠ DIQQAT!

Tashqi tovush signallari (metal shovqini yoki og'ir yuk mashinalari tormozining shovqini) yordam ko'rsatish tizimida uzilishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ifloslangan datchiklarni yumshoq mato yordamida toza suv bilan arting.

Tizim juda yaqin masofadagi (chamasi 25 sm) yoki taxminan 1 m uzoqlikdagi obyektlarni payqamasligi mumkin.

Albatta, orqa manzarani ko'sratuvchi oynaga yoki boshni burib orqaga qarang. Orqaga harakatlanayotganda oddiy xavfsizlik qoidalariiga rioxay etish zarur. Ziyon yetkazmaslik uchun datchiklarni bosmang va urib olmang, avtomobilni yuvayotganda yuqori bosimli suv oqimini datchiklar tomon yo'naltilmang.

⚠ DIQQAT!

Avtomobilning yuqori qismi datchik ishga tushgunga qadar urilib ketishi mumkin. Shuning uchun to'xtash yeriga joylashayotganda orqani ko'rsatish oynasiga qarash yoki boshni burib orqani tekshirish talab etiladi.

To'xtash yeriga joylashayotganda vertikal tafovutlar bo'lmaganda yordam ko'rsatish tizimi nuqsonisz ishlaydi.

Benzin dvigatellari uchun yoqilg'i.

Faqat etillashtirilmagan benzindan foydalaning. Sifati amaldagi Texnik reglamentga mos kelmaydigan yoqilg'iidan foydalinish dvigatelni ishdan chiqishiga va kafolatlarning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Monand tavsiflarga ega va etanol ulushi 10%dan oshmagan standart yoqilg'ilardan foydalinishga ruxsat beriladi.

Tavsiya qilinadigan oktan soniga ega benzindan foydalaning.

Dvigatel fo'yrisidagi ma'lumotlar ⇨ 11-3-betlarda keltiriladi.


Oktan soni yuqori bo'lgan benzindan foydalanganda dvigatel quvvati va aylanish lahzasi kamayadi va yoqilg'i sarfi oshadi.

⚠ DIQQAT!

Standartlarga monand bo`lмаган yoqilg'iidan foydalinish ko'p miqdorda qurum hosil bo'lishiga va dvigatelning ishlan chiqishiga hamda kafolat muddatini bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Oktan soni haddan ziyod past bo'lgan benzindan foydalinish uning betartib darajada yonishiga va dvigatelning ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Bakni yoqilg'i bilan to'ldirish**⚠ DIQQAT!**

Tegishli navdagi yoqilg'idan foydalanimaganda yoki yoqilg'iga turli sifatsiz qo'shimchalar qo'shilganda dvigatelga va katalitik neytralizatorga jiddiy zarar yetkazilishi mumkin.

Avtomobilga faqat mazkur avtomobil uchun mo'ljallangan yoqilg'i (benzin) quying. Benzin dvigatelia ega avtomobilni dizel yonilg'isi bilan to'ldirish avtomobilga jiddiy ziyon yetkazadi.

Xavfsizlik maqsadlarida kanistra, nasos va shlanglar tegishli ravishda himoya qilingan bo'lishi lozim. Statik elektr razryadi benzin

⚠ DIQQAT!

bug'larining yonib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa kuyishlarga va avtomobilga zarar yetkazilishiga olib keladi.

⚠ XAVF-XATAR!

Yoqilg'i quyishdan avval dvigateli va xususiy isitish kameralariga ega qo'shimcha isitgichlarni o'chiring.

Uyali telefonlarni o'chiring.

Elektr magnitli to'lqinlar va uyali telefonlarning toki ham yoqilg'i bug'larining alanganishiga olib kelishi mumkin.

Yoqilg'i engil yonadigan va portlash xavfi mavjud modda hisoblanadi. Chekmang, ochiq olovlarning va uchqun hosil bo'lishiga yo'l qo'y mang. Yoqilg'i quyishda yo'rqnoma va yoqilg'i quyish shoxobchalaridagi xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qiling.

Yoqilg'i baki qopqog'ini ochishdan avval yoki yoqilg'i quyuvchi pistoletga tegishdan oldin qo'ldan elektrostatik zaryadni statik zaryadlarni bartaraf etuvchi biror narsaga tegish orqali yo'qoting.

Yoqilg'i quyayotganda elektrostatik razryadni hosil qiluvchi hech bir ish qilmang, masalan, avtomobilga o'tirmang yoki undan chiqmang. Statik elektr zaryad yoqilg'i bug'larining yonib ketishiga olib keladi.

⚠ XAVF-XATAR!


Avtomobil salonida yoqilg'i hidi paydo bo'lishining nosozlik sababini texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida bartaraf qiling.



1. Dvigateli o'chiring.

2. Yoqilg'i bakining ustki qopqog'ining haydovchi o'rindig'ining chap old tomonidagi yerda joylashgan ochish dastagidan yuqoriga torting.

3. Yoqilg'i quyiladigan bak og'zidagi qopqoqni soat milliga qarshi tomonga burang. Shipillagan tovush eshitilishi bilan qopqoqni to'liq burash oldidan uning o'chishini kuting. Yoqilg'i bakining ochiladigan qopqog'i orqadagi o'ng yon panelda joylashgan.



4. Qopqoqni oching. Qopqoq avtomobilga biriktirilgan.
5. Yoqilg'i quyib bo'lgach qopqoqni joyiga o'rnatning. Uni shiq etgungacha soat mili bo'yicha aylantiring.
6. Yoqilg'i baki qopqog'ini zichlab burab yoping va ustki qopqoqni ham yoping.

Izoh: Agar sovuq havoda yoqilg'i bakining ustki qopqog'i ochilmasa, sekingina uni cherting. So'ngra yana bir bor urinib ko'ring.

⚠ DIQQAT!

To'kilgan yoqilg'ini darhol artib oling.

9

AVTOMOBILGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR

-
- UMUMIY MA'LUMOTLAR 9-2
 - AVTOMOBILNI TEKSHIRUVDAN O'TKAZISH 9-3
 - CHO'G'LANMA LAMPANI ALMASHTIRISH 9-14
 - ELEKTR ASBOBLAR 9-20
 - AVTOMOBIL ASBOB-USKUNALARI 9-26
 - G'ILDIRAK VA SHINALAR 9-26
 - QO'SHIMCHA AKKUMULYATOR BATAREYASINI ISHGA TUSHIRISH 9-33
 - AVTOMOBILNI BUKSIRGA OLİSH 9-35
 - AVTOMOBILNING TASHQI KO'RINISHINI PARVARISH QILISH 9-38
 - O'T O'CHIRGICH UCHUN JOY 9-40

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Qo'shimcha uskunalar va avtomobil turlari

Faqat asl nusxadagi va Sizning avtombilingizda qo'llashga ruxsat etilgan detal va qo'shimcha qurilmalardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Biz boshqa mahsulotlarni, hattoki ular rasmiy ravishda sertifikatlangan bo'lса-da, qo'llashni tavsiya etmaymiz va ularning ishonchli ekaniga kafolat bermaymiz. Elektr uskunalar tizimiga o'zgartirishlar kiritilishiga, masalan, elektron boshqaruv bloklarini modifikatsiyalashtirishga (dasturiy ta'minot komponentlarini o'zgartirish yoki modifikatsiyalashtirishga) ruxsat etilmaydi.



DIQQAT!

Avtomobilga o'zgartirishlar kiritmang. Bu avtombilning xizmat ko'rsatish sifatlariga, foydalanish muddatiga va xavfsizligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin, shunga bog'liq holda biror-bir muammolar yuzaga kelib qolsa, kafolat majburiyatları bekor qilinishi mumkin.

Avtomobilni saqlash

Uzoq muddat saqlash


- Avtomobilni bir necha oyga saqlab qo'yishda quyidagi amallarni bajaring:
- Avtomobilni yuving va mumlab qo'ying.
 - Motor bo'limida va avtombilning tag qismida mum qatlami borligini tekshiring.
 - Yoqilg'i bakini to'ldirib qo'ying.
 - Rezina zichlagichlarni tozalang va himoyalang.
 - Motor moyini almashiting.
 - Oynatozagich bakidan suyuqlikni chiqarib tashlang.
 - Korroziya (yemirilish)ga qarshi xususiyatlarni va sovitish suyuqligining sovuqqa chidamliligini tekshiring.
 - To'liq yuklash uchun mo'ljallangan bosimda shinalarga dani bering.
 - Avtomobilni quruq va shamollatiladigan yerga joylashtiring. Birinchi uzatma yoki orqaga yurish uzatmasiga qo'ying. Avtomobil sirpanib siljishining oldini oling.
 - To'xtab turish tormozini yoqmang.
 - Kapotni oching, barcha eshiklarni yoping va avtomobilni qulflang.
 - Avtomobil akkumulyator batareyasining manfiy tomonidagi qisqichni bo'shating. Barcha tizimlar, shu jumladan o'g'irlashga qarshi tizim ham o'chirilganiga ishonch hosil qiling.
 - Kapotni yoping.

Takror foydalanish

Avtomobildan takror foydalanmoqchi bo'sangiz:

- Avtombilning akkumulyator batareyasi manfiy qisqichini ulang. Elektr oynako'targichlarni yoqing.
- Shinalardagi bosimni tekshiring.
- Oynatozagich bakini to'ldiriting.
- Motor moyi sathini tekshiring.
- Sovitish suyuqligi miqdorini tekshiring.
- Zaruriyat bo'lса, raqam belgisini joyiga o'rnatting.

Texnik xizmat ko'rsatish ishlarini mustaqil bajarish



AVTOMOBILNI TEKSHIRUVDAN O'TKAZISH



OGOHLANTIRISH!

Motor bo'limida tekshiruv ishlarini faqat o't oldirish tizimi o'chirilgan holatda bajarishga ruxsat etiladi.

Radiator shamol purkagichi o't oldirish tizimi o'chganda ham ishlashi mumkin.




XAVF-XATAR!

O't oldirish tizimida juda yuqori kuchlanishdan foydalaniлади. Bu tugunlarga tegmang.


Kapot

Ochish


1-tur



2-tur




1. Ajratib turuvchi dastakni torting va uni boshlang'ich holatiga qaytaring.



2. Qulf tutqichini torting va kapotni oching.

⚠️ OGohlantirish!

Dvigatel sovib ulgurmagan bo'lsa, gubkasimon zinchlagichdan tashqari, kapot asosidagi hech bir qismiga tegmang.



3. Tayanch sterjenini tutqichidan sekingina chiqarib yuqoriga ko'taring. So'ngra uni dvigatel bo'limining chap qismidagi ilgakka ilib qo'ying.

Yopish

Kapotni yopishdan avval tayanchni tutqichga mahkamlab qo'ying.

Dvigatel kapotini pastga tushirganingizda qulfi ilinsin. Kapot yopilganini tekshirib ko'ring.

⚠️ OGohlantirish!

Quyidagi xavfsizlik choralariga albatta roya eting:

Harakatlanishdan avval kapotning old chekkasini tortib ko'rib, kapot mahkam yopilganini tekshiring.


Avtomobil harakatlanayotganda kapotning tirkama tutqichidan tortish man etiladi.

Kapot ochiq holatda avtomobilni harakatga keltirish taqiqlanadi. Ochiq kapot old manzarani to'sib qo'yadi.

Ochiq kapot bilan harakatlanish to'qnashuvga sabab bo'ladi, oqibatda esa avtomobilga yoki boshqa mulkka zarar yetkaziladi, jarohatlanish, hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin.


Motor bo'limining umumiy ko'rinishi

Benzin dvigateli 1.2 DOHC MT



1-tur

Benzin dvigateli 1.2 DOHC AT




1. Dvigatelni sovitish suyuqligi baki
2. Motor moyini quyish og'zi tiqini
3. Tormoz suyuqligi saqlanadigan idish
4. Akkumulyator batareyasi
5. Saqlagichilar bloki
6. Dvigatelning havo filtri
7. Motor moyi sathini o'lchaydigan asbob
8. Oynatozalagich suyuqligi idishi
9. Rui boshqaruvi kuchaytirgichining ishchi suyuqligi idishi*

Motor moyi


Uzoq yo'lga chiqishdan avval motor moyi sathini qo'lda o'lchash tavsija qilinadi

Tekshirish uchun avtomobil bir tekis maydonchada turgan bo'lishi lozim. Dvigatel ishchi haroratigacha qizdirilgan va tekshirishdan, kamida 5 daqiqa avval o'chirilgan bo'lishi kerak.

Moy o'lhash asbobini chiqarib oling va uni tozalab arting, idish tubiga taqalgunga qadar tiqing, tortib olib, moy sathini o'lchang.




Motor moyi miqdori **MIN** belgisiga qadar kamaygan bo'lsa, dvigatelga moy quying.



So'nggi marta quyilgan markadagi moydan foydalanim, to'ldirishinigizni tavsija etgan bo'lardik.

Motor moyi sathi moy o'lchash asbobida qayd etilgan **MAX** belgisidan oshib ketmasligi kerak.



Dvigatelning moy quyish og'zi qopqog'i taqsimlovchi val qopqog'ida joylashtirilgan.

D/QQAT!

Ortiqcha moyni to'kib tashlash yoki tortib olish zarur.

Yonilg'i, moylar quyish sig'imgari va yopishhqoqlik
 ⇨ Quyish idishlari va texnik tavsiflar 11-4 betlarda
 ⇨ Tavsija etiladigan suyuqlik va moylar 10-6-betlarda.

⚠ OGOLANTIRISH!

Motor moyi zaharli suyuqlik, uni yutib yuborganda zaharlanish yoki o'lism holati yuz berishi mumkin.

Motor moyini bolalar qo'lli yetmaydigan joyda saqlang.

Motor moyini muntazam yoki davomli tarzda teriga tegishidan saqlaning.

Motor moyi bilan ishlagandan so'ng terining ochiq joylarini sovun yoki maxsus tozalovchi vositalalar bilan yuvung.

Motor moyini to'kib tashlayotganda juda ehtiyoj bo'ling, sababi u qaynoq bo'lishi hamda kuydirishi mumkin!

Avtomat uzatmalar qutisi uchun suyuqlik

Avtomat uzatmalar qutisining me'yorida ishlashi va uzoq muddat xizmat ko'rsatishi uchun ishchi suyuqlik sathini talab darajasida ushlab turish kerak. Agar suyuqlik sathi juda kam yoki ortiqcha bo'lsa, nosozlikni yuzaga kelishi mugarrar.

Ishchi suyuqlik sathi dvigatel ishlab turganda va avtomat uzatmalar qutisi selektori P holatda turganda tekshiriladi. Dvigatel va uzatmalar qutisi me'yoriy ishchi haroratda bo'lishi kerak.

Avtomobil tekis maydonchada turgan bo'lishi lozim.

Unchalar uzoq masofa bosilmasa ham suyuqliknинг me'yoriy ishchi haroratiga ($70^{\circ}\text{C} \sim 80^{\circ}\text{C}$) erishiladi.

Avtomat uzatmalar qutisidagi suyuqlik miqdorini o'lchash

Agar avtomat uzatmalar qutisi suyuqligi ifloslangan yoki rangsizlanib ketgan bo'lsa, uni almashtiring.


Faqat ushbu yo'rqnoma madagi suyuqliklar jadvalida keltirilgan suyuqliklardan foydalaning. Suyuqlik sathining jadal kamayishi avtomat uzatmalar qutisidan suyuqlik chiqib ketayotganini anglatadi.

Suyuqlik chiqib ketayotganini aniqlasangiz, uni bartaraf etish uchun darhol servis-markazlarga murojaat qiling. Maxsus servis-markazlarga murojaat qilishingizni tavsiya etamiz.

⚠ DIQQAT!

Uzatmalar qutisidagi suyuqlikka g'uborlar yoki yot moddalar tushib qolmasligini doim nazorat qiling.

Ifloslangan suyuqlik avtomat uzatmalar qutisining jiddiy buzilishiga sabab bo'lishi va qimmatbaho ta'mirlash ishlarini talab qilishi mumkin.



1. Dvigateli ishga tushiring.
2. Avtomat uzatmalar qutisidagi ishchi suyuqlik harorati taxminan $70^{\circ}\text{C} \sim 80^{\circ}\text{C}$ ga yetguncha dvigateli qizdiring.
3. Selektor dastagini "P" holatidan "L" holatiga keltiriting va yana "P" holatiga qaytaring. Bir holatdan ikkinchisiga o'tkazishda uzatma to'liq o'chgunga qadar har bir holatda bir necha soniya kuting.
4. O'lchash asbobini chiqaring va artib tashlang.
5. Moy o'lchash asbobini shtutserga tiralguncha taping. Asbobni boshqa detallarga tegishidan asrang.
6. O'lchash asbobini yana tortib oling.
7. Asbobdagagi suyuqlikni ifloslanmaganiga ishonch hosil qiling.

 DIQQAT!


Moy o'lchash asbobini shtutserga tiralguncha taping. Asbobning boshqa detallarga tegishidan asrang.



8. Suyuqlik sathini o'lchang. Asbobdag'i suyuqlik sathi rasmida ko'satilganidek, **MIN** va **MAX** belgilari o'tasida bo'lishi kerak.
9. Suyuqlik sathi MIN belgisidan pastda bo'lsa, **MAX** belgisigacha suyuqlik quyib to'ldiring. **MAX** belgisidan oshirib yubormang.

 DIQQAT!

Ortiqcha suyuqlik avtomobilning xizmat ko'satish sifatlarini pasaytiradi. Avtomat uzatmalar qutisiga ortiqcha suyuqlik quymang. Bu uzatmalar qutisining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Dvigatelning havo filtri

1. Vintlarni burab bo'shating va qopqoqni oching.
2. Dvigatelning havo tozalagich filtrini tekshiring yoki almashtiring.
3. Qopqoqni yaxshilab joylashtiring va vintlarni burab qo'ying.

 DIQQAT!

Dvigatel me'yorida ishlashi uchun toza havo zarur. Havo filtri o'rnatilmagan avtomobildan foydalanmang. Havo filtri noto'g'ri o'rnatilgan avtomobilda yurish dvigatelning buzilishiga olib keladi.

Dvigateli sovitish suyuqligi

Mo'tadil mintaqali mamlakatlarda foydalaniladigan sovituvchi suyuqlarning muzlash harorati taxminan -35°C ga teng. Sovuq iqlimli mamlakatlarda foydalaniladigan sovituvchi suyuqlarning muzlash harorati taxminan -50°C ga teng. Antifrizni yetarli konsentratsiyada ushlab turing.

 DIQQAT!

Foydalanish uchun ruxsat berilgan antifrizni ishlating.

Sovituvchi suyuqlik hajmi

⚠ DIQQAT!

Sovituvchi suyuqlikning sathi juda pasayib ketsa, dvigatelning buzilishiga sabab bo'ladi.



Agar sovitish tizimi sovuq bo'lsa, sovituvchi suyuqlikning sathi quyilishi kerak bo'lgan darajadan yuqori bo'lishi mumkin. Agar suyuqlik sathi me'yordan kam bo'lsa, sovituvchi suyuqlikni kerakli satgacha to'diring.

⚠ OGOLANTIRISH!

Bak qopqog'ini ochishdan avval dvigatelning sovishini kuting. Bosimni astasekin kamaytirgan holda, qopqoqni ehtiyojkorlik bilan oching.

Mazkur model uchun ruxsat berilgan antifrizli distillangan suv solib me'yoriy sathga keltiring. Qopqoqni zichlab yoping. Antifriz konsentratsiyasini tekshiring va uni kamayib ketish sababini texnik xizmat ko'rsatish stansiyalariga murojaat qilgan holda bartarafteting.

Izoh: Sovituvchi suyuqlik sathi belgilangan minimal darajadan pasayib ketganda radiatorga mineralsizlantirilgan suv bilan fosfat antifrizdan 1:1 nisbatda soling.

Avtomobilni juda sovuq havoda saqlash maqsadida 40% suv va 60% antifriz nisbatidagi suyuqlikdan foydalaning.

⚠ DIQQAT!

Sovitish tizimiga vodoprovod suvi yoki noto'g'ri birikmalar aralashgan suvni solish tizimga zarar yetkazishi mumkin.

Sovitish tizimida vodoprovod suvi bilan metanol va boshqa spirtlar aralashtirilgan antifrizlardan foydalinish man etiladi.

Aks holda dvigatel qizib ketishi yoki yonib ketishi ham mumkin.

⚠ DIQQAT!

Sovitish suyuqligi xavfli modda hisoblanadi. Sovitish suyuqligi bilan muntazam yoki uzoq vaqt ishlashdan saqlaning.

Sovitish suyuqligi tegsa, teringizni va timoqlaringizni sovun bilan yoki maxsus tozalovchi modda bilan yuvung.

Sovitish suyuqligini bolalar qo'lli yetmaydigan joyda saqlang.


Sovitish suyuqligining teriga tegishi uni zararlanishiga, yutib yuborilgan holatda zaharlanish va hattoki o'limga olib kelishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Sovitish suyuqligini tavsiya etilganidan ko'p quymang.

Sovitish suyuqligini tez-tez quyish zaruriyatining yuzaga kelishi dvigatelning sovitish tizimida nosozlik mavjudligidan darak beradi.

Maxsus servis-markazlarga murojaat qilishni tavsiya etamiz.

Rul kuchaytirgichining ishchi suyuqligi *

Qopqoqni olib, shchupni oling.

Rul boshqaruvi kuchaytirgichining ishchi suyuqligi sathi **MIN** va **MAX** belgilari oralig'ida bo'lishi lozim.

Agar suyuqlik sati juda past bolsa, uning ustiga suyuqlik solib kerakli sathgacha yetkazing.

⚠ DIQQAT!


Hattoki ozgina ifloslanish ham rul boshqaruvi tizimining talab darajasida ishlamasligiga yoki umuman ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Idishning og'zi yoki suyuqlik miqdorini o'lchash asbobi orqali suyuqlik tarkibiga iflosliklar tushmasligini nazorat qilib turing, bak qopqog'ini zichlab yopib qo'ying.

⚠ DIQQAT!

Rul boshqaruvi kuchaytirgichi ishchi suyuqligining miqdori talab darajasidan kam bo'lsa, avtomobildan foydalanmang. Bu rul tizimi uzatmalarining buzilishiga sabab bo'lishi va juda qimmat ta'mirlash ishlarini talab qilishi mumkin.

⚠ OGohlantirish!

Suyuqlik miqdorining haddan ziyyod ko'p miqdori ham zararli bo'lib, bunda lak-bo'yoq qoplami rangining o'chib ketishiga va yong'inga sabab bo'lishi mumkin. Idishni juda ham to'latib yubormang. Dvigatelning yonishi jarohatlanishga, avtomobilga va boshqa mulkka zarar yetkazilishiga sabab bo'ladi.

Yuvish suyuqligi**⚠ DIQQAT!**

Harorat keskin pasayganda yoki harorat ko'sratkichlari juda past bo'lganda yuvish suyuqligining tarkibidagi antifrizning yetarli darajada bo'lishi uning himoyasini ta'minlab beradi.

Old oynani yuvish uchun mo'ljallangan suyuqlikni to'dirish uchun:

- Vodoprovod suvidan foydalanish man etiladi. Vodoprovod suvi tarkibidagi mineral moddalar oyna yuvish moslamasi teshiklariga tiqilib qolishi mumkin.
- Buning uchun maxsus tayyorlangan yuvish suyuqliklaridan foydalaning.
- Agar harorat manfiy bo'lsa, yetarli darajadagi sovuqqa chidamli muzlamaydigan suyuqlikdan foydalanish tavsiya qilinadi.

Tormoz suyuqligi**⚠ OGohlantirish!**

Tormoz suyuqligi zaharli va korroziyan keltirib chiqaradi. Uning ko'zga, teriga, matolarga va bo'yalgan yuzalarga tushishidan saqlaning.



Tormoz suyuqligi sathi MIN va MAX belgilari oraliq idajoylashgan bo'lishi kerak.

Tormoz suyuqligini to'dirishda juda ham ozodalikka rioxal qiling, chunki unga turli ifloslarning tushib qolishi tormoz tizimining ishdan chiqishiga olib keladi. Tormoz suyuqligining sarflanib ketish sababini texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida aniqlang.

Avtomobilning uchun faqat tavsija qilingan tormoz suyuqligi va ilashma suyuqlidan foydalaning. Tavsija etiladigan suyuqlik va moylar \Rightarrow 10-6-betlarda keltiriladi.

⚠ DIQQAT!

Tormoz suyuqligi idishining qopqog'ini ochishdan avval qopqoq atrofidagi joyni yaxshilab tozalab arting.

Tormoz suyuqligining ifloslanishi tizim ishining izdan chiqishiga sabab bo'ladi, bu esa qimmatbaho ta'mirlash ishlarni talab etadi.

Tormoz suyuqligining dvigatelga tushib qolishi natijasida yong'in kelib chiqish ehtimoli mavjud.

Idishni to'dirib yubormang.

Dvigatelning yonishi jarohatlanishga, avtomobilga va boshqa mulklarga ziyon yetishiga sabab bo'ladi.

⚠ DIQQAT!

Past sifatli tormoz suyuqligidan foydalanish tormoz tizimi ichki tarkibiy qismlarining korroziyasiga olib kelishi, natijada esa tormoz berish samaradorligi pasayib ketishi mumkin, bu esa o'z navbatida, xavfsizlik xatarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Faqat yuqori sifatli, sizning markadagi avtomobilning uchun tavsija qilingan tormoz suyuqligidan foydalaning. GM markasidagi tormoz suyuqligidan foydalanishni tavsiya etamiz.

⚠ DIQQAT!

Ishlatib bo'lingan tormoz suyuqligini maishiy chiqindilarga qo'shmang.

Avtomobildan chiqarilgan chiqindilarni sizning mintaqangizda ruxsat etilgan utilizatsiya qilish usullaridan foydalaning.

Ishlatib bo'lingan tormoz suyuqligi va uning idishlari juda ham xavfli. Ular salomatligingizga va atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin.

Tormoz suyuqligi agressiv modda bo'lib, terining va ko'z shilliq qavatining chiqishishiga olib keladi.

Tormoz suyuqligining teriga yoki ko'zga tushishidan saqlaning. Suyuqlik tushgan holatda zararlangan joyingizni sovun yoki boshqa yuvish vositalardan foydalanib, oqib turgan suvda yuvning

Akkumulyator batareyasi

Avtomobilda qo'rg'oshin-kislotali akkumulyator batareyasidan foydalaniladi. Avtomobilning akkumulyator batareyasiga alohida xizmat ko'rsatish talab etilmaydi, agar haydash uslubi orqali unga yetarli darajadagi zaryadlanish ta'minlab berilsa. Unchalar uzoq bo'limgan masofalarga yurilganda va dvigatel tez-tez ishga tushirilganda akkumulyator



zaryadsizlanishi mumkin. Tok iste'molchilaridan zaruriyat bo'lmaganda foydalanmang. Akkumulyator batareyasini maishiy chiqindilar bilan utilizatsiya qilmang. Ularni maxsus utilizatsiya punktlariga topshiring.

4 haftadan ziyod avtomobil haydalmasdan to'xtab turganda akkumulyator batareyasi o'chib qolishi mumkin.

Avtomobilning akkumulyator batoryasining manfiy tutashuvdag'i qisqichini yeching. Avtomobilning akkumulyator batareyasi tutashuvlarini o'chirib-yoqishdan avval o't oldirish tizimi o'chirilganini tekshiring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Portlash xavfining oldini olish uchun akkumulyatorga yonuvchan narsalarni yaqinlashtirmang. Akkumulyatorning portlashi avtomobilga ziyon yetkazishi hamda jiddiy jarohatlar va hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin.

Batareya tarkibidagi moddaning ko'zga, teriga va bo'yagan yuzalarga tushishining oldini oling. Bu suyuqlik tarkibida sulfat kislotasi mavjud bo'lib, u bevosita tekkan joy jiddiy jarohatlanadi. Elektrolit teriga tegsa, o'sha yerni zdulik bilan yaxshilab yuvинг va tibbiy yordam punktlariga murojaat qiling.

Akkumulyatori bolalar qo'lli yetmaydigan joyda saqlang.
Ochiq akkumulyatori engashtirmang.


Avtomobil akkumulyator batareyasini zaryadsizlanib qolishidan saqlash.

Avtomobil akkumulyator batareyasini zaryadsizlanishdan saqlash ⇨ 5-5-betlarda keltiriladi.



Ushbu belgilarni quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- Uchqunlar, ochiq olovdan foydalanish va chekish man etiladi.
- Doim ko'zlarni himoya qiluvchi vositalardan foydalaning. Portlash xavfi bor gazlar ko'zingizga ziyon yetkazishi va jarohatlanishga olib kelishi mumkin.
- Akkumulyator batareyasini bolalar qo'lli yetmaydigan joyda saqlang.
- Akkumulyator batareyasida sulfat kislotasi mavjud, u ko'zning ko'rish qobiliyatini yo'qotishga yoki kuchli kimyoiv kuyishlarga sabab bo'ladi.
- Qo'shimcha ma'lumotlarni foydalаниш yo'riqnomasidan olishingiz mumkin.
- Akkumulyator batareyasi yonida portlash xavfi mavjud gazlar bo'lishi mumkin.

Oynatozalagich cho'tkasini almashtirish

Oynatozalagich dastagini ko'taring.

Qisiladigan tugmani bosib, oynatozalagichini yeching.

Oynatozalagichlarning to'g'ri ishlashi atrof-manzaraning yaxshi ko'rinishini va harakatlanish xavfsizligini ta'minlab beradi. Oynatozalagich cho'tkalarini holatini muntazam tekshirib turing. Qattiq bo'lib qolgan, yorilgan, shikastlangan yoki haddan ziyod kirlanib ketgan oynatozalagichlarni almashtiring.

Old oynadagi yoki cho'tkadagi yot jismlar tozalash samaradorligini pasaytridi. Cho'tka yordamida chang-g'uborlar yaxshi tozalanmasa, old oynani yaxshi tozalovchi boshqa cho'tka bilan yoki yumshoq yuvish vositasi yordamida tozalab arting. Ularni suvda yaxshilab yuvib tashlang.

Zaruriyat bo'lsa, jarayonni takrorlang.

Oynadan silikon izlarini ketkazib bo'lmaydi. Shuning uchun old oynaga silikonli polirol surtmang, aks holda, oynada ko'rinishini yomonlashtiruvchi dog'lar yuzaga keladi.

Eritmalar, benzin, kerosin yoki bo'yoqni suyultiruvchi eritmalaridan oyna tozalovchi vosita sifatida foydalanmang. Ular agressiv moddalar hisoblanib, cho'tkalarga va bo'yalgan yuzalarga zarar yetkazishi mumkin.

CHO'G'LAMNA LAMPANI ALMASHTIRISH

O't oldirish tizimini o'chiring, tegishli chiroq o'chirgichni o'chiring yoki eshiklarni yoping. Yangi lampani faqat tayanch qismidan ushlang! Lampaning shishali kolbasini ochiq qo'llar bilan ushlamang.

Almashtirish uchun faqat shu turdagи lampadan foydalaning.

Fara lampalarini almashtirish ishlarini dvigatel bo'limida amalga oshirish talab etiladi.


Izoh: kuchli yomg'ir yoqqanda haydaganda yoki mashinani yuvgandan so'ng ba'zi chiroq uskunalari xiralashib qolishi mumkin.

Buning sababi chiroq asboblarining ichki va tashqarisidagi harorathning tafovut qilishidadir. Bu hodisa yomg'ir yoqqanda avtomobil ichidagi deraza oynalaridagi namlik kondensatsiyasiga o'xshash bo'lib, avtomobilda muammo borligini ko'rsatmaydi.


Agar chiroq asboblari ichiga suv kirib ketadigan bo'lsa, avtomobilni tekshiruvdan o'tkazish uchun maxsus servis-markazlarga murojaat qiling.

Faralar**Yaqinni va uzoqni yorituvchi faralar**


1. Ajratgichni lampadan uzing.



2. Himoya qopqog'ini oching.



3. Prujinali qisqichni bosing va uni ajratib oling.



4. Lampani aks ettiruvchi korpusdan chiqarib oling.

5. Yangi lampani qo'yishda uni aks ettiruvchi o'yiqlichasi tuziqchiga joylashtiring.

6. Lampani prujinali qisqich bilan mahkamlang.

7. Faraning himoya g'ilofini o'rnatiting va uni yoping.

8. Ajratgichni lampaga ulang.

Faralarni sozlash


Faralarning yorug'ligi faraning yuqori qismida joylashgan vintlar yordamida sozlanadi.

D/QQAT!

Faralarni sozlash zaruriyati yuzaga kelsa, bu tadbirni texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida amalga oshirish tavsiya qilinadi, sababi u xavfsizlik bilan bevosita bog'liq.

Gabarit fonarlar

1. Ajratgichni lampadan uzing.



2. Himoya qopqog'ini yeching.



3. Gabarit fonar lampasi patronini aks ettiruvchidan chiqarib oling.



4. Lampani inidan chiqaring.
5. Yangi lampani qo'ying.
6. Patronni aks ettiruvchiga joylashtiring.
7. Faraning himoya g'ilofini o'rnatib, uni yoping.
8. Ajratgichni lampaga ulang.

Tumanga qarshi fonarlar

Lampalar texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida almashtiriladi.


Tumanga qarshi fonarlarni sozlash

Tumanga qarshi fonarlar yorug'ligi faralarning yuqori qismida joylashgan vint yordamida sozlanadi.


D/QQAT!

Tumanga qarshi fonarlarni sozlash zaruriyat yuzaga kelsa, bu tadbirni texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida amalga oshirish tavsiya qilinadi, sababi u xavfsizlik bilan bevosita bog'liq.


Burilishning old ko'satkichlari




1. Lampa patronini soat miliga qarshi tomonga burang.



2. Lampa patronini ozroq ichkariga itarib, soat miliga qarshi tomonga burang, lampani yechib oling va almashtiring.
3. Patronni aks ettiruvchiga joylashtiring va uni soat mili bo'yicha burab mahkamlang.




1. Harikki vintni bo'shating.
2. Orqa fonar asosini yeching. Simlar joyidan siljib ketmasligini kuzating.



3. Orqa gabarit chiroq / stop-signal (1) Burilish ko'rsatkichi (2) Orqaga yurish chirog'i (yo'lovchi tomon) / tumanga qarshi orqa fonar (haydovchi tomon) (3)



4. Lampa patronini soat miliga qarshi burang.




5. Lampa patronini chiqarib oling. Lampani ozroq ichkariga bosib, uni soat miliga qarshi tomonga burang, chiqarib oling va yangisiga almashtiring.
6. Lampa patronini orqa fonar blokiga burab joylashtiring. Bog'lanish simini ulab qo'ying. Orqa fonar blokini kuzovga o'rnating va vintlarini mahkamlab burang. Qopqog'ini yoping va mahkamligichlarni qisib qo'ying.
7. O't oldiring va barcha fonarlarni yondirib, ularning ishlashini tekshiring.

Yonga burilish ko'rsatkichlari lampalari

1. Avtomobilning orqa qismi yo'nalishidagi burilish ko'rsatkichini bosing va burilish ko'rsatkichini yeching.
2. Lampa patronini soat miliga qarshi burang
3. Lampani patronidan chiqaring va uni almashtiring.
4. Burilish ko'rsatkichini aks tartibda o'rnating.

Markaziy yuqori stop-signal


Lampalar turi



1. Orqa qaytarma eshikni oching.
2. Ikkita vintni bo'shatib, lampa asosini yechib oling. Lampa asosini yechishdan avval simning shtepsel ajratgichini uzing.
3. Ikkita vintni burab, aks ettiruvchi blokni yeching.
4. Lampani patronning ichidan o'zingiz tomon tortib chiqarib oling.
5. Yangi lampani o'rnating.
6. Lampa korpusini joyiga o'rnating.

Yorug'lilik diodi


Lampalar texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida almashtiriladi.

Avtomobil raqamini yorituvchi lampa


1. Har ikki vintni bo'shating.
2. Simini tortmaslikka harakat qilib, lampa asosini chiqarib oling.
3. Lampani patronidan chiqaring va almashtiring.
4. Lampa patronini lampa asosiga qo'ying va soat mili bo'yicha burang.
5. Lampa asosini joylashtirib, uni otvyortka bilan burab mahkamlang.

Salonni yoritish

1. Plafonni yechib olish uchun yoqib-o'chirish moslamasining qarama-qarshi tomonini yassi tig'li otvyortka bilan ilib oling. Qirib yubormaslik uchun ehtiyyot bo'ling.
2. Lampani yechib oling.
3. Lampani almashtiring.
4. Yoritgich blokiga qayta joylashtiring.

Yukxona bo'limi yoritgichi

1. Lampa ustini otvyortka bilan ilib oling.
2. Lampani yeching.
3. Yangi lampaga almashtiring.
4. Fonarni o'mniga qayta joylashtiring.



ELEKTR ASBOBLAR

Ervuchan saqlagichlar

Yangi saqlagich ma'lumotlari avvalgi kuygan saqlagich ma'lumotlariga mos kelishi lozim. Akkumulyatorning musbat qisma (klemma)si ustidagi blokda asosiy saqlagichilar guruhi joylashtirilgan. Ularni almashtirish zaruriyati yuzaga kelsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Saqlagichni almashtirishdan avval muvofiq ulab-uzgichni va o't oldirish mexanizmini o'chiring.

Kuygan saqlagichni erib ketgan simi orqali yengilgina aniqlab olish mumkin. Saqlagich nima sababdon kuyganini aniqlamasdan turib, uni almashtirmang.

Bir qancha funksiyalar bir nechta saqlagichlar tomonidan ta'minlanadi.


Shuningdek, hech bir funksiyani bajarmaydigan saqlagichlar ham o'natalishi mumkin.

Saqlagichlarni chiqarib oluvchi qurilma

Saqlagichlarni chiqarib oluvchi qurilma motor bo'lmasidagi saqlagichlar blokida joylashgan.

Turli saqlagichlarni ularning tepe yoki yon qismida joylashgan ma'lumotlariga asoslanib chiqarib oling.

Motor bo'lmasidagi saqlagichlar bloki



Ervuchan saqlagichlar motor bo'lmasida joylashgan.

Qopqoq qulfinini chiqarib, qopqoqni tepaga ko'taring va yechib oling.

Izoh: Saqlagichlarning ba'zi tavsiflari sizning avtomoblingizga tegishli bo'lmasligi mumkin. Saqlagichlar blokini ko'zdan kechirayotganda markirovka jadvalchasiga e'tibor qarating.




OOGHLANTIRISH!

Asl GM saqlagichlarning texnik xususiyatlariaga mos kelmaydigan saqlagichlarni o'rnatish yoki ishlatalish xavflidir. Saqlagichlar ishlamay qolishi va yong'inga olib kelishi mumkin. Bu odamlarning jarohatlanishiga yoki o'llimiga olib kelishi mumkin, shuningdek, avtomobilga shikast yetishi mumkin.

1 Tur

No Sxema

1. Yoqilg'i nasosi
2. Gabarit fonarlar relesi
3. Ventilyatorni past oborotlarga o'tkazish relesi
4. Ventilyatorning yuqori oborotlari
5. Konditsioner
6. Ventilyatorni yuqori tezlikka o'tkazish relesi
7. Havoni bir xilda saqlash relesi
8. ABS2
9. To'xtash chirog'i, chap
10. To'xtash chirog'i, o'ng
11. Tumanga qarshi old fonar
12. Ventilyatorning past oborotlari
13. ABC1
14. Tumanga qarshi old fonar relesi
15. Yoqilg'i nasosi relesi
16. Zaxira saqlagich




17. Uzoqni ko'rsatuvchi asosiy fonarlar relesi
18. Uzoqni yorituvchi asosiy faralar
19. Yaqinни yorituvchi chap asosiy fara
20. Yaqinни yorituvchi o'ng asosiy fara
21. Zaxira saqlagich
22. Zaxira saqlagich
23. O't oldirish holati 2 / starter
24. O't oldirish holati 1 / qo'shimcha qurilma
25. Avariya yorug'lik signali
26. Tovush signali
27. Yaqinни yorituvchi asosiy faralar relesi
28. Tovush signali relesi

29. Dvigatel bosh relesi
30. O't olish mexanizmi
31. EMS1
32. EMS2
33. Asboblar paneli batareyasi
34. -
35. Old oyna
36. Old oyna relesi
37. Dvigateli boshqarish bloki
38. -
39. Zaxira saqlagich

2 Tur

1. Old oynani yuvish moslamasi
2. Old oynani yuvish moslamasi relesi
3. Orqa oynani yuvish uchun orqa moslama relesi
4. Ovozli signal
5. Sovutish shamollatgichining yuqori aylanish tezligi
6. Sovutish shamollatgichining past aylanish tezligi
7. Bloklashga qarshi tormoz tizimi 1
8. Ovozli signal
9. -
10. -
11. Zahira saqlagich
12. Shamollatgichning yuqori tezligi
13. Oldingi tumanga qarshi chiroq'i
14. Chap uzoq yoritish farasi
15. O'ng uzoq yoritish farasi
16. Shamollatgichning past tezligi
17. Bloklashga qarshi tormoz tizimi 2
18. -
19. Zahira saqlagich
20. Oldingi tumanga qarshi chiroqlar relesi
21. Uzoqni yoritish asosiy chiroqlar relesi
22. Yonilg'i nasosi relesi
23. -
24. Zahira saqlagich
25. Bloklashga qarshi tormoz tizimi 3
26. ESUD2





27. Benzin parlarini yutgich
 28. Yonilg'i nasosi
 29. Old oyna tozalagichi
 30. Old oyna tozalagichi boshqaruvi relesi
 31. Zahira saqlagichi
 32. Starter
 33. O'toldirish
 34. ESUD1
 35. -
 36. -
 37. Old oyna tozalagichi tezligining relesi
 38. -
 39. Ishga tushurish relesi
 40. Dvigatel relesi
 41. O'toldirish relesi
42. Interyerning elektr markazi
 43. -
 44. Havoni konditsionerlash relesi
 45. Konditsioner
 46. ECM/TCM 1
 47. ECM/TCM 2
 48. Vakuumli almashlab ulagich
 49. Avariyaivi ogohlantiruv chiroqlari
 50. Oynalarni isitish
 51. Orqa oyna parlanishiga qarshi uskuna
 52. Saqlagichlarni olgich
 53. -
 54. Kuchlanish datchigi
 55. Orqa oynani yuvish moslamasi
 56. Orqa oynani yuvish moslamasi relesi
 57. Orqa oyna parlanishiga qarshi uskuna relesi

Yordamchi saqlagichlar bloki

Yordamchi saqlagichlar bloki avtomobilning haydovchi tomonida, akkumulyator batareyasi yonida joylashgan.


Saqlagichlarni tekshirish uchun qopqoqning chetki qismini bosing va qopqoqni ko'taring.






1. Rul elektrokuchaytirgichining relesi
2. Kunduzgi yoritish chirog'i (o'ng)
3. Kunduzgi yoritish chirog'i (chap)
- 4.-
5. Rul boshqaruvi elektrokuchaytirgichi elektromotorining saqlagichi.

Asboblar panelidagi saqlagichlar bloki




1-tur




2-tur

Saqlagichlarning ichki bloki haydovchi tarafidagi asboblar paneli ostida joylashtirilgan.



1. Saqlagichlar paneli eshigini uning ustki qismidan ushlab oching.



2 . Panel qopqog'ini diagonal bo'yicha siljитib yeching.


1-tur

1	2	3	4	5
6	7	8	9	10 11
12	13		14	15
16	17		26	18
19	20		21	22
23		24		25

No Sxema

1. Orqa oyna tozalagichi
2. Ko'zgu / orqa manzara tashqi ko'zgusi
3. Fara
4. Elektron tartibga solinadigan orqa ko'rinish tashqi ko'zgusi
5. Eshik qulfi
6. Old oyna tozalagichi
7. -
8. Orqaga yurish fonarları
9. Burilish ko'rsatkichlari
10. Orqa oyna terlashiga qarshi uskuna
11. Tumanga qarshi orqa faralar
12. Asboblar to'plami
13. Ventilyator dvigateolini boshqarish moduli

14. Xavfsizlik yostig'i
 15. O'g'irlashdan himoya / ma'lumotlar uzatish kanali ulagichi
 16. Uzatmalar qutisi boshqaruv bloki
 17. Orqa elektron oynako targichlar
 18. Radiopriyomnik / kalitsiz masofadan boshqarish/masofadan boshqarish
 19. Dvigatelni boshqarish bloki (ECM) / o'g'irlashdan himoya
 20. Qizdiruvchi gilamcha
 21. Sigaret yondiruvchi
 22. Stop-signal
 23. Starter
 24. Radiopriyomnik / soat / kalitsiz masofadan boshqarish
 25. Xavfsizlik yostig'i
 26. Salon yoritgichi



No Sxema

1. -
 2. -
 3. Havo iqlimini boshqarish almashlab ulagich
 4. O'rindiqlarni isitish
 5. -
 6. Shamollatgich
 7. Kuzovning boshqaruv bloki 4
 8. Kuzovning boshqaruv bloki 5
 9. Kuzovning boshqaruv bloki 7
 10. Asboblar paneli
 11. -
 12. Xavfsizlik yostiqchasi
 13. Radio
 14. -
 15. Orqaga harakatlanish chirog'i
 16. Kuzovning boshqaruv bloki 1
 17. Kuzovning boshqaruv bloki 2
 18. Kuzovning boshqaruv bloki 3
 19. Kuzovning boshqaruv bloki 6
 20. Kuzovning boshqaruv bloki 8
 21. Iqlimi boshqarish
 22. Ma'lumotlar uzatish kanali uyasi
 23. Mantiqiy ishga tushurish datchigi
 24. Tashqi orqaga qarash ko'zgusi
 25. Zahira saqlagich
 26. -
 27. -
 28. Asboblar paneli
 29. Xavfsizlik yostiqchasi

30. Orqa elektr oyna ko'targichi
31. Oldingi elektr oyna ko'targichi
32. Sigaret tutatgich
33. -
34. O'toldirish relesi
35. Mantiqiy holat relesi
36. Qo'shimcha quvvat relesi
37. -
38. Radio
39. Iqlimni boshqarish
40. -
41. Zahira saqlagich
42. Zahira saqlagich
43. Zahira saqlagich
44. Zahira saqlagich
45. Zahira saqlagich
46. Zahira saqlagich

⚠ DIQQAT!

Ko'rsatilgan bazi rele va saqlagichlar sizning avtomobilingizda bo'lmasligi mumkin.

AVTOMOBIL ASBOB-USKUNALARI

Asboblar

Shinalarni ta'mirlash to'plami bilan jihozlangan avtomobillar

Shinalarni ta'mirlash uchun mo'ljallangan to'plam va haydovchi asbob-uskunalari yukxona bo'limidagi gilamcha ostidagi qutida saqlanadi

Zaxira g'ildirak bilan ta'minlangan avtomobil

Domkrat va asbob-uskunalar yukxona bo'limidagi zaxira g'ildirak ostidagi qutiga yolashtirilgan.



To'lq o'lchamli zaxira g'ildirak 9-33 betlarda.

G'ILDIRAK VA SHINALAR

G'ildirak va shinalar holati

Yo'l chekkasiga sekinlik bilan va imkon qadar to'g'ri burchak ostida chiqing. O'tkir narsalarni bosganda shina va g'ildiraklarga zarar yetkazish mumkin. To'xtash joylarida shinalarini to'siqlarga tirkamang.

G'ildiraklarni muntazam ravishda tekshirib turing. G'ildiraklarga shikast yetkazilganda yoki ular eskirib ketganda yordam so'rab texnik xizmat ko'satish stansiyalariga murojaat qiling.

Qishki shinalar

Qishki shianalar 7°Cdan past haroratlarda haydash xavfsizligini oshiradi va ular barcha g'ildiraklarga o'matilishi lozim.

Shinalar markirovkasi

Misol, **215/60 R 16 95 H**

215: shina kengligi, mm

60: ko'ndalang kesim mutanosibligi (balandlikni kenglikka nisbati), %

R: Tur: radial

RF: Tur: RunFlat

16: g'ildiraklar diametri, duym

95: shinaga tushadigan ruxsat etiladigan og'irlik indeksi; masalan, 95 – 690 kg ga ekvivalent

H: Tezlikni kodli harfi

Tezlikni kodli harfi:

Q: 160 km/s gacha

S: 180 km/s gacha


T: 190 km/s gacha

H: 210 km/s gacha

V: 240 km/s gacha
W: 270 km/s gacha

Shinalardagi havo bosimi

Sovuq shinalardagi havo bosimini har ikki haftada va uzoq yo'lg'a chiqishdan avval tekshiring. Zaxira g'ildirakdagi havo bosimini ham tekshirish yodingizdan ko'tarilmasin. Ventil qopqog'i ni burang.



Shinalardagi bosim 11-5-betlarda va haydovchi eshigi o'rnidagi jadvalchada. Havo bosimi to'g'risidagi ma'lumotlar sovuq shinalar uchun keltirilgan. Ular ham yozgi, ham qishki shinalar uchun xos.

Zaxira g'ildirak shinasini to'liq yuklangan avtomobil uchun belgilangan bosimgacha havo bilan to'ldiring.

Shinalardagi ECO bosim yoqilg'ining minimal darajadagi sarfini ta'minlab beradi.

Shinalardagi noto'g'ri bosim harakatlanish xavfsizligini pasaytiradi, boshqaruvni yomonlashtiradi, qulaylikni, yoqilg'i tejamkorligini kamaytiradi, shinalarning tez eskirishiga sabab bo'ladi.

⚠ OG AHLANTIRISH!

Haddan ziyod past bosim shinalarning qizib ketishiga va ularni ichki shikastlanishiga olib kelishi, bu esa o'z navbatida, shina qoplamasining qatlamlanishiga, yuqori tezliklarda esa hattoki shinalarning yorilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ OG AHLANTIRISH!

Mos kelmagan shinalarni yoki disklarni o'rnatish avariyaiga olib kelishi mumkin, va ushbu turdag'i avtomobidan foydalanish ruxsatnomasi bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

⚠ OG AHLANTIRISH!

Juda past havo bosimiga ega shinali avtomobilda harakatlanish shinalarning haddan tashqari qizib ketishiga, bu esa shinalar shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Shinadagi havo bosimi pastligi yoqilg'i sarfini oshiradi, shinalar qoplamasini xizmat muddatini kamaytiradi va avtomobil boshqaruviga va tormozlash ishlariiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

⚠ OG AHLANTIRISH!

Avtomobilda avvaliga o'rnatilgan shinalardan va g'ildiraklardan o'lchami va turi farq qiladigan shinalar va g'ildiraklardan foydalanmang. Bu avtomobilning xavfsizligiga va foydalanish xususiyatlarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bu shuningdek boshqarishning yo'qolishiga yoki ag'darilishga, va jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin. Shinalarni almashtirish paytda, to'rta o'rnatiladan shinalar va g'ildiraklarning barchasida o'lchamli, turi, protektor naqshining chuqurligi, ishab chiqaruvchisi va yo'l qo'yiladigan yuklanishi bir xil bo'lishini nazorat qiling. Boshqa har qanday o'lchamdag'i yoki turdag'i shinalardan foydalanish harakatlanish, boshqarish xususiyatlari, yo'l izi, tormoz yo'lli, kuzov va g'ildirak orasidagi tirkish ko'rsatkichlarini va spidometrning ko'rsatmasi ishonchliigini jiddiy tarzda yomonlashtirishi mumkin.

⚠ OG AHLANTIRISH!

Mos kelmagan g'ildirak qalpoqlardan va shinalardan foydalanish havo bosimining to'satdan kamayishiga va shu bilan bog'liq avariyaiga sabab bo'lishi mumkin.

Protektor chuqurligi

Protektor chizmalarini chuqurligini muntazam ravishda tekshirib turing. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan shinani protektor chuqurligi 2-3 mm (qishki shina uchun 4 mm) bo'lgingda almashtirish lozim. Avtomobilidan xavfsiz foydalanishni ta'minlash maqsadida bitta mostdagi g'ildiraklar shinalarini protektori balandligi bir-biridan 2 mm dan ortiq farq qilmasligi lozim.

O'rnatilgan qoidalarga asosan protektor chizmalarining minimal chuqurligi (1,6 mm) eskirish indikatorining namoyon bo'lishiga mutanosib keladi. Indikatorlarning o'rni pokrishkaning yonida belgilanadi.

Agar old g'ildiraklar orqa g'ildiraklarga nisbatan ko'proq eskirgan bo'lsa, g'ildiraklarning o'rni



almashtiring. Bunda g'ildiraklarning aylanish yo'nalishi o'zgarishsiz qolsin. Shinalaridan

foydalaniimganda ham ular eskiradi. Biz pokrishkalar to'plamini har 6 yilda almashtirishni tavsiya etamiz.

Shinalar o'rni almashtirish

Shinalar bir tekisda eskrishi uchun har 12 000 km da ularning o'rni o'zaro almashtirib turish lozim.

Eng muhim almashtirish – birinchisi.


Agar siz muddatidan avval eskrishni sezсангиз, darhol shinalar o'rni almashtiring, shuningdek, g'ildiraklarning og'ish-tushishini tekshiring.

Bundan tashqari shina va g'ildiraklarga shikast yetkazilmaganini tekshiring.

Shinalarni mana shu sxemada keltirilgan tartibda almashtiring. Shinalarni almashtirishda zaxira g'ildirakdan foydalanmang. Shinalar o'rni almashtirigandan so'ng ularga shinalar va ularga ruxsat etilgan tushadigan og'irlik to'grisidagi ma'lumotnomada keltirilgan old va orqa g'ildiraklar uchun tavsiya etilgan bosimgacha dam bering.

Shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimini bekor qiling.

G'ildiraklarning gaykalari to'g'ri tortilganini tekshiring.



OGOHLANTIRISH!

G'ildiraklar yoki ular mahkamlanadigan detallardagi zang va g'uborlar vaqt o'tishi bilan g'ildiraklar gaykalarining zaiflashuviga olib keladi. Natijada g'ildiraklar tushib ketishi, bu esa avariyaga sabab bo'lishi mumkin. G'ildiraklarni almashtirayotganda avtomobilga g'ildiraklarni mahkamlash joylarini zang va ifoslardan tozalab tashlang. Favqulodda holatlarda mato yoki qog'oz salfetkalardan foydalanish mumkin, biroq odatda barcha korroziya va ifoslardan tozalash uchun kurakcha va cho'tkalardan foydalanish talab etiladi.

G'ildiraklarni yangisiga almashtirish yoki o'rnnini o'zgartirgandan so'ng g'ildiraklar gupchagi o'tasiga korroziya yoki zanglashning oldini olish uchun g'ildiraklar podshipniklari uchun mo'ljallangan moylardan surtish kerak bo'ladi. Yassi tayanch yuzaga, shuningdek g'ildiraklarni mustahkamlaydigan gayka va boltlarga moy surtmaslik kerak.

Boshqa o'lchamlardagi shina va g'ildirak diskлari

Agar shinalar o'lchamlariga ko'ra asl nusxalaridan farq qilsa, spidometri qayta dasturlashtirishni, shinalaridagi havo bosimining minimal miqdorini o'zgartirishni va avtomobilga boshqa o'zgartirishlar kiritishni talab etish mumkin.

Boshqa o'lchamdagи shinalar o'rnatilgandan so'ng shinadagi bosimlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadvalchani ham o'zgartiring.

OGOHLANTIRISH!

Muvofiq kelmaydigan shina va diskлarni o'rnatish natijasida avariya kelib chiqishi va avtomobildan foydalanish ruxsatnomasi bekor qilinishi mumkin.

OGOHLANTIRISH!

Avtomobilda dastlab o'rnatilgan shina va diskлardan o'lchamlari va turiga ko'ra farq qiluvchi shina va diskлardan foydalanmang. Bu xavfsizlikka va avtomobildan foydalanish tavsiflariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu shuningdek boshqaruvni yo'qotishga yoki jiddiy jarohatlanishlar keltirib chiqaruvchi ag'darilishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shinalar ni almashtirayotganda o'rnatilayotgan to'rtta shina va g'ildiraklar bir xil o'lchamga, turga va protektor chizmalari chuqurligiga, ishlab chiqaruvchiga va ruxsat etiladigan o'rilklarga ega bo'lishi ustidan nazorat qilish kerak.

Har xil o'lchamdagи hamda turdagи shinalaridan foydalanish haydash tavsiflarini, boshqaruvni, yo'l yoritigichlarini, tormoz yo'llini, kuzov bilan g'ildiraklar o'tasidagi oraliqni va spidometr ko'rsatkichlarining ishonchligini jiddiy tarzda yomonlashtiradi.

G'ildiraklar qalpoqlari

Muvofiq avtomobil uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlangan va shina hamda g'ildiraklarning ko'zda tutilgan uyg'unligiga nisbatan barcha talablarni qondira oladigan g'ildiraklar qalpoqlaridan foydalanish zarur.

Agar ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlanmagan shina va qalpoqlar qo'llaniladigan bo'lса, shinalarida g'ildiraklar gardishini himoya qiladigan qalinliklardan foydalansmaslik kerak.

G'ildiraklar qalpoqlari tormozning sovishiga xalal bermasligi lozim.

OGOHLANTIRISH!

Muvofiq kelmaydigan shina va g'ildiraklar qalpoqlaridan foydalanish shinalaridagi bosimning to'satdan pasayib ketishiga, bu esa o'z navbatida, avariya olib kelishi mumkin.

G'ildiraklar og'ish-tushish (sxod-razval) holatini muvozanatlashtirish va sozlash

G'ildiraklarni o'rnatish burchaklarini sozlash va shinalar ni muvozanatlashtirish shinalarining maksimal xizmat muddatini ta'minlash va eng maqbul tortish-tirkash tavsiflariga ega bo'lish maqsadida ishlab chiqaruvchi zavodida bajariladi. Muntazam ravishda g'ildiraklarni o'rnatish burchaklarini sozlash va shinalar ni muvozanatlashtirish bo'yicha takroriy sozlash ishlari talab etilmaydi.

Avtomobilingizning rul boshqaruvi tizimi va osmasi transportirovkadan so'ng tiklanishi va sizning haydash maqomingizga hamda tashiladigan yuklar va yo'lovchilar miqdoriga moslashtirilishi lozim. GM yangi avtomobilda rul boshqaruvi muvozanatini tekshirishdan avval 800 kilometrdan ziyod yurishni tavsiya etadi.

Yo'l qoplamasiga bog'liq ravishda biroz chap yoki o'ngga og'ishish va boshqa bir qator xususiyatlar, masalan, izlar me'yoriy holatdir. Agar avtomobil harakatlanayotganda ancha chetga og'ishib ketishi kuzatilsa yoki shinalar haddan ziyyod eskirib ketsa, g'ildiraklarni o'rnatish burchaklarini sozlash uchun servis-markazlarga murojaat qilish kerak bo'ladi. Agar tekis yo'lda harakatlanayotgan avtomobilda vibratsiya yuzaga kelsa, shina va g'ildiraklarni qayta muvozanatalashtirish talab etiladi. Chevrolet vakolatlari servis-markazlariga diagnostika o'tkazish uchun murojaat qiling.

G'ildirak disklarini almashtirish

Turli shinalardan foydalanganda avtomobilni boshqara olmay qolishingiz mumkin.

Har xil hajmdagi yoki turdag'i shinalardan, har xil firmaning shinalardidan (radial va radial-diagonal) foydalansila, avtomobil buzilib qolishi va bu yo'l-transport hodisasiiga olib kelishi mumkin.

Har xil hajmdagi yoki turdag'i shinalardan, har xil firmaning shinalardidan foydalinish ham avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Barcha g'ildiraklarga faqat to'g'ri keladigan hajmdagi va turdag'i shinalarni hamda ishonchli firmaning shinalarini o'rnating.

Quyidagi tayyorlov ishlarini bajering hamda quyidagi ko'rsatmalarga amal qiling:

- Avtomobilni harakatlanayotgan joydan yetarlicha uzoq bo'lgan masofada joylashtiring.
- Avtomobilni tekis, mustahkam va sirpanchiq bo'limgan yuzada qoldiring. Oldingi g'ildiraklar to'g'riga qaratilgan bo'lishi kerak.
- Avtomobilni ushlab turuvchi tormozni hamda oldinga yoki orqaga yurish o'tkazmasini ulang.
- Dvigatelni o'chiring va o't oldirish kalitini chiqarib oling.
- Halokat yorug'lilik signalizatsiyasini yoqing.
- Almashtirilayotgan g'ildirakka diagonal yo'nalishda joylashgan g'ildirakning oldiga va orqasiga pona, chorqirra narsa yoki tosh yo'ying.
- Avtomobilidan barcha yo'lovchilarni tushuring.
- Bir vaqtning o'zida bir nechta g'ildirakni almashtirish qat'yan taqiqlanadi.
- Yozgi shinalarni qishqi shinalarga yoki qishki shinalarni yozgi shinalarga almashtirish uchun emas, balki balon teshiganda g'ildirakni almashtirish uchungina domkratdan foydalaning.
- Osilib turgan avtomobilda odamlar yoki hayvonlar bo'lmasligi kerak.
- Domkrat bilan ko'tarilgan avtomobilga o'tirmang.
- Domkrat bilan ko'tarilgan avtomobilda dvigatelni yoqmang.
- G'ildirakni o'rnatishdan avval g'ildirakni mustahkamlovchi gayka va burama kertikni tozalang.



OGOHLANTIRISH!

Ushbu domkrat avtomobilning mazkur modeli uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Undan boshqa modeldagi avtomobillar uchun foydalananish tavsiya etilmaydi.

Domkrat bilan ishlayotganda u ko'tara olmaydigan og'irlikniunga yuklash mumkin emas.


Ushbu domkratdan boshqa avtomobillarda foydalansila, bu avtomobilning buzilishiga yoki sinishiga sabab bo'lishi, shuningdek tan jarohatlari yetkazishi mumkin.




1. G'ildirak gaykalarining qalpoqchalarini tirab ushlang hamda burab yeching.



2. G'ildirak kalitini oching va uni mahkam qilib o'rnatiting; so'ngra har bir g'ildirak gaykasini yarmigacha burab bo'shating.



3. Domkrat sopini aylantirayotib, yuk ko'taridigan boshchasini biroz ko'taring va domkratni yarim doira qilib belgilangan joyga tik holda o'rnatiting.



4. Domkrat sopini domkratga, gayka kalitini esa domkrat sopiga to'g'ri ulang.
Shundan so'ng domkratning yuk ko'taradigan boshchasi mustahkam o'nashib olishi uchun domkratni ko'taring.

5. Domkrat to'g'ri joylashganligini kuzatgan holda gayka kalitini g'ildirak yer yuzasidan uzilmagunga qadar aylantira vering.

6. G'ildirak gaykalarini burab chiqarib oling.

7. G'ildirakni aylmashtiring.

8. G'ildirak gaykalirini burab qotiring.

9. Avtomobilni tushiring.

10. G'ildirak kalitini o'rnatiting. U mahkam turganiga ishonch hosil qiling. Gaykalarni shunday burab qotiringki, avval tepadagi bitta gayka, so'ngra pastdag'i unga qarama-qarshi joylashgan gayka qotirlisin. Boltlarni 120 Nm gacha qotirish zarur.



11. G'ildirak qalpoqchasin o'rnatishdan avval undagi ventil uchun mo'ljallangan teshikni shina ventiliga moslashtiring.

G'ildirak qalpoqchalarini o'rnating.

12. Almashtirilgan g'ildirakni va avtomobil asbob-uskunalarini yig'ishtirib oling. Domkrat jaranglashining oldini olish uchun uni o'z joyiga o'rnatayotib, vint boshchasini shunday aylantiringki, domkrat asbob-uskunalar qutisiga zinch joylashsin.

Domkrat boshqa asbob-uskunalarga tegmayotganiga ishonch hosil qiling. Asbob-uskunalar. Asbob-uskunalar haqida ↗ 9-26 betda mal'lumot keltirilgan.

13. O'rnatilgan g'ildirak shinasidagi bosimni va g'ildirak gaykalari qotirilgan vaziyatni imkon qadar tezroq tekshirib ko'ring.

Nosoz shinani almashtiring yoki ta'mirlang.




